

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘shiev H.H., Ergasheva F.Sh.

ANORCHILIK

(Anor biologiyasi, anor yetishtirish agrotexnikasi, anorni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish)



Oliy ta‘lim muassasalari bakalavriat bosqichi 5410200-Anorchilik ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik.

Guliston-2020

UDK: 372.893 (073)

BBK 65.321.4.

Qo‘shiev H.H., Ergasheva F.Sh. “Anorchilik” (Anor biologiyasi, anor yetishtirish agrotexnikasi, anorni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish) darslik. Guliston. 2020. -193 bet.

UDK: 372.893 (073)

BBK 65.321.4

Darslik Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida S-A-2018-004 Anor (*Punica granatum* L.) ning biotexnologik kolleksiyasini yaratish va patogensiz ko‘chatlarini olish texnologiyasini yo‘lga qo‘yish (Создание биотехнологическую коллекцию граната (*Punica granatum* L.) и разработка технологию получение безпатогенные саженцы) mavzusidagi hamda Jahon bankining Akademik Innovatsiyalar fondi, Oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha ajratilgan grantga asosan “Oliy ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishda klasterli yondashuv”: Guliston davlat universiteti va ishlab chiqarish integratsiyasi tizimida “O‘quv-ilmiy kompleks” tashkil etish mavzusidagi loyihalar doirasida tayyorlandi.

Darslikda, anorchilik o‘quv predmetining maqsad va vazifalari, anor (*Punica granatum* L.) ning biologiyasi, yetishtirish texnologiyasi, anorni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish bo‘yicha ma‘lumotlar, mahalliy va xorijiy manbalar ma‘lumotlarini tahlil qilish hamda olib borilgan tadqiqot natijalari berilgan. O‘zbekiston sharoitida anorchilikni rivojlantirish bilan bog‘liq holda yaratilgan biotexnologik kolleksiya asosida ma‘lumotlar yoritilgan.

Mazkur darslik, o'qituvchilar, doktorantlar, universitetlarning anorchilik, biologiya, ekologiya ta'lim yo'nalishi talabalari, shuningdek, soha bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan izlanuvchilar uchun mo'ljallangan.

Данный учебник предназначен для преподавателей, докторантов, студентов гранатоводов, биологических, экологических образовательных направлений университетов, а также для соискателей, проводящих исследования в этой области.

This textbook is intended for teachers, doctoral students, students of pomegranate farming, biological, environmental educational areas of universities, as well as for applicants conducting research in this field.

Oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichi 5410200-Anorchilik ta'lim yo'nalishi.

**Taqrizchilar: Biologiya fanlari doktori, professor
Urazboev Ismatillo Ummatovich, GulDU**

**Biologiya fanlari doktori
Xushvaqto'v Shunqor Sa'dullaevich,
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lim
vazirligi**

Muharrir: Biologiya fanlari doktori, professor Pazilov A. GulDU

**Manzil: 120105. Guliston shahri, IV mavze, Universitet,
“Eksperimental biologiya” laboratoriyasi.**

© “Universitet” 2020 y.

KIRISH

Anor-mevali o'simlik sifatida qadimdan ma'lum bo'lib, Injil va Qur'on kabi muqaddas kitoblarda ham keltirilgan. Anorning asl vatani Eron va unga yondosh bo'lgan mamlakatlar u qadimgi Misr va Yunoniston, Italiya hamda Iroqda ham yetishtirilgan. Keyinchalik u Markaziy Osiyo mamlakatlari, Hindiston, Xitoy, Shimoliy Afrika va O'rta yer dengizining Yevropa qismida tarqalgan. U ko'p qirrali xususiyat va qo'llanuvchanligi tufayli dunyoning eng foydali mevalaridan biri hisoblanadi. Tabiiy holatda anor Eron, Afg'oniston, Gruzija va Hindistonning shimoliy qismida o'sadi hamda anor nomi bilan mashhur bo'lib, tropik va subtropik iqlim sharoitida o'sadigan eng qadimgi, sevimli hamda mashhur mevali o'simlik hisoblanadi. Hozirgi kunda Hindiston anorchilik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Maxarashtra shtati anorchilik bo'yicha Hindistonda yetakchilik qilib, mamlakatda yetishtirilgan mahsulotning 65 foizidan ortig'i ushbu shtatga to'g'ri keladi.

Eron davlati yiliga 60 ming tonna anor mevasini eksport qilib, dunyoda yetakchilik qiladi, eksport bo'yicha keyingi o'rinni esa Hindiston (35176 t) egallaydi. Maqbul genotiplarni yaratish va genetik muhofazasini ta'minlash maqsadida yetishtirishni osonlashtiradigan biotexnologiyaning zamonaviy vositalaridan foydalangan holda, ko'p miqdorda ishlab chiqarilgan anor navlari mavjud. Anor mevasi oziq-ovqat hamda dorivorlik xususiyatlariga ko'ra qadimdan qadrlanadi.

Anor mevasining xususiyatlari shundan iboratki, inson immunitetini kuchaytirib, tananing turli infeksiya va viruslarga qarshi kurashishini kuchaytiradi, insonga sog'lomlik va chiroy, quvvat hamda tetiklik baxsh etadi. Ayniqsa, e'tiborlisi shundaki, anor saraton va yurak qon-tomir kasalliklarining oldini olishi mumkin.

Anorning mevasi donalari va har xil organlari to'qimalari tibbiyotda ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, tanasi bo'laklaridan har xil bezaklar tayyorlashda ishlatiladi. Anorning mevasi mineralli manbalarga, vitamin, antioksidant, biologik faol kaliyli birikmalarga boy. Hindiston anor yetishtirish va anor mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi.

Bugungi kunda dunyoning ko'pgina yirik tadqiqot markazlarida qishloq xo'jaligi o'simliklari hosildorligini oshirish bilan bog'liq holda anor yetishtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Oziq-ovqat sanoatida ko'p miqdorda ikkilamchi chiqindi sifatida hosil bo'lgan anor po'stidan ekstrakt shaklida kelgusida antioksidant, spazmolitik farmakologik preparatlar ishlab chiqarish uchun nazariy va amaliy foydalanish tavsiya etilmoqda.

Anor o'lkamizning Farg'ona vodiysi, Surxondaryo viloyatlarida ham katta maydonlarda ekib, parvarish qilinadi. Qariyb 2000-yildan beri o'stirib kelinayotgan anor ko'chati o'tgan XX asrning 25-30 yillari Mirzacho'l yerlariga ham keltirib ekila boshlandi. Mirzacho'lda Sangin Bozorboev va Xojiakbar Matkarimovlar hozirgi Mirzaobod tumani Dehqonobod qishlog'i hududida anor ko'chati ekib, Mirzacho'l anorchiligiga asos solgan. 2000-yilga kelib, bu xushta'm Dehqonobod mevasi Yevropa davlatlarida va Yaponiya hamda Janubiy Koreya supermarketlarida sotila boshladi. Ayni kunda Dehqonobodliklarning asosiy daromad manbai bo'lish bilan birga anorning turli serhosil navlarini yaratish bo'yicha tajriba maktabi bo'lib qoldi. Bugungi kunda Mirzaobod tumanida fermerlar uyushmasi, Guliston davlat universitetining "Eksperimental biologiya" laboratoriyasi va Germaniyaning GIZ xalqaro hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Mirzaobod asl anori" korporatsiyasida yetishtirilayotgan anor sharbatlari ko'pgina xorijiy davlatlarga eksport qilinmoqda.

"Eksperimental biologiya" laboratoriyasida O'zbekiston sharoitida yetishtirilayotgan va chetdan introduksiya qilingan anor navlarining biotexnologik kolleksiyasi yaratilgan. Laboratoriyada anorning hujayrasidan mikroklonal ko'paytirish asosida yaratilayotgan patogensiz ko'chatlari fermerlar, tadbirkorlar va bog'dorchilik bilan shug'illanayotgan uyushmlarga yetkazib berish asosida anorchilikni rivojlantirish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Anorning ekologik iqlim sharoitlariga mos navlarini tanlash, mevasidan oziq-ovqat sanoatida, po'stlog'idagi fiziologik faol moddalar, makro va mikroelementlaridan farmakologiyada keng foydalanish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, anorchilik ta'lim yo'nalishlari orqali soha mutaxassislarini tayyorlash

tizimi yo‘lga qo‘yildiki, ushbu tayyorlangan darslik ham aynan anorchilik ta’lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2019 yil 14 martdagi PQ-4239-raqamli “Mevasabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish bo‘yicha 3.3-bandida belgilangan vazifalar va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq holda, Anorchilik ta’lim yo‘nalishi uchun tayyorlangan ushbu darslik muayyan darajada manba bo‘lib xizmat qiladi.

1-MODUL. ANOR (*PUNICA GRANATUM L.*)NING BIOLOGIYASI VA MADANIYLASHTIRISH TARIXI. DUNYO BO‘YICHA ANOR YETISHTIRUVCHI DAVLATLAR

1.1. Anorning biologiyasi

Anor (*Punica granatum L.*) Anordoshlar oilasi (*Punicaceae* Horan) va Anordoshlar (*Punica*) turkumiga kiruvchi subtropik o‘simlik turi bo‘lib, 2 ta turni (*P. granatum L.* va *P. protopunica Balf.*) o‘z ichiga oluvchi 1 ta avlodan (*Punica L.*) tashkil topgan. Shuningdek, *Punicaceae* oilasi dastlab *Lythraceae* deb nomlangan.

Anor taksonomiya nuqtai nazaridan *Myrtales*, ehtimol *Saxifragales* tipiga kirishi taxmin qilingan. Anorning K.Linney tomonidan ilmiy nomlanishi-*Punica granatum* lotin tilida “pomum”-“olma” va “granatus”-“tanlangan, saralangan” so‘zlaridan olingan.

Shuningdek, so‘nggi o‘n yillikda morfologik, molekulyar darajadagi tadqiqotlar natijasida anorning (*Punica granatum L.*) taksonomik klassifikatsiyasiga ayrim taxminiy aniqliklar kiritishga urinishlar amalga oshirilgan.


Sobiq Ittifoq davrida Qrim yarim orolida joylashgan Nikitin botanika bog‘ida yig‘ilgan anorning botanik kolleksiyasi tarkibi 340 ta navni tashkil qilishi qayd qilingan. Jumladan, ushbu kolleksiya tarkibida Erondan keltirilgan “Holva”, “Sharodi”, Yaponiyadan keltirilgan pakana-“*Punicagra natumvar*”, Amerika dan keltirilgan urug‘siz-“Vanderful” anor navlari saqlanadi¹.

Anor balandligi 2-10 m ga teng bo‘lgan butasimon, daraxtsimon o‘simlik, novdasining uchida kuchalasimon, 1-5 ta dona joylashuvchi och qizil tusli ikki jinsli ($\varnothing=8$ sm) gullari yoz va kuz fasllari davomida ochiladi. Kosachasimon shakldagi gulida urug‘chi me‘yoriy rivojlangan, qo‘ng‘iroqsimon yoki shokilasimon gullari meva hosil qilmaydi. Anorning gullari chetdan changlanadi, mevasi (250-1000 g) tashqi po‘stlog‘i oqish, qizil-qo‘ng‘ir rangda bo‘ladi. Mevasining (umumiy quruq

¹ Многообразие сортов граната с фото и описанием // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://selo.guru/rasteniievodstvo/dekorativnolistvennye/kustovidnye/granat/vidy-gr> Дата обращения: 28.07.2019 г.

og'irligiga nisbatan ~29-50%) ichki qismida tashqi tomoni oq-qizil rangli po'st bilan qoplangan 6-12 tagacha uyachalarda urug'lar (10-20%) shakllanadi².

Anorning 2-3 yillik novdasining ustki qismi silliq, kulrang-yashil tusga ega bo'lib, yog'ochlashmagan novdalari odatda to'rt qirrali shaklga ega. Anorning barg hosil qiluvchi kurtaklari odatda, novdada juft holatda, qarama-qarshi tipda joylashadi. Vegetatsiya davrida anor o'simligida bir nechta kurtaklar generatsiyasi shakllanadi va markaziy kurtakdan yangi novda shakllanadi. Ayrim holatlarda markaziy kurtak o'sishdan to'xtaydi va tikan hosil qilishi mumkin (1.1.1-rasm).




1.1.1-rasm. Anor (*Punica granatum* L.) daraxtining tashqi ko'rinishi (A) va gulining tuzilishi (B).

Anor gullari yirik, chiroyli, yakka-yakka yoki to'p-to'p to'q-qizil, zarg'aldoq qizil bo'ladi (uzunligi 4-5 sm, diametri 2-2,5 sm) yorqin qizil rangda bo'lib, odatda novda uchida joylashgan kurtaklardan shakllanadi. Bir tup anorda ikki xil uzunchoq tojbargli kuvacha shaklidagi gul uchraydi: 1) nisbatan yirik o'lchamli, ko'zasimon shakldagi changchi va urug'chilari me'yoriy holatda rivojlangan gullar bo'lib, ular meva tugadi; 2) nisbatan kichik o'lchamli, qo'ng'iroqsimon shakldagi, urug'chi

² Anorning qaysi navlari ko'proq ekiladi? // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://mirishkor.uz/bogdorichilik/anorning-qaysi-navlari-koproq-ekiladi/> Дата обращения: 28.07.2019 г.

yaxshi rivojlanmagan erkak gullar hisoblanib, undagi onalik qismi yaxshi rivojlanmagan va mayda bo‘lib, meva tugmaydi. Shuningdek, tashqi ko‘rinishidan me‘yoriy rivojlanganga o‘xshash, lekin urug‘chisi yaxshi rivojlanmagan oraliq tipdagi gullar ham bo‘lib, ular mayda burishqoq mevalar tugadi.

Qo‘ng‘iroqsimon va oraliq tipdagi gullar to‘kilib ketadi. Me‘yoriy gullar qattiq etli 4-8 ta tishchali kosabarglar va gultojibarglar, ko‘p sondagi tugunchalarga ega bo‘lgan urug‘chi va ko‘p sondagi changchilardan tuzilgan. Gullari urug‘laganidan keyin tashqi tomonidan ichi sharbatga to‘la bo‘lgan po‘st bilan qoplangan 300-1000 donachagacha urug‘lar shakllanadi.(1.1.2-rasm)



1.1.2-rasm. Anorning gullari tiplari. A) Me‘yoriy rivojlangan gul; B) Oraliq tipdagi gul, V) Qisqa chanchilarga ega bo‘lgan gullar.

Anor aprelning boshida havo 12-14°ga ko‘tarilishi bilan ko‘kara boshlaydi. Kuzda issiq harorat shu darajaga tushganda o‘sishdan to‘xtaydi. Anorning o‘sis davri naviga, iqlimiga qarab 180-215 kun davom etadi. Anor may oyining boshida gullaydi, birinchi galda qishlab chiqqan kurtaklar gullaydi, oradan 10-15 kun o‘tib, barchasida gullash boshlanadi. Bir tup anorda uning naviga, ob-xaho sharoitiga qarab 5 mingtagacha gul bo‘lishi mumkin. Lekin bularning 96-98 % ini hosilsiz (erkak) gullar tashkil etadi.

Anorning turli navlari bir-biri bilan erkin ravishda changlatilsa, serhosil, mevasi yirik bo‘ladi. Uning gul changini ko‘p tarqatadigan vosita asalaridir. Shuning uchun anor hosildorligini oshirishda asalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Anor naviga qarab 120-160 kunda pishib yetiladi.

Anor barglari ellipssimon, kalta bandli, poyada qarama-qarshi tipda joylashgan. Anor mevasi ko'p urug'li sinkarp meva bo'lib, urug'lari tashqi tomondan po'st bilan qoplangan.

Anorning mevasi dumaloq, olti qirrali shaklda, diametr o'lchamlari ~5-12 sm ga teng bo'lib, qizg'ish tashqi po'stloq bilan o'ralgan va ichki qismida oqish-qizil rangdagi sellulozali qobiq bilan o'ralgan ~600 donagacha urug'lari joylashgan.


Ayrim tadqiqotchilar tomonidan anorning (*Punica granatum* L.) biologiyasi, mevasining tarkibi, foydali xususiyatlari, tashqi muhit omillarining anor mevasining morfo-fiziologik, fizik-kimyoviy xossalariga ta'siri tadqiq qilingan.

Anor mevasi va po'stlog'i oziq-ovqat sanoatida har xil meva shaklida hamda turli xil ishlov berilgan shakllarda foydalaniladi.

Shuningdek, turli geografik-iqlim mintaqalarida anor mevasining o'sish sharoitlari, Vegetatsiya davri va mevasining pishib yetilish muddatlari sezilarli darajada farqlanadi. Masalan, Shimoliy yarimsharda anorning (*Punica granatum* L.) mevasi sentyabr-oktyabr oyida pishib yetilishi, Janubiy yarimshar mintaqalarida (Janubiy Afrika va boshq.) esa mart-may oylarida pishib yetilishi qayd qilinadi.

Anor mevasining po'stlog'i tarkibida antosian (qizil rangni belgilab beradi), flavonoidlar, fruktoza va saharoza kompleksi (~10%), pektin, organik kislotalar, anor mevasi tarkibida lipidlar, polifenollar mavjudligi aniqlangan.

Anor mevasining og'irligi o'rtacha ~250-300 g ga teng bo'lib, mevasining shakli va rangi turli xil navlarda o'zaro farqlanadi (1.1.3-rasm).



1.1.3-rasm. Anor (*Punica granatum* L.) mevasining tashqi ko'rinishi (A, B) va mevasining ichki tuzilishi (V) Anorning 1 dona mevasining o'rtacha og'irligi ~229-350 g ga teng hisoblanadi.

Anor mevasida ~700 donagacha urug' hosil qiladi³. Anor (*Punica granatum* L.) bo'yining balandligi o'rtacha ~3-5 m ni tashkil qiluvchi, butasimon o'simlik bo'lib, asosiy poyasi qo'ng'ir-kulrang, g'adir-budir po'st bilan qoplangan. A.A.Popov tomonidan anor turlari poyasining rangiga ko'ra, 2 ta tipga ajratilgan: 1) sarg'ish-qo'ng'ir tusli buxoro anori; 2) kulrang tusli turkman anori.

Barglari kichik o'lchamli, nashtarsimon shaklda, novdalari tikan hosil qiladi, O'zbekiston sharoitida iyun-iyul oylarida gullaydi. Anor uzoq umr ko'radigan daraxt hisoblanib, to'g'ri parvarish qilinsa, 300 yilgacha umr ko'radi.

Anorning biologik xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar uning molekulyar-genetik xususiyatlari bilan tavsiflanadi. *P. granatum* turi $2n=16$, 18 xromosomaga ega bo'lib, *P. protopunica* L. xromosomalar to'plami $2n=14$ tipdagi qayd qilinadi. Jumladan, anorning "Dolka", "Ganesh", "Kandahori", "Oq muskat", "Patiala" navlarida xromosomalar to'plami $2n=16$, "Kashmiri" navida esa $2n=18$ hisoblanadi.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan anor (*Punica granatum* L.) o'simligi genomi (30 903 ta gen) strukturasi batafsil tavsiflangan. Shuningdek, anor genomida ayrim genlarning DNK strukturasi nukleotidlar ketma-ketligi o'rganilgan.

Tadqiqotlarda anor genomi strukturasi taninlar sintezida ishtirok etuvchi fermentlarni kodlovchi genlarning struktura funksiyasi va taninlar biosintez kaskadlari tadqiq qilingan.

Tadqiqotlarda anor (*Punica granatum* L.) genomi tarkibida taninlar biosintezi uchun javobgar genlar aniqlanishi bilan birgalikda anorning taksonomik klassifikatsiyasiga aniqlik kiritishda foydalanish mumkin bo'lgan genom haritasi sxemasi tuzib chiqilgan

1.2. Anor mevasi, po'sti va urug'ining biokimyoviy tarkibi

Anor (*Punica granatum* L.) mevasining kimyoviy tarkibi ayrim tadqiqotchilar tomonidan batafsil tavsiflangan bo'lib, tadqiqotlarda anor mevasining ekstrakti

³ Uyingizda anor bor – doim sog'lik sizga yor!// [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://xabardor.uz/uyingizda-anor-bor-doim-soglik-sizga-er> Дата обращения: 28.07.2019 г.

ko'krak bezi saratoni, miya, tuxumdon saratoni rivojlanishiga sezilarli darajada antikanserogen, shuningdek, turli xil to'qima hujayralariga estrogenlarga o'xshash ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Anor urug'i tarkibidan antioksidant ta'sirga ega bo'lgan moy kislotalar, tokoferol va flavonoidlar ajratib olingan.

Anor urug'ining tarkibida temir (Fe^{3+}), kaliy, mis moddasi, antioksidant moddalar kompleksi (flavonoidlar, tokoferol va boshq.) mavjudligi aniqlangan.

Anor mevasi sharbati (quruq og'irligiga nisbatan ~40%) tarkibida uglevodlar (~14- 21%), limon kislotasi (~0,3-9%), vita'minlar (A, K, C, V_6 , V_9 , V_{12} , R, E va boshq.), makro va mikroelementlar (Mg, Ca, K, P, Na, I, Fe va boshq.), antioksidant faollikka ega bo'lgan polifenollar (punikalagin va boshq.) mavjud bo'lib, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, artroz, diabet, o'sma kasalliklarining oldini olishi, immun tizimni faollashtirishi, ovqat hazm qilish tizimi funksiyasini yaxshilashi, moddalar almashinuvini optimallashtirishi, qonda gemoglobin miqdorini oshirishi qayd qilingan^{4,5,6}.

Anor mevasi (100 g/72 kkal) tarkibining 60% qismini sharbat tashkil qilib, sharbat tarkibida uglevodlar (14-21%), limon kislotasi (0,3-9%), aminokislotalar (15 ta), vitaminlar (21%), makro va mikroelementlar (Cu-8%; K-7%; Mn-6%; P-4% va boshq.) mavjud bo'lib, punikalagin moddasi antioksidant ta'sir ko'rsatishi qayd qilinadi.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan Bangladesh hududida tarqalgan anor (*Punica granatum* L.) navlari mevasining biokimyoviy tarkibi, meva tarkibidan ajratib olingan biologik faol moddalarning farmakologik ta'sir faolligi o'rganilgan.

Anor mevasining tashqi po'stlog'i umumiy quruq og'irligiga nisbatan 29-50%, urug'lari 10-20% ni tashkil qiladi. Anorning ildiz tizimi tuproq sharoitlariga bog'liq

⁴ Uyingizda anor bor – doim sog'lik sizga yor! // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://xabardor.uz/uyingizda-anor-bor-doim-soglik-sizga-er> Дата обращения: 28.07.2019 г.

⁵ Anorning shifobaxsh xususiyatlari bilan tanishish // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://asr.uz/RU/all/tibbiyot/anorning-shifobahsh-hususiyatlari-bilan-tanishish/> Дата обращения: 28.07.2019 г.

⁶ Anorning qaysi navlari ko'proq ekiladi? // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://mirishkor.uz/bogdorchilik/anorning-qaysi-navlari-koproq-ekiladi/> Дата обращения: 28.07.2019 г.

holatda o‘zgaruvchan bo‘ladi. Anor (*Punica granatum* L.) ning bo‘yi 6 m gacha yetishi mumkin.

1.3. Anorning kelib chiqishi va madaniylashtirilish tarixi

Anor (*Punica granatum* L.) kishilik sivilizatsiyasida qadimdan oziq-ovqat va tibbiyot maqsadlarida, shuningdek, manzarali o‘simlik turi sifatida foydalanilib kelingan eksport import nuqtai nazaridan iqtisodiy jihatdan qimmatli mevalardan biri hisoblanadi.

Anor eramizdan ~900-400 yil oldin qadimgi Misr, Gretsiya va Italiyada, keyinchalik Eron, Afg‘oniston, Turkmaniston, Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Shimoliy Afrika, Yevropa, Rossiya, AQSh, Kaliforniya hududlarida keng miqyosda tarqalganligi ham qayd qilinadi. Hozirgi vaqtda anor dunyoning deyarli barcha iqlim mintaqalarida yetishtiriladi.

Anor (*Punica granatum* L.) madaniylashtirilishi esa, taxminan, ~5000 yil oldin bo‘lib, yovvoyi holatda Kavkazoldi, O‘rta Osiyo, Turkmaniston, Eron va Hindiston hududida o‘sishi aniqlangan va kelib chiqish Vatani ushbu mintaqalar hisoblanishi taxmin qilinadi. Biroq, N.I.Vavilov tomonidan anorning kelib chiqish vatani yaqin sharq mintaqasi hisoblanishi qayd qilingan.

Anorning lotin tilidagi nomi (*Punica granatum* L.) Karfagen hududida yashagan qadimgi “*pun*” xalqi nomidan olingan bo‘lib, Yevropaga aynan ushbu hududdan keltirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar qayd qilinadi. Ayrim manbalarda anorning nomi “*Punika granatum*” bo‘lib, “*Punika*” ushbu o‘simlik vatani Tunis ekanini anglatishi, “*granatum*” esa “*donli*” degan ma’noni bildirishi qayd qilinadi. Anor yovvoyi xolda Kavkaz, Qrim, Afg‘oniston va O‘rta Yer dengizi atrofi mamalakatlarida, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarida keng tarqalgan bo‘lib, subtropik mintaqalarda madaniy holda o‘stiriladi.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan anorning (*Punica granatum* L.) kelib chiqish Vatani Markaziy Osiyo yoki Eron mintaqasi, Afg‘oniston, Pokiston, Himolay tog‘

mintaqasi va Shimoliy Hindiston hisoblanishi taxmin qilinadi hamda bu masala ko'pgina tadqiqotchilar ishlarida ham batafsil bayon qilingan.

Tadqiqotchilar tomonidan ko'pgina madaniy anor navlarining kelib chiqish Vatani sifatida Eron taxmin qilinadi. Hozirgi vaqtda Eron dunyo miqyosida anor yetishtirish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

Markaziy Osiyo, jumladan, Turkmaniston hududida anor eramizdan ~4000 yil oldin madaniylashtirilganligi va XVI-XVII asrlarda dunyo miqyosida tropik subtropik iqlim mintaqalariga keng tarqalganligi qayd qilinadi.

Tadqiqotchilar tomonidan anorning kelib chiqishi va genetik xilma-xilligi bo'yicha 3 ta (birlamchi, ikklamchi, uchlamchi) yirik markazlar ajratib ko'rsatilgan (Yaqin Sharq; O'rta yer dengizi mintaqasi, Sharqiy Osiyo va Amerika, Janubiy Afrika).

Bunda Yaqin Sharq markazi tarkibida Eron va Afg'oniston ham kiritilgan, bu mintaqqa N.I.Vavilov tomonidan ko'pgina madaniy o'simliklarning kelib chiqish hududi sifatida qayd qilingan.

Ikkinchi markaz anorning Sharq mintaqasi va Yevropa mintaqasiga tarqalishida muhim o'rin tutgan bo'lib, ushbu markazlarda anorning navlari genetik jihatdan sezilarli darajada farqlanishi ta'kidlanadi.

Hozirgi vaqtda anor dunyo miqyosida, asosan, geografik jihatdan 41° sharqiy kenglik va 41° shimoliy kenglik diapazonida o'stiriladi va eksport-import yo'nalishida O'rta Yer dengizi mintaqasi, Gollandiya va Osiyo, shuningdek, Hindiston yetakchi o'rinda turishi qayd qilinadi.

Shuningdek, Janubiy Amerika, Janubiy Afrika va Avstraliyada anor plantatsiyalari sezilarli maydonlarni egallashi ta'kidlanadi.

Ayrim adabiyotlarda anorning kelib chiqish Vatani O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon, Afg'oniston ekanligi qayd qilingan. Anor O'rta dengiz mintaqasi, O'rta Osiyoning janubiy qismida, Qrim, Kavkaz, Eron, Afg'oniston, Dog'istonda yovvoyi

turlari tarqalgan⁷. Anorning *P. protopunica* Balf. turi Hind okeanida joylashgan Sumatra orolida o'suvchi endemik o'simlik turi hisoblanadi.

Anor tabiatda O'rta Yer dengizi bo'yi mamlakatlarida, Qora dengiz atrofi yerlarida, Kavkaz ortida, Primore o'lkasida, Xindistonda, Xitoy va O'rta Osiyoda tarqalgan. Yer yuzida anor qishda ko'milmay parvarish qilinadigan hududlarida balandligi 5-7 m gacha o'sadigan daraxt-buta qishda ko'miladigan hududlarda buta holida o'sadi. Anor yovvoyi holda tabiatda bir ildizdan unib chiqqan bir nechta shoxlardan iborat bo'lgan buta shaklida uchraydi.

Qadimgi Gretsiya, Vavilonda anor daraxti va mevasi yangilanish ramzi, Eronda g'alaba ramzi, Xitoyda umrboqiylik ramzi sifatida qadrlangan.

Shuningdek, anor mevasi qadimdan baxt va omad ramzi sifatida ifodalangan, buddizm diniy ta'limotida baxt keltiruvchi meva sifatida ta'riflanadi, islom dinida jannat mevasi sifatida qayd qilinadi, Qadimgi Sharq va Xitoyda farovonlik, serfarzandlilik ramzi sifatida qadrlangan.

Anor (*Punica granatum* L.) turli xil geografik-iqlim sharoitlari va keng diapazondagi tuproq tiplarida o'sishga moslashgan o'simlik turi hisoblanadi.

MDH davlatlari miqyosida anorning 90,1% qismi Ozarbayjon, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmanistonda, 10% ga yaqin qismi Rossiya, Armaniston, Gruziya hududida yetishtirilishi qayd qilinadi. Qozog'istonda ayrim hududlardagina (Chimkent) anor ekilishi, O'zbekistonda anor asosan, Surxondaryo, Farg'ona, Andijon, Namangan, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida ekilishi ta'kidlangan.

Yevropa mintaqasida iqlim sharoitlari anorni ochiq dala sharoitida o'stirish imkonini bermaydi, masalan, Angliyada anor faqat issiqxona sharoitida ekiladi. Afrika, Tinch okeanining ayrim orollarida ham hosildorlik sezilarli darajada past bo'lsada, anor ekilishi aniqlangan.

Ayrim ma'lumotlarda Sobiq Ittifoq hududida, Kavkazoldi tog' mintaqasida (Kopedtog') yovvoyi anor o'rmonzorlari mavjudligi qayd qilingan, biroq Xitoy, Afg'oniston, Eron hududida dengiz sathidan 1600-3330 m balandlik mintaqalarida

⁷ Anorning qaysi navlari ko'proq ekiladi? // [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://mirishkor.uz/bogdorchilik/anorning-qaysi-navlari-koproq-ekiladi/> Дата обращения: 28.07.2019 г.

ham anor ekib o'stiriladi. Shuningdek, anor yovvoyi holatda MDH miqyosida Sharqiy Kavkazoldi hududida, shuningdek, Turkmaniston (G'arbiy Kopetdog'), O'zbekiston va Tojikiston (Xisor tizmalari) hududlarida uchrashi qayd qilingan.

Ushbu o'rinda alohida qayd qilib o'tish kerakki, anor qurg'oqchilikka chidamli o'simlik turlaridan biri bo'lib, aynan, ushbu tipdagi iqlim sharoitlarida anorni keng ko'lamda yetishtirish nuqtai nazaridan yuqori potentsialga egaligi ta'kidlanadi.

Jumladan, shimoliy yarimsharda anor yetishtiriladigan mintaqalar qurg'oqchil sharoitlari bilan tavsiflanadi.

Biroq, ayrim iqlim-geografik sharoitlarda anorni yetishtirish mumkin emasligi sababli, hozirgi vaqtda anor tijorat maqsadlarida keng ommalashgan meva turlaridan biri hisoblanadi.

Dunyo miqyosida so'nggi yillarda anor (*Punica granatum* L.) yetishtiriladigan yer maydonlarining ortib borishi qayd qilinadi.

XXI asrga kelib, dunyo miqyosida yiliga 1,5 mln t anor mevasi yetishtiriladi va asosiy eksportyor davlatlar sifatida Hindiston, Eron, Xitoy, AQSh va Turkiya ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, Ispaniyada anor plantasiyalarida (umumiy 2000 ga) hosildorlik 18,5 t/ga ni tashkil qilishi va yiliga 37 000 t anor eksport qilishi, Afg'onistonda yiliga 16 000-18 000 t, Eronda 60 000-70 000 t anor yetishtirilishi qayd qilinadi. Ayniqsa, Hindiston iqlimi yil davomida anor yetishtirish uchun optimal hisoblanadi. Umumiy holatda, anor plantasiyalarining dunyo miqyosida 90% qismi Evroosiyoda, 9% qismi Shimoliy Afrika, 1% qismi Shimoliy Amerika da joylashgan.

Bir asrdan ziyod vaqt davomida O'zbekiston iqlim sharoitiga mahalliyashtirilgan issiq sevar, sug'orish suvi va tuproq unumdorligiga talabchan, sho'rga chidamli ekin. Anor XIX asrning oxirlaridan Farg'ona viloyatining Quva tumani hududida ekilib kelinmoqda. Bugungi kunda Respublikamizning Surxondaryo, Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarida anorchilik jadal rivojlanib bormoqda.

Anor o'lkamizning Quva, Oltiariq, Surxondaryo va boshqa vohalarida ham katta maydonlarda ekib, parvarish qilinadi. Qariyb 2000-yildan beri o'stirib

kelinayotgan anor ko'chati o'tgan XX asrning 25-30 yillari Mirzacho'lning unumdor yerlariga ham keltirib ekila boshlandi. Mirzacho'lda Sangin ota Bozorboev va Xojiakbar ota Matkarimovlar hozirgi Mirzaobod tumani Dehqonobod qishlog'i hududida anor ko'chati ekib, Mirzacho'l anorchiligiga asos solgan. Dehqonobodliklar Eshonkalon ota va Rusta'm ota, Eshonqul ota, Madali ota, Rajabboy ota va Raimjon ota kabi usta bog'bon hamqishloqlarining ishlarini davom ettirib, o'z anorlarini dunyo bozoriga chiqarishga erishdilar. 2000-yilga kelib, bu xushta'm Dehqonobod mevasi Yevropa davlatlarida va Yaponiya hamda Janubiy Koreya supermarketlarida sotila boshlandi. Ayni kunda Dehqonobodliklarning asosiy daromad manbai bo'lish bilan birga anorning turli serhosil navlarini yaratish bo'yicha tajriba maktabi bo'lib qoldi.

Bugungi kunda Mirzaobod tumanida fermerlar uyushmasi, Guliston davlat universitetining «Eksperimental biologiya» laboratoriyasi va Germaniyaning GIZ xalqaro hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlikda tashkil etilgan «Mirzaobod asl anori» korporatsiyasida yetishtirilayotgan anor sharbatlari ko'pgina xorijiy davlatlarga eksport qilinmoqda.

«Eksperimental biologiya» laboratoriyasida O'zbekiston sharoitida yetishtirilayotgan va chetdan introduksiya qilingan anor navlarining biotexnologik kolleksiyasi yaratilgan. Laboratoriyada anorning hujayrasidan mikroklonal ko'paytirish asosida yaratilayotgan patogensiz ko'chatlari fermerlar, tadbirkorlar va bog'dorchilik bilan shug'illanayotgan uyushmlarga yetkazib berish asosida anorchilikni rivojlantirish tizimi yo'lga qo'yilgan.

O'lkamizda anorning 69 tadan ziyod navlari hisobga olingan bo'lib, bu navlar 3 xil xususiyatga ega. Bular achchiq anor, nordon anor va shirin anor xillaridir.

Achchiq anorning o'zi 3 xil navlarni o'z ichiga oladi:

Birinchisi, «Asl qayin» bo'lib, katta-katta, qizil, donalari yirik va suvli bo'ladi. Hosili terib olingach, po'sti tezda yumshaydi.

Ikkinchisi, «Past qayin». Bu nav anorning mevalari kichikroq, terisi oqishroq, donalari maydaroq, o'zi kamsuv va nordonroq bo'ladi.

Uchinchi, “Qizilbosh” bo‘lib, hosili mayda terisi qizil, toji yo‘g‘on va uzun bo‘ladi.

Nordon anor ham 3 xil navga ega:

Birinchisi, “Asl kubodiyon” bo‘lib, anorlarning eng yaxshisidir. Uning donalari yirik, suvli, ta‘mi nordon. Po‘sti qizil, ko‘k va oq aralash bo‘ladi. Ikkinchisi, “Ko‘k teri” bo‘lib, po‘sti qalin mart oyigacha yaxshi saqlanib turadi, donasi boshqa anorlarga qaraganda kam.

Uchinchi, Qizil anor, buni ayrimlar “A‘lo qayin” deb atashadi. Uning mevasi uncha katta bo‘lmaydi, biroq rangi juda chiroyli, ta‘mi shirin, donalari yirik va suvli bo‘lib, ko‘p yorilmaydi, saqlashga yaxshi.

Shirin anor navlari ikki xil guruhga bo‘linadi:

Birinchisi, “Katta qizg‘ish”. Uning donasi qizil, suvli va yirik bo‘lib, anorlarning ichida eng mazalisidir.

Ikkinchisi, “Sariq tun” deb atalib, donasi maydaroq, suvsiz bo‘lib, po‘sti yupqa va oqsariq rangli bo‘ladi. Sirdaryo vohasida bulardan tashqari «qora kayin « navi ham keng tarqalgan bo‘lib, mevasi qizildan qoraga yaqinroq, donasi yirik, suvli va shirindir.

Dehqonobod anorchiligiga munosib hissa qo‘shgan Rayimjon ota Ne‘matov yaratgan “Qora marvarid” anori ko‘pchilikni e‘tiboridadir. Bu anor mevasi yirik, po‘sti qalin bo‘lib, ko‘p yorilmaydi va kelgusi bahorgacha yaxshi saqlanib turadi. Mevasining rangi to‘qqizil va qora bo‘lib, marvariddek tovlanib turadi, ta‘mi nordondan shiringa yaqinroq. Toji uzun ushbu anor yumaloqdan ko‘ra uzunchoq bo‘lib, tag qismi qalin go‘shtdordir. Ana shu go‘shtdor qismda to‘plangan ozuqa tufayli anorning uzoq vaqt so‘limay turishiga yordam beradi.

Asrlar bo‘yi shifobaxshligi uchun qadrlab kelingan anor donasining soni yilimizning kunlariga ya‘ni uch yuz oltmish besh dona bo‘lib, (faqat ayrim navlarida 200-800 tagacha bo‘lishi mumkin) uni to‘kmay, biror donini qoldirmay va tashlamay iste‘mol qilinsagina inson salomatligiga foyda qilishini bobolarimiz ko‘p ta‘kidlashgan.

1.4. Anorning o'sish va rivojlanish davrlari

Anorning o'sishi va rivojlanishi hamda hosildorligi yuqori bo'lishi uchun yillik Vegetatsiya davrida quyosh nurining umumiy harorati $+4000...+4600^{\circ}\text{C}$ diapazonda bo'lishi, yog'ingarchilik miqdori 18-55 mm, qish mu'tadil bo'lishi talab qilinadi. Shuningdek, anor yetishtirishning optimal sharoitlari tuproq tiplari, hududning dengiz sathidan balandligi, foydalaniluvchi agro-melioratsion texnologiyalarga ham bog'liq hisoblanadi.

Anor yetishtirish uchun eng optimal tuproq allyuvial tipdagi, drenaj tizimlari ratsional tavsifga ega bo'lgan, unumdor va o'rtacha zichlikdagi tuproqlar hisoblanadi. Biroq, kuchsiz va o'rtacha darajada sho'rlangan tuproqlarda ham anor yuqori hosil berishi kuzatiladi. Tuproqlar tarkibida o'simliklar uchun toksik ta'sirga ega tuzlar, asosan, NaCl , Na_2SO_4 va MgSO_4 ko'rsatib o'tiladi, CaSO_4 , $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ anorning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, biroq konsentratsiyasi ortishi sharoitida o'simlikning ildizi orqali suv so'rilishini kamaytirishi aniqlangan.

Tuproq gorizonti tarkibida tuzlarning umumiy miqdori quruq og'irlikka nisbatan 0,5% dan ortishi sharoitida anor ildizining suv so'rish funktsiyasi buzilishi, o'simlikning o'sish va rivojlanishi salbiy tomonga o'zgarishi aniqlangan.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan anor hosildorligini saqlab qolish maqsadida sho'rlangan tuproqlar sharoitida kimyoviy meliorasiya uslublaridan foydalanish tavsiya qilinadi. Biroq, bu qo'shimcha iqtisodiy sarf-harajat va mehnat sarfini talab qiladi.

Ayniqsa, tuproqda NaCl miqdori ortishi ta'sirida anor hosildorligi keskin kamayishi aniqlangan.

Anor tashqi muhitning noqulay omillari ta'siriga nisbatan chidamli o'simlik turi hisoblanadi. O'rtacha darajadagi qurg'oqchil sharoitda, Vegetatsiya davrida $+45...+48^{\circ}\text{C}$ harorat diapazoni va issiq shamollar kombinatsiyasi sharoitda ham anordan sifatli va yuqori hosil olish mumkinligi qayd qilingan.

Anorning o'sish davri naviga, iqlimiga qarab 180-215 kun davom etadi. Anor may oyining boshida gullaydi, birinchi galda qishlab chiqqan kurtaklar gullaydi,

oradan 10-15 kun o'tib, yoppasiga gullash boshlanadi. Bir tup anorda uning naviga, ob-xavo sharoitiga qarab 5 mingtacha gul bo'lishi mumkin. Lekin bularning 96-98 % hosilsiz (erkak) gullar tashkil etadi. Kuzda issiq harorat shu darajaga tushganda o'sishdan to'xtaydi.

Anorning turli navlari bir-biri bilan erkin ravishda changlatilsa, serxosil , mevasi yirik bo'ladi. Uning gul changini ko'p tarqatadigan vosita asalaridir. Shuning uchun anor hosildorligini oshirishda asalaridan foydalanish kerak.

Anor o'zining naviga qarab 120-160 kunda pishib yetiladi. Anorning turli navlari bir-biri bilan erkin ravishda changlatilsa, serhosil, mevasi yirik bo'ladi.

1.5. Anorni ko'paytirish va ko'chat yetishtirish

Anorni ko'paytirish eng muhim va mas'uliyatli jarayon bo'lib, asosan, uch xil usul bilan ko'paytiriladi.

1. Urug'dan (jinsiy) ko'paytirish.
2. Qalamcha yordamida ko'paytirish.
3. Xujayradan ko'paytirish (mikropropagasiya)

Anorni urug'idan ko'paytirish

Anor urug'lari yorqin jigarrang tusda bo'lib, bitta mevada ~250-300 tani tashkil qiladi. Tabiiy sharoitda anor urug'lari aprel oyida unib chiqishi kuzatiladi. Yangi o'simtalari yorqin yashil rangda, barglari buyraksimon shaklda, asimmetrik, uchki qismi o'yoqchali, uzunligi 0,8-1 sm, eni 1-1,2 sm ni tashkil qiladi. Dastlabki chin barglari cho'zinchoq, qarama-qarshi tipda joylashishi qayd qilinadi (1.5.1-rasm).

Anor urug'lari stratifikatsiya qilinmasdan ko'karishi mumkin, lekin tijorat maqsadida anor ko'chatlarini urug'dan ko'paytirish tavsiya qilinmaydi. Chunki asos navni urug'dan hosil qilish qiyin, ko'chat navlari har-xil bo'lib shakllanadi.

Anor urug'ini ekishdan oldin spesifik ishlov berish orqali uning unuvchanlik darjasini oshirish mumknligi qayd qilingan.



1.5.1-rasm. Anor o‘simligini urug‘idan ko‘paytirish (Guliston davlat universiteti Eksperimental biologiya laboratoriyasi, 2019 yil).

Anorni qalamchalari yordamida ko‘paytirish

Anor ko‘pincha amaliyotda vegetativ usulda qattiq qalamchalari yordamida ko‘paytiriladi, qurg‘oqchilikka, sovuqqa chidamli ($-15...-17^{\circ}\text{C}$ gacha optimal daraja hisoblanadi) namsevar o‘simlik hisoblanadi.

Tijorat maqsadida anor ko‘chatlari qalamchadan (yumshoq va qattiq novda) va hujayradan ko‘paytirilishi tavsiya qilinadi. Bu usullardan ko‘paytirilgan ko‘chatlar asos nav bilan bir xil bo‘lib shakllanadi, navni saqlab qolish imkoni katta.

Anorni qattiq qalamchalaridan ko‘paytirish eng maqbul usul bo‘lib, ko‘pincha tijorat maqsadlarida ham qalamchalar yordamida ko‘paytiriladi. Qalamchalar yordamida ko‘paytirish o‘z navbatida uch xil usul asosida ko‘paytiriladi.

Birinchi usul daraxt tagidan va tanasidan o‘sib chiqqan yovvoyi novdalardan olib ko‘paytiriladi. Bu ko‘chat juda tez o‘sadi, lekin hosili kam bo‘ladi.

Ikkinchi usul daraxt shoxlaridan kesib olib ekiladi, bu sekin o‘sadi, hosildorligi yaxshi bo‘ladi.

Uchinchi usul anor daraxti tanasidan biri Yerga egib ko‘miladi. Bu usul “palgari”, Fargona vodiysida esa “tizz” deyiladi hamda tez amal olib hosildorligi yuqori bo‘ladi. (1.5.2-rasm)

Tanasidan qirqib olingan yoki qalamchalar shaklida qirqib olib ekish, ko‘paytirishning eng maqbuli uchinchi bo‘lib, bahorda anorlar ochilib, yerlari tekislangach, meva qiladigan yoki extiyosizlik qilib yarim singan tanasi yoki

tanadan tayyorlangan qalamchalar va novdalari daraxt yoniga ko‘miladi. Ikki yil avval o‘tkazib yaxshi ildiz otgan ko‘chat joyidan kovlab olinib, boshqa yerga ekiladi.

Yosh ko‘chatlardan olingan qalamchalar, yoshi katta daraxtlardan olingan qalamchalarga nisbatan yaxshi ko‘karmaydi. Qalamchalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chatxonada pushtalarga suqib yoki tuproq to‘ldirilgan tuvaklarda ko‘kartirilishi mumkin.

Ba‘zi anorzorlarda ildiz otmagan qalamchalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘ qatorlariga ekilishi ham kuzatiladi, lekin qalamchalar bir tartibda va shaklda ko‘karishi uchun ularni ko‘chatxonada ko‘kartirish tavsiya qilinadi.



A) Qalamchalarning alohida ko‘rinishi.



B) Qalamchalarning umumiy ko‘rinishi.
1.5.2-rasm. Qattiq qalamchalar

Anor ko‘chatlarini qalamchadan ko‘paytirish

Qalamchalar 15-20 sm uzunlikda va 0.6-1.2 sm qalinlikda yoki qalam qalinligida tayyorlanadi va odatda 3-4 ta kurtakka ega bo‘ladi.

Qalamchalar tinim davrida bir yoshli shoxlardan yoki so‘ruvchi novdalardan kesib tayyorlanadi (pishgan bir yoshli novdadan olinishi shart).

Daraxt asosidan yoki shoxlar orasidan chiquvchi so‘ruvchi novdalardan tayyorlanadigan qalamchalar eng yaxshi natija beradi.

Qalamchalar kesib olingandan so'ng, ostki kurtakka yaqin joydan yana bir bor o'tkir pichoq bilan qisqartiriladi. Qalamchani kurtakka yaqin yoki uzoq qoldirib kesishning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi haligacha to'liq o'rganilmagan.

Qalamchanning ostki qismini qiyalatib kesish, uning uchi yoki ostini ajratib olishda juda qo'l keladi. Kurtaklar bargdan tozalanib va o'stiruvchi garmon bilan ishlov berilishi tavsiya qilinadi.

Ba'zi hollarda qalamchani tuproqqa joylashdan oldin pichoq yordamida qalamchanning bir qism po'stlog'ini 4 joyidan diametr bo'ylab qirib ochib tozalanadi.

Anor qalamchalarini to'g'ridan-to'g'ri pushtaga suqib ko'kartirish

Ko'chatxona pushtalari o'lchami pushta ichidagi qalamchalar orasidagi masofa 20 sm, pushtalar orasidagi masofa 90 sm. Qalamchalarning uchdan ikki qismi tuproqqa suqiladi, qalamchanning 5-7sm qismi pushta yuzasida qoladi. Qalamchanning kamida 3ta kurtagini yer ostiga kirgizib faqat bitta kurtagini pushta ustida qoldirish maqsadga muvofiq.

Qalamchanning kesilgan joylarining bitishini kutib, keyin ekish shart emas. Qalamchadan ko'kargan yangi novda bir yil davomida ko'chatxonada o'stiriladi va kelgusi yil qishda yoki erta bahorda bog'ga ko'chirib ekiladi. Ko'chatxonadagi tuproq namligini doim nazorat qilish va uni haddan ortiq namda ushlab turish tavsiya qilinmaydi.

Ekilgandan so'ng qalamchalarni oziqlantirmaslik kerak. Qalamchalar ekilgandan so'ng 3 oy o'tib, rivojlanishni boshlagan qalamchalarni kuchsiz suvda yaxshi eruvchi o'g'it bilan oziqlantirishni boshlash mumkin. Bunday oziqlantirishni bir oyda bir marta bajarish mumkin. Tavsiya qilingan ozuqalar bu N, P, K, Ca, Mg, Zn ko'rinishidagi sekin ajraluvchi tez ta'sir qiluvchi boshqa mikroelementlar bilan boyitilgan ozuqalardir. Qalamchalarning ildiz otishi 4-8 hafta oralig'ida yuz beradi.

Qalamchalar yaxshi rivojlanishi uchun soya beruvchi to'r tutish shart emas, lekin havo juda issiq bo'lsa bunday to'rdan foydalanish tavsiya qilinadi.

Qalamchalarni tuvak yoki qopchalarda ko'kartirish

Tuvaklar: Qalamchalar ko'karishi uchun tuvaklarning hajmi unchalik katta muhim rol o'ynamaydi, shu sababdan mavjud imkoniyat asosida har qanday buyum to'g'ri keladi.

Ildiz oladigan muhit: Qalamchalar qum va gumus kabi yaxshi namlik o'tkazuvchi istalgan muhitda ko'kartilishi mumkin. Ko'p qo'llaniladigan mahsulotlar bu gumus, perlit, qum va boshqalar (1.5.3-rasm)



1.5.3-rasm. Turil hajmdagi qora plastik paketchalar

Ildiz orttirish uchun foydalaniladigan mahsulotlarni tanlash

1. Sifati (tarkib hajmi, loy, tuz, begona o't urug'lari, kasallikdan tozaligi, pH 5.5 -6.5);
2. Fizik tarkibi:
 - A) qalamchani tutib turish imkoniyati,
 - B) qalamchani osonlikcha suqib joylash,
 - C) yetarlicha havo aylanishi;
3. Aralashishi yaxshi va osonlikcha aralashishi;
4. Standartlashtirish-aralashmani oson va bir tartibda tayyorlash imkoniyati.

Ildiz ottirish uchun foydalaniladigan mahsulotlar

- a) Torf-eng ko'p foydalaniladigan mahsulot;
- b) Po'stloq-maxsus maydalangan daraxt po'stlog'idan foydalanishga bo'lgan talab ortib bormoqda;

- c) Opilka-yog'och qayta ishlashidan hosil bo'lgan biologik mahsulot;
- d) Mayda yoki dag'al qumlar;
- e) Perlit-alohida o'zidan ham foydalanish mumkin, lekin boshqa mahsulotlar bilan qo'shib ishlatilsa samaraliroq bo'ladi;
- f) Tuproq-asosan ochiq dalada qalamchalarni to'g'ridan-to'g'ri suqib ko'paytirishda foydalaniladi;
- g) Boshqa shu maqsadda ishlatilishi mumkin bo'lgan biomahsulotlar.

Qalamchalarning ildiz otishi 4-8 hafta oralig'ida kuzatiladi.

Ko'chatxonadagi tuproq namligini doim nazorat qilish va uni haddan ortiq nam ushlab turish tavsiya qilinmaydi.


Ildiz ottirish uchun joy-muhit

Ko'chatxonadagi ochiq muhitdan farqli o'laroq, issiqxona va maxsus ichki harorati nazoratga olingan muhitda qalamchalarning ildiz otish va qalamchalarning rivojlanish foizi yuqori bo'ladi. Shunday muhitda ildiz rivojlanadigan harorat 23-25°C bo'lsa, har 20 minutda, qalamchanning ildiz otishi yanada muvoffaqiyatliroq bo'ladi. Quyidagi rasmda shunday muhitda 6 hafta ichida ildiz otgan 15 smlik qalamcha keltirilgan. Qalamchanning tuproqqa kiruvchi qismining po'stlog'i bir oz qirib ochilgan va indole-3-butryic kislotali o'stiruvchi garmonga botirilgan. Bunda qalamcha ko'karishi va ildiz ortishi juda qoniqarli bo'lgan (1.5.4-rasm)

Polietelen bilan yopilgan va suv purkab turiladigan issiqxonalardan qalamchalar ko'paytiriladi. Qalamchalar maxsus polka yoki yashiklarda (qopchalarda) joylashtirilishi mumkin. Agar polga qo'yiladigan bo'lsa, o't chiqib ketmasligi va kasallik tarqalmasligini oldini olish uchun yer plyonka bilan qoplansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Oddiy bir qavatli yarim oy shaklidagi kam harajat issiqxona maketi chizmasi quyida berilgan. (1.5.5-rasm)




1.5.4-rasm. Ildiz orttirish uchun joy-tumanka



1.5.5-rasm Ildiz orttirish uchun joy

Tashqi arkasi (a) 50 mm diametrli metall trubadan, ichkarisidan esa (b) 25 mm diametrli ushlab turuvchi trubalar. Arkaning balandligi (H) 4 m va uzunligi (L) 8 m. Issiqxona 9 ta arkadan tashkil topgan va har bir arka orasidagi masofa (D) 3m. Arkalar bir-biri bilan 25mm diametrli truba bilan qotirilgan (a, b, c). (1.5.6-rasm)


Issiqxona maketi chizmasi quyida berilgan.:



1.5.6-rasm Ildiz ottirish uchun joy


Issiqxona ventilyatsiyasi yon oynalari va eshiklari yordamida amalga oshiriladi. Bunday issiqxonaning plastik bilan yopiluvchi yon oynasi quyidagi chizmada berilgan. Oyna yerdan 1m balandlikda joylashtirilishi shart va diametri 12,5 mm bo'lgan truba oynani yopib turuvchi oq plastik bilan osti qismidan mahkamlanadi. Plastikning tepa qismi esa trubalarga gorizontal ravishda mahkamlangan reykaga qotiriladi.

Oynani ochish uchun maxsus metal qurilma buraladi va plastik 12.5 mm trubaga o'ralib tepaga ko'tariladi. Oynani yopish uchun esa, metal qurilma soat strelkasiga qarama-qarshi tarafga buraladi va plastic sekin pastga qarab tushadi. (1.5.7-rasm)



1.5.7-rasm. Ildiz ottirish uchun joy

Yomg'ir suvi issiqxona ichiga kirmasligi uchun uning poli 30 sm yer yuzasidan ko'tarilishi shart. Issiqxona polining 15 sm sement qorishma bilan qoplanishi mumkin. Taklif qilingan issiqxona 192 m² sig'imga ega bo'ladi va unga quyidagi materiallar ketadi a) 350 m² oq plyonka , b) 117 m 50mm temir diametrli truba, c) 148 m 25 mm diametrli temir truba va d) 100 m yog'och reyka 62.5 mm x 62.5 mm. Bu kabi issiqxonalar kam harajat bo'lib, ko'chatxona yurituvchi istalgan shaxs, hattoki ayollar ham ularni o'zlari qurishi mumkin.(1.5.8-rasm)



1.5.8-rasm.Issiqxonada tumankadan foydalanish

Tumanka usuli faqat tez ildiz otuvchi qalamcha turlariga qo‘llaniladi. O‘rnatish harajatlari juda katta bo‘lganligi sababli, alohida tumanka tizimli issiqxonalar qurilmaydi odatda. Oddiy plastik yordamida qurilgan issiqxonalarga tumanka tizimi o‘rnatiladi, polkalar yoki yer ustiga, qalamchalar qayerga joylashtirilganligiga qarab.

Yuqorida tilga olingan oddiy yarimoy shaklidagi issiqxonalarga ham tumanka tizimi o‘rnatilishi mumkin. Harajatlaridan tashqari, tumanka tizimining 3ta muhim jihati bor:

- suv purkagichlarning uchlari suvni par sifatida purkaydi va ortiqcha suv chiqib namlik yig‘ilishi oldi olinadi.,
- tizim to‘liq avtomatlashtirilgan bo‘lib, samaradorligi yuqori bo‘ladi
- parlangan suv qalamchalar ustiga bir maromda tushadi va suv yaxshi filtrlanib tuproq yuzasida yig‘ilib qolmaydi.

Tumanka yordamida ko‘chat ko‘paytirish-qalamcha ildiz orttiriladigan yashikchalar

Tumanka tizimidan foydalanganda qalamchalar odatda yashikchalarga (polka) joylab ko‘kartiriladi. Bu maqsad uchun yashikchalarni yasayotganda quyidagi omillarga ahamiyat berish tavsiya qilinadi:


1) Ishlash oson bo'lishi uchun ular qulay kenglik va balandlikda bo'ladi. Aksariyat kishilar yerdan 70 sm balandlikdagi yashikchalardan foydalanishni avfzal ko'rishadi.

2) Yashikchalarning uzunligi 2 metr va kengligi 100 sm bo'lishi, har tarafdan o'tib ishlashni osonlashtiradi.

3) Yashikchaning chuqurligi 20sm

4) Bunday yashikchaning qobig'i va ichki qismi zanglamaydigan 1mm qalinlikdagi temirdan qilinishi maslahat beriladi. Baquvvat bo'lishi uchun ugolnik va tekis listlardan foydalanish shart. 25mm x 25mm x 3mm ugolnik birlashtirib to'g'ri to'rtburchak shaklida biriktiriladi va ostiga 3mm qalinlikdagi list qotiriladi. Yashikcha o'rtasida bir-biridan 50 sm uzoqlikda joylashtirilib 6mm diametrdagi 3ta teshik ochiladi, bu ortiqcha suv chiqib ketishiga yordam berib drinaj vazifasini o'taydi.

Yashikchalar joylashtiriladigan o'rindiq balandligi 50sm bo'ladi va 4 sm qalinlikdagi zanglamaydigan temir trubadan yasaladi. (1.5.9-rasm)



**1.5.9-rasm.Yashikcha
Yosh ko'chatlarni parvarishlash**

Yosh ko'chat kuchli quyosh radiatsiyasidan aziyat chekmasligi uchun ekilishdan oldin soya ostida bo'lishi shart. Yosh niholcha uchun eng maqbul harorat bu 27°C. Imkon bo'lsa shu haroratni ushlab turishga harakat qilish kerak. Qalamchalar bir mavsum tabiiy holda rivojlanishi lozim.

Qalamchalar soya beruvchi to‘r ostida o‘stirilishi maqsadga muvofiq, yoz issiq keladigan hududlarda bunday to‘r issiq quyosh nurlaridan asraydi.

Qalamchalarni soya beruvchi to‘r ostida o‘stirilishi ularni suvsizlikdan yuzaga keluvchi stresdan va quyosh nurida kuyishdan asraydi. To‘rning qalinligiga qarab ular quyosh radiatsiyasini turlicha singdirishga yordam beradi. Hozirda to‘qilgan yashil to‘rlardan keng foydalaniladi.

Soya berish uchun ishlatiladigan to‘rlarning turli xili va turli ranglari mavjud, ular 40% dan 70% gacha soya bera olish imkoniyatiga ega.

Bunday to‘rlar yengil bo‘lganligi sababli ularni yengil truba, hattoki yog‘ochdan qilingan ayvon ustiga to‘shash mumkin. (1.5.10-rasm)



1.5.10-rasm.A) Soya beruvchi to‘r setka



B) Yosh nihollarni parvarishlashda qo‘llaniladigan soyabon

O‘stiruvchi garmonlardan foydalanish

O‘stiruvchi garmonlar sintetik (sun‘iy) preparatlar bo‘lib, qalamchalarga ildiz otishga yordam beradi.

O‘stiruvchi garmonlardan foydalanishning avfzalliklari quyidagilar:

- a. Ildiz otish foizini oshiradi.
- b. Ildiz otishni tezlashtiradi.
- c. Ildizlar sonini va sifatini oshiradi.
- d. Bir tekisda ildiz otishga yordam beradi.

Bunday o‘stiruvchi garmonlarning uch turi mavjud:

- Indolebutyric Acid (IBA). keng foydalaniladi.

- -Naphthaleneacetic Acid (NAA)
- Indole-3-Acetic Acid (IAA)

O‘stiruvchi garmonlardan foydalanish

“IBA 500 ppm + borax 1%” qorishmasidan foydalinganda eng yaxshi natijaga erishilgan. Qalamchalar 5 soniyaga qorishmaga botirib ekiladi.

O‘stiruvchi garmonlardan ikki usulda foydalaniladi, kukun yoki suyuqlik ko‘rinishida. Qalamchalar namlab kunkunga botiriladi va nam opilkada ildiz ottiriladi.

Eritma usulida esa garmon organik Eritma aseton (ethylalcohol) bilan birga ishlatiladi.

Garmondan eritma ko‘rinishida foydalanish eng ko‘p tarqalgan usul.

Demak, aksariyat hollarda qalamchalar 3-5 soniyaga garmonli suyuqlikka botiriladi va ekiladi.

Keyingi bosqichda qalamchalardan hosil bo‘lgan ko‘chatlar tanlangan maydonlarga, tuproqqa o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.

Tuproq unumdorligiga bog‘liq holatda ko‘chatlarning oralig‘i 4×4; 5×4, shuningdek, tomorqa ho‘jaliklarida 3×3 m belgilanadi. Vegetatsiya davri 180 -215 kun, mevasi 120-160 kunda pishib yetiladi (sentyabr oyining 2-yarmida). Anor ko‘chati ekilganidan keyin 3-4 yilda meva hosil qiladi, 8-10 yilda juda yaxshi rivojlanadi agar agrotexnik talablarga amal qilinsa, o‘rtacha 30-40 yil davomida optimal hosildorligini saqlaydi. Hosidorlik ko‘rsatkichi gektariga 200 sentnerni tashkil yetadi. 1-yildan boshlab bo‘yi 30-40 sm, 4-5 ta yoki 3-4 ta novda qoldirib, butasimon shakl beriladi. Vegetatsiya davrida 6-10 marta sug‘oriladi⁸.

O‘zbekiston iqlim sharoitida anor tupi kech kuzda tuproq o‘simliklar qoldiqlari bilan ko‘milib, Erta bahorda ustki qismi ochiladi, Vegetatsiya davri 180-215 sutkani tashkil qiladi. Anor -15...-17°C haroratga chidamli, -20°C dan past harorat sharoitida o‘simlik tupini sovuq urishi qayd qilinadi.

⁸ Anorning qaysi navlari ko‘proq ekiladi? // [Elektron resurs]. Kirish rejimi: <https://mirishkor.uz/bogdorchi/anorning-qaysi-navlari-koproq-ekiladi/> Kirish sanasi: 28.07.2019 y.

Anor o'simligi 3-4 yildan boshlab meva hosil qila boshlaydi, 8-10 yilda to'liq hosilga kiradi, 30-40 yil meva berishi qayd qilinadi, hosildorligi gektariga 200 sentnerni tashkil qiladi.

O'zbekiston sharoitida anor mevasi 120-160 sutkada pishib yetiladi (sentyabrning ikkinchi dekadasi).

O'zbekiston iqlim sharoitida anor kurtaklari aprel oyining o'rtalarida, ob-havo harorati +13...+14°C ga teng bo'lgan sharoitda rivojlana boshlaydi, nisbatan janubiy hududlarda bu jarayon mart-aprel oylarida kuzatiladi. Anorning gullash jarayoni ob-havo harorati +19...+22,5°S sharoitda boshlanadi. O'rta Osiyo sharoitida anorning vegetatsiya davri, rivojlanish fazalarida ayrim fiziologik ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi ayrim tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Anor ko'chatini ekish uchun eng maqbul vaqt noyabr oyidir. Bu paytda ulgurilmasa, 22 fevraldan 21 martgacha bo'lgan davrda ham o'tkazish mumkin. Bu muddatda o'tkazilgan anor daraxtining o'q tomiri kuchli, mayda tomirlari ko'p bo'ladi. Anor ko'chatini ekish uchun ikki yoshga to'lgan, yaxshi tomirlagan ko'chatlar tanlab olinadi. Avvalo tomirning katta-kichikligiga moslab chuqur qazib olinadi. So'ngra bir oz chirigan go'ng solinadi va o'sha chuqurdan chiqqan tuproq bilan tomir ko'miladi.

Anor ko'chatini qaysi tarafga qaratib ekish to'g'risidagi masalaga eng maqbul tomon janub tomonni tanlash maqsadga muvofiq (bu yerda ko'mishni hisobga olib, 45 darajada ekish mo'ljallanadi). Negaki shamol yo'liga teskari, ikkinchidan hamma daraxtlar quyoshga intilib yashaydi hamda anor daraxtining hamma tomoniga quyosh bemaol o'z issig'ini bera oladi

Anor ko'chatini ayrim bog'bonlar qator oralarini 5x3 sxemada qilib, ba'zilar 4x4 usulda ekadilar. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ko'chatlar qator orasini 4 m va tup orasini 3m qilib ekilsa, hosildorlik ortadi. Bunda bir gektar yerga 830 tup anor ko'chatini o'tkazish mumkin. Har tup anor daraxtidan o'rtacha 40 kg dan hosil olinadigan bo'lsa, shu ko'rsatkichga nisbatan daromad hisoblanadi. Texnika bilan ishlov beriladigan maydonlarda qator oralari 5m tup oralari 3 m qilib, ekiladi, bunda bir gektar yerga 666 tup ko'chat joylashtiriladi. Anor daraxti quruq va nami kam yerni yoqtiradi va bunday yerlarga ekilgan nihol tez avj oladi, ham uzoq yashaydi.

Anor daraxtini parvarishlash.

Anor daraxti sovuqqa chidamsiz bo'lib, -10° C darajagacha chidaydi. Sirdaryoning namligi yuqori bo'ladigan qishida anorni tez sovuq urishi mumkin. Anor daraxtining qishli kunlardan saqlab qolish uchun uni ko'mish kerak. Ko'mish uchun eng qulay vaqt oktyabr oyining oxiri va noyabr oyining birinchi o'n kunligidir. Chunki bu vaqtda anor daraxti tanasida suv bo'lib, yaxshi egiladi va sinmaydi. Zax yerlarda yerga bir qavat xas-xashak tashlanadi, anor yotqizilib, ustiga yana bir qavat xas-xashak tashlab, shoxlari yig'ishtirilib ko'miladi. Iloji boricha anor tanasiga tuproq tegmay xashak ustida bo'lishiga e'tibor bering. Shundagina daraxt qishdan omon chiqadi.

Yana bir jihati borki, qish cho'zilib ketgan davrda anor tanasini tuproq «yalamay», unga ziyon yetkazmaydi. Bahor boshlanib, mart oyining o'ninчисini o'tkazib, qishi bilan tayyorlangan o'g'it bo'lsa, anor ostiga solib ustidagi tuproqni tushiriladi. Faqat ko'mish vaqtida qo'yilgan xashagi olinmasligi maqsadga muvofiq, chunki, kutilmagan sovuq tushib, tuproq ostidan issiq chiqqan anor daraxtiga tez ta'sir qilishi mumkin.

Hamal boshlanib, mart oyining 20 chisidan so'nggina uning xashaklari olinib, yeri tekislanadi. Ayrilar qo'yilib, singan shoxlari olib tashlanadi. Ishlov berish chog'ida o'tmas chopqi va bolta ishlatilmasligi kerak. Anor daraxti tanasidagi ko'chib qolgan po'stlog'ini tozalab, oqlab qo'yish yoki butun tanasini dorilab chiqishga e'tibor qaratish kerak. Bu bilan anor daraxti tanasida qishlab sog'lom chiqqan zararli hasharotlarni ko'payishini oldi olinadi. Shundan so'ng anorga suv berish kerak.

Aprelning oxiri may oylarida anorga suv berishga ehtiyoj bo'lmaydi. Uning tanasidan o'sib chiqqan xom novdalarni olib tashlab, yumshatib chopib chiqiladi. Shundan so'ng anor daraxti o'g'itlanadi. O'g'itlashning turli yo'llari bor. Bu qanchalik ko'p o'g'it yig'ilganiga bogliq. Agar ko'p o'g'it yig'ilgan bo'lsa, har bir anor daraxti atrofini kovlab tomiriga tegmaydigan qilib, bir zambildan chirigan go'ng solish kelgusida yaxshi samara beradi. Bu usulda go'ngdagi mavjud azot, fosfor, kalsiy va boshqa o'g'itlar daraxtga me'yorida yetib boradi.

O'g'itlashning yana bir usuli, suv kiradigan tomoniga xandak qazib, qishi bilan o'g'it jamg'arish kerak. Suvni shu xandak orqali berilsa yaxshi samara beradi. O'gitni tez-tez aralashtirish kerak. Bu usul suv bilan o'g'itlash ya'ni sharbat berish deyiladi. Keyingi suvni may oyining o'ninчисidan so'ng berish nihoyatda foydalidir. Qiyg'os gulga kirgan daraxt suv bilan birinchi gullarini ushlab qoladi. Bu bilan anor serhosil bo'lib, dastlabki, tugilgan mevalari yirik va shirin bo'ladi. Har suv bergandan so'ng yer qurigach, ketmon bilan ag'darib, ayrisi to'g'rilanib qo'yiladi. Yangi o'sib chiqqan novdalar yulib tashlanadi. Anordan mo'l hosil olish uchun saraton suvidan kamida ikki marta qondirib sug'orish kerak. Shundan so'ng yana begona o't-o'lanlarni yulib, daraxt tanasidagi yosh novdalarni olib tashlashga e'tibor qaratish lozim. Avgustning oxiri sentyabr oyining boshlarida yerning sharoitiga qarab anorga yana suv beriladi. Bu paytda anor hosili ko'rinadi.

Sentyabr oyining o'ninчисidan so'ng anorga suv berish to'xtatiladi. Chunki, keyingi suvlarni foydasi bo'lmay, aksincha, pishgan anorlarni yorib yuboradi. Ayrim bog'bonlar anor mevasining pishganini terib olib, yana suv berishadi, bu keyingi hosilni pishishi va anor bog'ini yumshoq turishga yordam beradiki, anor daraxtini ko'mish paytida ildizi bilan egiltirishga hamda anorni sindirmay ko'mishga yordam beradi. Shunday qilib, bahor va yoz mavsumi anor daraxtini 4 marta butash va tagini chopish, yer sharoitiga qarab, 6-8 marta sug'orish maqsadga muvofiq. Zarur holda xasharotlarga qarshi kurash choralari olib boriladi.

1.6. Anorni hujayradan ko'paytirish-Mikropropagasiya

Anorni hujayrasidan *in vitro* sharoitida ko'paytirish ko'p sonli ko'chat olishda eng samarali usul bo'lib, qolaversa zararkunanda hasharotlar, kasalliklarga chidamli va alohida sifatga ega navlarni yaratish imkoniyatini beradi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, hujayradan ko'paytirish ikkilamchi kurtak rivojini jadallashtirish imkonini beradi.

An'anaviy seleksiya uslublaridan foydalanib, mevali daraxt navlarini takomillashtirish masalasi juda uzoq muddat talab qiluvchi murakkab jarayon

hisoblanadi. Shu sababli, *in vitro* sharoitida patogensiz ekish materialini ko'p miqdorda va qisqa muddatda hosil qilish biotexnologiyasi istiqbollari yuqori baholanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida *in vitro* sharoitida kultura muhitida mahalliy anor navlarining somatik to'qimalari regeneratsiya jarayoni intensivligiga o'simlik genotipi (navlar), ozuqa muhitining mineral tarkibi, fitogormonlar, uglerod kontsentratsiyasi, shuningdek, eksplanta sifatida foydalanilgan o'simlik organlari va ularning ozuqa muhitida topologiyasining ta'siri tahlil qilindi.

Ozuqa muhiti tarkibida fitogormonlar turli xil konsentrsiya nisbatlarida foydalanishning *in vitro* sharoitida o'stirishda turli xil tipdagi eksplantalarning regeneratsiyasi intensivligiga ta'siri bir qator tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan *in vitro* sharoitida anorni (*Punica granatum* L.) urug'i bo'lakchalaridan ko'paytirish samaradorligi o'rganilgan.

Shuningdek, anorning barglaridan eksplanta sifatida foydalanilib, regenerantlar hosil qilingan.

Tadqiqotlarda mevali daraxtlarni biotexnologik usulda ko'paytirishda eksplantaning *in vitro* sharoitida ozuqa muhitida o'sish va rivojlanishi, shuningdek, organogenez jarayoni intensivligi o'simlik navining morofogenetik potentsialiga, foydalanilgan eksplantaning tipiga, ozuqa muhiti tarkibi jumladan, foydalanilgan fitogormonlarning tipi va kontsentratsiya nisbatlariga bog'liqligi qayd qilingan.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan mevali o'simliklarni *in vitro* sharoitida o'stirishda urug'palladan eksplanta sifatida foydalanilganda regeneratsiya chastotasi yuqori qiymatga ega bo'lishi qayd qilingan.

Mavjud manbalarda qayd yetilgan ma'lumotlarni tahlil qilish davomida anorni biotexnologik usullar asosida rivojlanishini tadqiq qilish davomida genetik xususiyatlarini e'tiborga oldik.

Anorni (*Punica granatum* L) *in vitro* sharoitida mikroklonlash

Bugungi kunda dunyo miqyosida bog'dorchilik sohasida daraxsimon mevali o'simliklarni mikroklonlash yordamida ko'paytirish uslubidan keng miqyosda

foydalaniladi. Biroq, ayrim tadqiqotchilar tomonidan mevali daraxtlarni mikroklonlash asosida ko'paytirish uslubi samaradorligiga shubha bilan munosabat bildiriladi. Bu holat bevosita mevali daraxtlarni mikroklonlash asosida ko'paytirish uslubining ayrim kamchiliklari bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa *in vitro* sharoitida ildiz kulturasini o'stirish jarayonini optimallashtirish masalasiga to'liq oydinlik kiritilmagan, o'z navbatida ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar nazariy-amaliy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Anorni (*Punica granatum* L.) *in vitro* sharoitida mikroklonlash asosida ko'paytirish texnologiyasi yo'nalishida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Tadqiqotlarda anor novdasining uchki kurtagi, barg qo'ltig'ida joylashgan kurtak, shuningdek, barg bo'lakchasi va gutojibargidan foydalanish mumkinligi qayd qilingan.

Boshlang'ich o'simlik eksplantasini sterillash.

Boshlang'ich material vodoprovod suvi oqimida 15-20 minut davomida yaxshilab yuviladi, navbatdagi bosqichda tarkibiga Tween-20 reagenti eritmasidan (0,1% li) bir necha tomchi qo'shilgan distillangan suvda 10 minut davomida yuvildi. Navbatdagi bosqichda eksplantalar Dithane M-45 fungisidi (1 mg/l) va setrimid (500 mg/ml) eritmasida 20-25 minut davomida qoldirilib, keyin 4-5 minut distillangan suv bilan yuvildi. Navbatdagi bosqichda eksplantalar streptosiklin (500 mg/l) eritmasida 20 minut inkubatsiyalanib, keyin distillangan suvda 4-5 marta yuviladi. Sterilizatsiyaning yakuniy bosqichida eksplantalar HgCl₂ (100 mg/l) eritmasi bilan 1-3 minut davomida ishlov berildi, keyin distillangan suv bilan 4-5 marta yuvildi.

Shuningdek, o'simlik boshlang'ich eksplantasini sterillashda HgCl₂ 0,5% li eritmasidan ham foydalaniladi.

Tajribalarda anor novdasining Hg₂(NO₃)₂ eritmasi (0,3% li) bilan sterillanishida kulturada o'stirish davomida ozuqa muhitida 76-92% gacha zambrug' va bakteriyalar koloniyalari rivojlanishi aniqlandi. Hg₂(NO₃)₂ eritmasi (0,3% li) bilan sterillanishida novdaning meristema to'qimasidan foydalanilganda o'simlik materialining 9-16% qismida ozuqa muhitining infeksiyon zararlantirish holati qayd qilindi.


Biroq, ta'kidlab o'tish keraki, $Hg_2(NO_3)_2$ eritmasi biologik to'qimalar uchun yetarli darajada zaharli ta'sirga ega agent bo'lib, tajribalarda eksplantalarning 1/3 dan 1/2 qismigacha nobud bo'lishi kuzatildi.

Sterillangan eksplantalar keyingi bosqichda *in vitro* sharoitida tarkibida o'simlik navi va turiga qarab, har xil nisbatda fitogormonlar qo'shilgan Murasige-Skug (MS) ozuqa muhitiga ekiladi.

Mahalliy sharoitda olib borilgan tadqiqotlarda anorning "Qora qayim", "Qizil anor", "Oq dona/Tuyatish" va "Achchiq dona" navlarini o'sishi va rivojlanish bosqichlarida sharoit taqazo etgan eng muhim fiziologik va bikomiyoviy xususiyatlari vegetativ tanalari *in vitro* sharoitda o'rganildi. Buning uchun vegetativ tanlarini *in vitro* sharoitida o'rganish uchun tegishli bosqichli usullarda foydalanildi.


Kallus to'qima induksiyasi. *In vitro* sharoitida kallus to'qima hosil qilish uchun boshlang'ich o'simlik eksplantasi tipiga bog'liq holatda fitogormonlardan foydalaniladi. Aynan, ushbu bosqichda ozuqa muhiti tarkibida fitogormonlar tiplari va kombinatsiyalarini to'g'ri tanlash jarayon optimalligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tadqiqotlarda anor (*Punica granatum* L.) o'simligining yuqorida keltirilgan turli xil boshlang'ich eksplantalarida kallus to'qima induksiyasi uchun MS ozuqa muhiti tarkibiga har xil miqdorda fitogormonlar qo'shib, o'simlik eksplantalari 25 ml MS ozuqa muhiti quyilgan shisha idishlarga (275 ml) joylashtirildi va kultura standart sharoitda (+20...+25°C harorat, sutka davomida 16 soatlik yoritilish va 8 soat qorong'u sharoitda 4 hafta davomida) inkubatsiyalandi.

Kallus to'qima proliferatsiyasi. Tadqiqotlarda MS ozuqa muhitida kallus to'qima rivojlanishi va proliferatsiyasi intensivligi nisbatan yuqori darajada amalga oshishi aniqlandi (1.6.1-rasm).



1.6.1-rasm. Anor (*Punica granatum* L.) in vitro sharoitida mikroklonlash uslubida ko‘paytirish jarayonida kallus to‘qima proliferatsiyasi. A). Kallusni hosil bo‘lishi; B). Kallusdan ildizchalarni hosil bo‘lishi; V). Kallusdan yangi o‘simlik rivojlanishi (Guliston davlat universiteti, Eksperimental biologiya laboratoriyasi).

Shunday qilib, anor (*Punica granatum* L.) in vitro sharoitida mikroklonlash uslubida ko‘paytirish jarayoni bosqichlarining (kallus to‘qima hosil bo‘lishi va proliferatsiyasi; o‘simtalar hosil bo‘lishi, ildiz hosil bo‘lishi) intensivligi eksplanta tipi, eksplantani sterillash uslubi, ozuqa muhiti tarkibida foydalaniluvchi fitogormonlar kombinatsiyalari kabi omillarga bog‘liq hisoblanadi. Jumladan, tadqiqotlarda barg qo‘ltig‘i kurtaklari va barg bo‘lakchalaridan boshlang‘ich eksplanta sifatida foydalanilgan variantda MS ozuqa muhiti tarkibida fitogormonlar kombinatsiyasining kallus to‘qima hosil bo‘lishi uchun optimal ko‘rsatkichlari aniqlandi. Shuningdek, novda uchida joylashgan kurtaklar va barg bo‘lakchalaridan foydalanilganda MS ozuqa muhiti tarkibida BAP (3-4 mg/l)+NAA (0,4 mg/l) kombinatsiyada kallus to‘qima hosil bo‘lish intensivligi yuqori bo‘lishi aniqlandi va ushbu usul asosida patogensiz ko‘chatlar olindi (1.6.2-rasm).



1.6.2-rasm. Anor (*Punica granatum* L.) *in vitro* sharoitida mikroklonlash uslubida ko‘paytirish jarayoni bosqichlari. A) MS ozuqa muhitida ildiz hosil bo‘lishi. B) MS ozuqa muhitida novdaning o‘sishi. V) Novdaning umumiy ko‘rinishi (Guliston davlat universiteti, Ekspermental biologiya laboratoriyasi, 2019 yil).

Tadqiqotlarda *in vitro* sharoitida anor (*Punica granatum* L.) kurtagi MS ozuqa muhitida benzoiladenin (9 mM) + naftalinasetik kislota (0,54 mM) kombinatsiyasidan foydalanilganda nisbatan intensiv rivojlanishi qayd qilingan.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan *in vitro* sharoitida anorni (*Punica granatum* L.) mikroklonlash jarayonida MS va WPM ozuqa muhitini solishtirish asosida tahlil qilingan. Bunda tarkibida kinetin (2,3-18,4 mkM)+1-naftalin asetik kislota (0,54 mkM) kombinatsiyasi mavjud sharoitda WPM ozuqa muhiti sharoitida MS ozuqa muhitiga nisbatan regeneratsiya intensivligi yuqori bo‘lishi qayd qilingan⁹.

Anor (*Punica granatum* L.) novdaning o‘rta, uchki kurtaklari va meristema to‘qimasi MS ozuqa muhiti tarkibida BAP (3 mg/l), NAA (0,1-0,5 mg/l), IBA (0,1-0,5 mg/l) va shuningdek, GA₃ (0,5 mg/l) qo‘shilgan sharoitda optimal rivojlanishi qayd qilingan.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan kulturani o‘stirish +25±2°C harorat va atmosfera havosining nisbiy namligi 50% ni tashkil qilgan sharoitda sutka davomida 12 soat yoritilish darajasi 1200 lk sharoitda amalga oshirilishi tavsiya qilingan.

⁹ Kaji B.V., Tohidfar A.E.M. *In vitro* propagation of pomegranate (*Punica granatum* L.) Cv. “Males Yazdi” // Albanian Journal of Agricultural Sciences // [Elektron resurs]. Kirish rejimi: <https://sites.google.com/a/ubt.edu.al/rssb/> Kirish sanasi: 21.09.2018 y

Shuningdek, *in vitro* sharoitida o'simliklarni somatik to'qimalar asosida ko'paytirishda biostimulyatorlar samarali ta'sir ko'rsatishi bilan bir qator tadqiqotchilar tomonidan qayd qilingan.

Shuningdek, tajribalarda "Qora qayim", "Qizil anor", "Oq dona/Tuyatish" va "Achchiq dona" mahalliy anor navlari barg eksplantasini *in vitro* sharoitida kultura shaklida o'stirishda morfogenez jarayoni intensivligiga ozuqa muhiti tarkibining ta'siri tahlil qilindi.

Jumladan, tajribalarda uglevodlarning (saharoza, glyukoza, maltoza, fruktoza va laktoza) regenerasiya jarayoniga ta'siri o'rganilganda, barg eksplantasidan shakllangan kallus hosil bo'lishi va o'sish intensivligi glyukoza va saharozadan foydalanilgan tajriba variantida (glyukoza 30 mg/l; saharoza 40 mg/l) nisbatan optimal darajada amalga oshishi aniqlandi.

Shunday qilib, tajribalarda anor navlarini *in vitro* sharoitida kultura shaklida o'stirishda eksplanta sifatida bargdan boshlang'ich material sifatida foydalanish nisbatan maqsadga muvofiq hisoblanishi aniqlandi.

Shuningdek, anor barglari eksplantasining *in vitro* sharoitida kulturada kallus hosil qilishi, rizogenez/organogenez jarayonlari intensivligi ozuqa muhitining tarkibi jumladan, biologik stimulyatorlarning tipi va kombinatsiyalariga sezilarli darajada bog'liqligi aniqlandi.

Anorni *in vitro* sharoitda mikroklonlash asosida ko'paytirish sharoitlarini optimallashtirish

Anorni (*Punica granatum* L.) mikroklonlash texnologiyasi samaradorligiga turli xil omillarning ta'siri. *In vitro* sharoitida mevali daraxt turlarini ko'paytirish jarayoni intensivligi ko'p sondagi omillarga bog'liq hisoblanadi.

Ko'pgina o'simlik turlarini ko'paytirishda oziqa muhiti tarkibida adenin sulfat universal ingredientlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ekzogen uglerod birikmalari energiya manbai va inkubatsiya muhitida osmotik potentsial muvozanatini ta'minlanishida ishtirok yetadi.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan *in vitro* sharoitida anor (*Punica granatum* L.) eksplantasida kulturada o'simtalarning maksimal darajada hosil bo'lishi,

o'simtalarning maksimal uzunligi ozuqa muhiti tarkibiga LBP (1 mg/l)+kinetin (1 mg/l)+adenin sulfat (40 mg/l) qo'shilgan kombinatsiyada kuzatilishi aniqlangan. Shuningdek, ozuqa muhiti tarkibiga saharozaning optimal konsentratsiyasi 3% ni, yoritilish optimal darajasi 3000 lk ni (pH=5,8) tashkil qilishi qayd qilingan.

Bunda odatda, uglerod manbai sifatida saharozadan foydalaniladi, bu holat floema to'qimasida saharoza asosiy ozuqa elementi hisoblanishi bilan izohlash mumkin.

Yorug'lik nuri kulturada o'simlik to'qimasida fotosintez jarayoni amalga oshishi talab qilinadi va ayrim tadqiqotchilar tomonidan *in vitro* sharoitida mikroklonlashda yoritish intensivligining jarayon samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan.

Ozuqa muhitining pH qiymati diapazoni ham mikroklonlashda yoritish intensivligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Anor (*Punica granatum* L.) navlarini mikroklonlash, shuningdek, transgen o'simlik olish uslubi yordamida ko'paytirish texnologiyasida jarayonni amalga oshirish bosqichlari ketma-ketligi strukturasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mahalliy sharoitda olib borilgan tadqiqotlarda esa anorni *in vitro* sharoitida ko'paytirish uslubini optimallashtirish bo'yicha ko'p sonli qaytariqlarda tadqiqotlar olib borildi (1.6.3-rasm).

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan ildiz va novda kurtaklari asosida anor (*Punica granatum* L.) o'simligini mikroklonlash uslubida bosqichlar ketma-ketligi batafsil tavsiflangan.

Eksperimental biologiya laboratoriyasida olib borilgan tajribalarda issiqxona sharoitida o'stirilgan 2 yillik o'simlikning ildiz uchki meristema sohasi va novda kurtaklari (0,5-1 sm) kesib olinib, 30 minut davomida toza oqar suvda yuvilib, keyin 10 minut davomida 0,1% li kalsiy gipoxlorid eritmasi yordamida dezinfeksiyalanishi (2-3 tomchi tomizilib, distillangan suv bilan 3 marta yuviladi), sterillangan holatdagi o'simlik eksplantalari ozuqa muhitiga vertikal holatda joylashtirilishi amalga oshirildi.



1.6.3-rasm. Anorni *in vitro* sharoitda mikroklonlash asosida ko‘paytirish sharoitlarini optimallashtirish jarayoni (Guliston davlat universiteti, Eksperimental biologiya laboratoriyasi).

Tadqiqotlarda “Males Yazdi” anor navining boshlang‘ich material sifatida ildiz va kurtaklari eksplantalari asosida mikroklonlashda ozuqa muhiti tarkibida fitogormonlar (kinetin, 1-naftalen asetik kislota) modifikatsion kombinatsiyalarining kulturada to‘qimaning o‘shir-rivojlanishi, differentsiasiga ta’siri tahlil qilingan. Bunda ozuqa muhiti tarkibiga kinetin (9,2 mkM) va 1-naftalen asetik kislota (5,4 mkM) qo‘shilgan tajriba variantida kulturada kallus to‘qima hosil bo‘lishi va ildiz rivojlanishi nisbatan yuqori intensivlikda amalga oshishi aniqlangan. Hosil qilingan ekish materiali tashqi muhitda tuproq sharoitiga muvafaqiyatli tarzda iqlimlashtirilgan.

Umumiy holatda, *in vitro* sharoitida mevali daraxtlarni ko‘paytirish jarayonida asosiy muammolar biri kultura muhitining ifloslanishi, gipergidratatsiya, o‘simlik eksplantalarining polifenol birikmalar ta’sirida chirib qolishi (nekroz) bilan bog‘liq hisoblanadi. Bunda nekrozning oldini olish uchun nisbatan yosh o‘simlik eksplantalarini olish maqsadga muvofiqligi qayd qilinadi ya’ni yuvenil davrdagi o‘simlik to‘qimalari hujayralarida polifenol birikmalar yuqori konsentratsiyada sintezlanmasligi ta’kidlanadi.

In vitro sharoitida mevali daraxtlarni mikroklonlash uslubi yordamida ko‘paytirish jarayonida ozuqa muhiti tarkibida fitogormonlar kombinatsiyalari va o‘zaro nisbatlarini tanlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi va anorni (*Punica granatum* L.) ko‘paytirishda bir qator fitogormonlar variatsiyalari sinovdan o‘tkazildi. Jumladan, bunda ozuqa muhiti tarkibida kinetinlar novda uchida

joylashgan va barg qo‘ltig‘idagi kurtaklardan boshlang‘ich material sifatida foydalanilganda meristema to‘qimasidan kallus hosil bo‘lishida sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Quyidagi rasmda *in vitro* sharoitida anor o‘simligining o‘sishi va rivojlanishi keltirilgan (1.6.4-rasm).




1.6.4-rasm. Anor o‘simligining *in vitro* sharoitida kallus to‘qimasidan rizogenezning hosil bo‘lishi.

Anor (*Punica granatum* L.) o‘simligini *in vitro* sharoitida mikroklonlash uslubi yordamida ko‘paytirishda kallus to‘qima kulturasini o‘stirishda foydalaniluvchi ozuqa muhitining tarkibi sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi qayd qilindi (1.6.5 rasm).

Boshqa tadqiqotlarda “Kandahori Qobuli” anor navi yuvenil rivojlanish davrida urug‘palla, gipokotil, barg va bo‘g‘im oralig‘i kurtaklari asosida *in vitro* sharoitida o‘stirilganda tarkibi naftalinasetat kislota (13 mkM), 6-benziladenin efir (13,5 mkM), indol-3 butirik kislota (9 mkM), 1-naftalin asetik kislota (8 mkM) va kinetindan (9 mkM) tashkil topgan Murasige-Skug ozuqa muhiti optimal hisoblanishi qayd qilingan.

Murasige-Skug ozuqa muhiti tarkibiga fiziologik regulyator moddalar turli xil kombinatsiyalarda qo‘shilgan holatda anor (*Punica granatum* L.) eksplantasi kulturasida kallus to‘qima hosil bo‘lish intensivligi o‘zaro farqlanishi qayd qilindi. Jumladan, naftalinasetat kislota (13 mkM), 6-benziladenin efir (13,5 mkM) mavjud sharoitda kallus to‘qima nisbatan intensivlikda hosil bo‘lishi aniqlandi.



1.6.5-rasm. Fitogormonlarsiz Murasige-Skuga ozuqa muhitining tarkibi kombinatsiyalarini *in vitro* sharoitida kultura shaklida o‘stirishda anor (*Punica granatum* L.) meristema to‘qimasi eksplantasida rizogenez va organogenez jarayonlari intensivligi.

Ozuqa muhitining tarkibi-NH₄NO₃ (1650 mg/l); KNO₃ (1900 mg/l); KH₂PO₄ (170 mg/l); MgSO₄×7H₂O (370 mg/l); Na₂MoO₄×2H₂O (0,25 mg/l); CuSO₄×5H₂O (0,25 mg/l); H₃BO₃ (6,2 mg/l); MnSO₄×4H₂O (22,3 mg/l); ZnSO₄×7H₂O (8,6 mg/l); KJ (0,83 mg/l); CoCl₂×6 H₂O (0,025 mg/l); Ca(NO₃)₂ (440 mg/l).

Shuningdek, boshlang‘ich material sifatida urug‘palladan foydalanilganda kallus to‘qimaning maksimal darajada (85,5%) rivojlanishi qayd qilindi. Ushbu ko‘rsatkich qiymati gipokotildan foydalanilgan tajriba variantida 79,67% ni tashkil qilishi aniqlandi. Shunga o‘xshash holda boshqa tadqiqotlarda urug‘palla to‘qima hujayralarining ekzogen fiziologik regulyator moddalar ta‘siriga nisbatan javob reaksiyasi yuqori darajada bo‘lishi qayd qilinadi.

Kallus to‘qima hujayralarining differentsiatsiyasi organogenez jarayonini ifodalab beradi va bunda *in vitro* sharoitida kurtaklar hamda meristema to‘qimasidan boshlang‘ich material sifatida foydalanilganda organogenez intensivligi yuqori bo‘lishi qayd qilindi.

Tajribalarda *in vitro* sharoitida kultura shaklida o‘stirishda anor (*Punica granatum* L.) meristema to‘qimasi eksplantasida rizogenez va organogenez jarayonlari intensivligi Murasige-Skuga ozuqa muhitining tarkibi turli xil kombinatsiyalarida sinovdan o‘tkazildi.

1.7.Navlar kolleksiyasi va genofond.

Sovuqqa chidamli anor navlari

Butun dunyo bo‘ylab turli milliy, mintaqaviy va xalqaro navlar kolleksiyasida 2000 dan ortiq mahalliy navlar mavjud. Anorning yovvoyi va mahalliy lashtirilgan kolleksiyalari Sharqiy Osiyo, Yevropa, Shimoliy Afrika va Shimoliy Amerikada xususan, Albaniya, Kipr, Italiya, Ispaniya, Fransiya, Germaniya, Vengriya, Isroil, Portugaliya, Rossiya, Tunis, Turkiya, Turkmaniston, Ukraina, AQSh, O‘zbekiston, Hindiston, Marokash, Gresiya, Misr, Eron, Xitoy, Tojikiston, Kiprda mavjudligi ma’lum.

Turli xil navlar kolleksiyalari orasida Garrigala-Turkmaniston, Sankt-Peterburg-Rossiya, Eronda juda katta navlar kolleksiyalari mavjud. Garrigala-Turkmaniston kolleksiyasidagi navlar, anorning kelib chiqish joyi sifatida qaraladigan Markaziy Osiyo geografik mintaqasida to‘plangan namunalari bo‘lganligi sababli Turkmanistonning Garrigala navi kolleksiyasiga alohida qiziqish mavjud. Garrigala navi kolleksiyasida Zakavkaziya va Ispaniya, AQSh, Eron, Tojikiston, Hindiston kabi xorijiy mamlakatlardan anorlarning namunalari mavjud.

Boshqa muhim 200-300 xil anor navlari Ozarbayjon, Ukraina, Tojikiston va O‘zbekiston davlatlari tomonidan kolleksiyalarga kiritildi. (masalan, Toshkentdagi Akademik M.Mirzaev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot institutining o‘zbek anorlari).

Tijorat navlari

Umuman olganda, butun dunyoda 500 dan ortiq anor navlari yetishtiriladi va ular orasida bir nechta mashhur tijorat navlari mavjud. Anor navlari hajmi, ta’mi, po‘stlog‘i va donlarining rangi, urug‘ning yumshoqligi, hosildorligi, bo‘linishi, kasalliklarga chidamliligi, saqlanishi, shakar va sharbat miqdori, pishish vaqti va boshqalar bilan farqlanadi. Anor navlari odatda ularning titrlangan kislota miqdoriga asosan uchta asosiy guruhga bo‘linadi: TA qiymatlari 0,32, 0,78 va 2,72% (A/A)ga mos ravishda “shirin”, “shirin-nordon” yoki “nordon” kabi bo‘ladi. Misol uchun,

Ispaniyada O'rta Yer dengizi iqlimiga moslashgan 40 ta navning 35 tasi shirin, uchta shirin-nordon, ikkita nav esa nordon hisoblanadi.

“Vondeful” (Amerika navi) butun dunyo bo'ylab yetishtiriladi va turli xil klonlarga ega bo'lib pishib yetish vaqti, kattaligi va kislota miqdorining (kamroq) farqli bo'lishiga qaramasdan, jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Tijorat maqsadida yetishtirilgan boshqa muhim navlar quyidagilardir: Isroilda-Shani-Yonay Emek, Hershkovich, Akko va Kamal navlari; Turkiyada-Hichaz; Marokashda-Safri, Kharazi, Laaroussi; Hindistonda-Ganesh, Arakta, Bhagva va Rubi; Ispaniyada-Mallar, Elche va Valensiya; Eronda-Malas-e-Savex, Rabob-e-Neyriz, Malas-e-Yazdiy, Sishe Kape-Ferdos va Naderi-e-Budrood; Hindistonda-Ganesh, Mirdulla (Arkta), Bhagva (Kesar), Rubi va boshqalar.

AQShdagi asosiy navlar:

“Vondeful”

“Vondeful” Portervilleda 1896 yili Floridadan olingan anor shoxlaridan kashf yetilgan. Bu o'simlik Kaliforniyadagi eng keng tarqalgan tijorat anor navi hisoblanadi. Meva qizil donlardan tashkil topgan bo'lib katta, shirin-nordon ta'mli va yarim qattiq urug'li va tashish uchun qulaydir. Mevaning tashqi ko'rinishi po'stlog'i o'rta qalinlikdagi yaltiroq qizil ranglidir. Anor donining sharbati to'q qizg'ish va xushbo'y hidli bo'ladi.

Eng yaxshi sifatli anor issiq iqlimli sharoitda yetishtiriladi, gullari qizil-sabzirang, barglari chiroyli, uzoq yashaydi, har qanday tuproq va ishqorli tuproqlarda yaxshi o'sa oladi; Meva pishishi uchun sentyabr va oktyabr oyining oxirlarida mevalar 7⁰ C dan past haroratda 150-200 soatni talab qiladi. Juda hosildor, o'z-o'zidan changlanadi.

Isroildagi “Vondeful”ning bir nechta navi haqiqiy “Vondeful” ko'chatlarining xuddi o'zidir. Amerikaning “Vondeful” navining Isroildagi “Vondeful” navlaridan ginetik ajralib turishi aniqlanmagan. Amerikaning “Vondeful” navi mevasi Isroilliklarnikiga qaraganda biroz qattiqroq bo'lib, anor donidan mexanik sharbat olish uskunasi mos tushmaydi va bu farqlar ularning o'sish sharoitiga bog'liqdir.

“Vondeful” yorilishga chidamli hisoblanadi, “Mollar” esa yorilishga moyil bo‘ladi.
(1.7.1-rasm)



1.7.1.-rasm Erta pishar «Vondeful» navi mevasi

Erta pishar “Vondeful” Kaliforniyada yaratilgan “Vondeful” ning mutasion navidir. U “Vondeful” dan ikki hafta oldin pishib, terisiga qizil rangni aslidan ancha oldinroq oladi. Sharbatning sifati haqiqiy “Vondeful”dan kamroq. Eng yaxshi sifatlil anor issiq iqlimli sharoitda bo‘ladi, gullari qizil-sabzirang, uzoq yashaydi, har qanday tuproq va ishqorli tuproqlarda yaxshi o‘sa oladi; Meva pishishi uchun sentyabr va oktyabr oyining oxirlarida mevalar 7C dan past haroratda (1.7.2-rasm)

150-200 soat talab qiladi (“Vondeful” navidan ikki hafta oldin). Juda hosildor, o‘zidan changlanadi.



**1.7.2.-rasm. Erta pishar
“Vondeful” navi mevasi**

Granada

Granada-Tulare qishlog‘ida keng tarqalgan patentlangan erta pishar navdir, lekin u Qo‘shma Shtatlarda juda kam miqdorda o‘stiriladi. Avgust oyi o‘rtalarida pishadigan to‘q qizg‘ish rangli meva “Vondeful” dan kichikroq uning erta pisharligi tufayli bozorda yuqori narxni belgilaydi.

U “Vondeful”ning mutatsiyasidir. “Vondeful” dan bir oy oldin pishadi. Gullari ham to‘q qizil daraxt “Vondeful” bilan bir xil, ammo bu nav “Vondeful” naviga qaraganda ancha sovuqqa chidamli. (1.7.3-rasm)



1.7.3-rasm. Granada navi mevasi

“Svit”

Juda shirin, deyarli urug‘siz meva (hatto pishmagan mevalari ham shirin), po‘stlog‘i qizil, sharbati tiniq, hosil yozning oxiri va kuzning boshida yig‘ib olinadi, katta, yorqin, gullari qizil va sabzirang, 150-200 soat, o‘zini o‘zi changlatadi, chiroyli (1.7.4-rasm)



1.7.4-rasm “Svit” navi mevasi

Ispaniyadagi asosiy navlar “Mollar de Elche”

Eng mashhur ispan navi buning mevasi yumshoq urug‘li va shirin xisoblanadigan- “Mollar de Elche” dir. Meva o‘lchami o‘rtacha va katta bo‘lib, yumshoq, deyarli sezilmaydigan shirin ta‘mli, urug‘i boshqa chet navlaridan ajratib turadi.

Mevaning po‘stlog‘i qizil-sarg‘ish va ichki qismi esa qizil ranglidir. Mollar navining o‘ziga xosligi uning shirinligi, uni qaymoq rangdan to‘q qizil ranggacha farq qilishi va urug‘ining kamligi bilan ajralib turadi. “Mollar de Elche” oktyabr-noyabr oylarida pishadi. Ushbu navni yig‘ib olish, yumaloq shakl va o‘ziga xos tojga ega bo‘lganda oktyabr oyida boshlanadi. Ispaniyada yetishtirish bo‘yicha ikkinchi o‘rinni egallagan “Valencianas” navidan ko‘ra bu nav yaxshiroq sifat va hajmga ega. Ispaniyada Mollar de Elche nazoratga olingan bo‘lib, “Vondeful” dan ko‘ra shirin ta‘mga ega. Ispaniyada so‘nggi yillarda yangi “Vondeful”ning jozibador rangi va “Mollar de Elche”ning betakror mazasiga ega navlar yaratildi (1.7.5-rasm)



Valensiyana

Ushbu nav sentyabr oyida yig'ib olinadi va mevasi bozorda eng erta paydo bo'ladigan nav hisoblanadi. Anor po'stlog'i to'q pushti rang va ichki qismi pushti rangda bo'ladi. Kislotasi miqdori 0,14 dan 0,26 gacha farq qiladi.

1.7.5-rasm Mollar de Elche navi mevasi

250-350 g oralig'ida boshqa navlardan biroz kichikroq hisoblanadi. U shirin ta'mga ega. (1.7.6-rasm)



1.7.6.-rasm.Valensiyana navi mevasi

Akko

Bu tur Isroildan keltirilgan bo'lib, Ispaniya uchun yangi nav hisoblanadi. Akko anori Ertapisharligi (yozning oxiridanoq yeyish mumkin), shirin ta'mi va uning mevasi va terisi to'q qizil rangli bo'lgani sababli muhim ahamiyatga ega.(1.7.7-rasm)

Bu anorning boshqa muhim xususiyatlari uning hajmi, 500g-600g gacha, uning shirinligi Brix: 21 va urug'i yumshoq hisoblanadi. Kiprda Akkoni avgust o'rtalaridan sentyabr oyining oxirigacha yig'ib olinadi.

Isroildagi asosiy navlar

Isroilda 50 dan ziyod anorlarning navlari aniqlangan. Neve-Yar Tadqiqot Markazi bog'dagi solishtiruvlarga binoan ba'zi navlar bir-biridan juda farq qilsada bir xil nomga ega (masalan,



1.7.7-rasm Akko navi mevasi

“Hershkovich” navlari), boshqalari bir-biriga o‘xshash bo‘lsada boshqa-boshqa nomga ega. (masalan, “Vondeful” navlari). Bugungi kunda Isroilda yetishtiriladigan asosiy turdagi navlar 60% qismi “P.G. 101-2” (“Vondeful”) hisoblanadi. Ushbu navni taxminan 100 yil oldin AQShdan olib kelingan deb taxmin qilinadi. Ushbu katta hajmli anor oktyabrning boshida pishadi. U to‘liq pishganda qizil don va teriga ega shirin-nordon anor bo‘ladi.(1.7.8-rasm)



1.7.8-rasm.Isroil mevalari «Vondeful» navi

Isroilda “Vondeful”ning juda ko‘p turlari mavjud. Neve Yar kolleksiyasida uning yetti turi tavsiflangan. Navlarning pishib yetilish vaqtlari, ularning tashqi rangi, meva rivojlanish davrida terining rangi ko‘rinishi va urug‘ning qattiqligi darajasiga ko‘ra farqlanadi.

Eksport bozorining o‘sishi va ertapishar qizil navlarga bo‘lgan talab kuchaygani sababli, “Akko” va “Shani-Yonay” kabi yana ikkita qo‘shimcha ertapishar qizil tijorat navlari yaratildi. Har ikkisi ham shirin-nordon ta‘mli, qizil rangli po‘stloqli va yumshoq urug‘li navlardir. Ularning jozibali ko‘rinishi va yaxshi ta‘mi ularni Isroilning yetakchi eksport turlariga aylantiradi. Akko Shani-Yonaydan o‘sishi, meva va daraxt shakli bilan farq qiladi. Ikkala nav ham o‘rtacha 300g-400 g gacha bo‘lgan kichik-o‘rta mevali hosil qiladi. (1.7.9-rasm)



1.7.9-rasm.Shani-Yonay navi mevasi

Ikkita “P.G.116-17” va “P.G.118-19” (“Hershkovich”) navi kechki “Vondeful” va Ertapishar “Akko” hamda “Shani-Yonay”ning orasida pishib yetiladi. “P.G.116-17” turi bugungi kunda eng yaxshi eksport qilinadigan tur hisoblanadi.

Mevasi katta, donlari qizil rangli va jozibador qizil po‘stloqqa ega. “Emek” ham erta pishib shuningdek, iste’molchilar tomonidan talab qilinadigan yuqori sifatli, shirin yoki shirin-nordon ta’mlil va yumshoq urug‘li anor navi hisoblanadi. Mevalar pishib yetilganda o‘rta va katta hajmli, terisi qizil rangli, qizil suvli donli va shirin ta’mgaga ega bo‘ladi. “Emek” navi Isroilda avgust oyining o‘rtalarida “Vondeful” navidan olti hafta oldin pishadi.(1.7.10-rasm)



1.7.10-rasm “Emek” navi mevasi

Kamel

“Kamel” yangi va alohida anor navi bo‘lib, ayniqsa, o‘z-o‘zini changlatuvchi va o‘ziga xos o‘shiga ega o‘rtacha balandlikdagi jadal o‘sovchi daraxt kabi tavsiflanadi; yaxshi hosildorlikga ega; hajmi katta, donlari mayda va qizil, po‘stlog‘i meva rivojlanishi davomida juda erta to‘q qizil rangga kiradi;

U “Vondeful” (patentlanmagan) navi bilan o‘xshash, ammo pishib yetilgan meva «Vondeful»ning qizil terisidan farqli o‘laroq to‘q qizil rangda bo‘ladi. Bundan tashqari, to‘q qizil rang olish rivojlanish davomida bo‘lsa, «Vondeful»da esa meva pishib yetilganda shunday rang oladi. “Kamel” bu eng choriyoli rangli nav hisoblanadi. Ushbu navdagi qizil rang “Vondeful” dan ancha oldin rivojlanadi. Bu juda hosildor va yuqori sifatli meva beruvchi navdir.(1.7.11-rasm)



1.7.11-rasm. Kamel navi mevasi



1.7.12-rasm. Avgust .>. Sentyabr.> Oktyabr.> Noyabr

Isroildagi navlarning muddati: Avgust oyida Acco, soʻngra Emek, Shany, Kamel, Vondeful

Turkiyadagi asosiy navlar

Taniqli turk navlari orasida “Hichaznar”, “Lefan”, “Janarnar” Silifke Asisi, “Cekirdksiz”, “Yernar”, “Fellahemez”, “Hatay”, “Izmir1”, “Izmir 1264”, “Izmir 1265”, “Katrbas”, “Mayhos II”, “ayros IV” va “Yufka Kabuk” juda mashxurdir. “Hichaznar”, “Izmir” va “Silifke”larning raqamlari boʻyicha farqlangan bir nechta turlari mavjud. (1.7.12-rasm)

Turkiyadagi asosiy qizil nav bu yuqori hosildorlikka ega “Hichaznar” hisoblanadi. Hichaznar navi eksport qilinadigan navlar orasida birinchi oʻrinda turadi. Meva shirin-nordon taʼmga va qattiq urugʻlarga ega hamda “Vondeful” naviga juda oʻxshashdir. “Lefan” Hataydan olingan boʻlib sariq poʻstloq, katta donlarga, shirin-nordon taʼmga va juda qattiq urugʻlarga egadir. “Janarnar” qizil poʻstloq, qizil don, shirin-nordon taʼmli va qattiq urugʻli navdir. “Izmir 26” shirin taʼmga ega. Koʻpchilik turknavlari shirin-nordon va qizil rangga ega. (1.7.13-rasm)



1.7.13-rasm.Hichaznar navi mevasi

Tunis navlari orasida “Gabsi” (asosiy nav, shirin), “Tounsi” (shirin, kech pishar); “Zehri” (shirin, avgust oyining oxiri yoki sentyabrning boshlanishida pishadi); “Chefli” (shirin, rangsiz poʻstloqqa ega va donlari katta); “Mezzi”, “Jebali”, “Garoussi” (shirin-nordon, yashil poʻstloqli); “Garoussi”; “Kalai” (shirin, rangsiz poʻstloqqa ega, donlari katta) va boshqalar kiradi.

Tunisdagi asosiy navlar

Tunisda ishlab chiqarilgan deyarli barcha anor mevalari mahalliy miqyosda isteʼmol qilinadi va mahalliy bogʻlarda oʻstirilgan navlarning sifati yaxshi emas. Yangi bogʻlarda bir nechta mahalliy turlar ekilgan.

Marokashdagi asosiy navlar

Marokashning turli viloyatlariga xos boʻlgan anor navlarining (“Sefri”, “Ounk Hman”, “Ruby”, “Rouge Marakes”, “Bouaadime”, “Jaune Marakech”, “Gjeigi”,

“Dwarf Ever Green” “Grenade Jaune”, “Gordo de Javita”, “Jjibali”, “Chioux” va “Onuk Hmam”) xususiyatlarini baholash maqsadida turli tadqiqotlar mavjud.

“Grenade jaune”, “Chioukh” va “Gordo de Jativa” turlarini yuqori fenolik tarkibi tufayli sharbatlar ishlab chiqarish uchun juda mos.

Hindistondagi asosiy navlar

Eng yaxshi tanilgan hind navlari (“Ganesh”, “Mridula”, “Bhagwa”) umumiy xususiyatlarga ega. Ular shirin ta’mgaga ega bo’lib, past kislotali kichik va o’rta o’lchamdagi mevasi yupqa po‘choqli bo’ladi.

“Ganesh”: Bu ehtimol eng mashhur Hind navidir. Bu doimiy yashil turuvchi nav juda yumshoq urug‘larga ega. Urug‘lari qizil va ta’mi past kislotali hamda shirindir. Bozorgir mevalarning eng yuqori miqdori yanvarda, lekin oktyabr, mart-aprel, may-iyun, iyun-avgust yoki iyul-sentyabr oylarida yig‘ish mumkin. “Ganesh” navining po‘stlog‘ining rangi mavsumga bog‘liq holda sabzirang yoki yashil bo‘lib, meva hajmi juda kichik bo‘ladi. Biroq, meva po‘stlog‘ining yupqalashishi meva hajmini sezilarli darajada oshirishi va 350 g dan yuqori hajmda bo‘lishi mumkin. “Ganesh” Hindistonda ko‘paytirish va boshqa turlar bilan chatishtirish uchun ko‘p ishlatiladi. (1.7.14-rasm)



1.7.14-rasm. Ganesh navi

“Mirdulla” (“Arkta”) va “Bhagwa” (“Kesar”):

Ikki hind navlari “Mirdulla” (“Arkta”) va “Bhagwa” (“Kesar”) asosan Yevropaga eksport uchun yetishtiriladi. Bu navlar jozibador qizg‘ish rangli po‘stloq va yumshoq urug‘ga ega. (1.7.14-rasm)

Ularning ta’mi past darajada kislotali, shirin, nisbatan kichik o‘lchamlidir (200-300 g). Po‘stlog‘i nisbatan yupqa bo‘lib, uning kamchiligi hisoblanadi shuning uchun ular jismoniy shikastlanishlarga chidamsiz. Bhagwa navi jismoniy zararga ko‘proq bardoshli hisoblanadi. “Mirdulla”, “Bhagva” va

“Ganesh” doimiy yashil navlardir. Odatda yanvar-fevral oylarida Yevropaga eksport qilinadi (1.7.15-rasm).



1.7.14-rasm.Mridula navi mevasi



1.7.15-rasm.Bhagva navi mevasi

Rubi: Pishib yetilgan mevalar shakli va o‘lchami jihatidan “Ganesh” turini eslatadi. Biroq, bu navning po‘stlog‘i yashil chiziqli qizg‘ish jigarrang va mevasi 270 gramm.

Muskat: Bu navning mevalari pushti rangli donlar va qizil rangli po‘stloqqa ega. Mevaning o‘rtacha og‘irligi 300-350 gramm.

Jyoti: Daraxtlar shakli pakana bo‘lib doimo yashil o‘simlikdir. Meva hajmi kichik. O‘rtacha meva vazni 200g. Po‘stlog‘i odatda qizil rangda, donlari esa pushti. Suyuqlik miqdori donalarning og‘irligiga qarab 75 % ga teng. Sharbati esa juda past 0,3% kislotaga ega.

Dholka: Och pushti donlarga ega sariq rangli po‘stloqli katta mevalar hisoblanadi.

Hindiston yarim oroli va uning juda xilma-xil iqlim zonalarga ega ulkan hududi har bir mintaqaga mos keladigan navlarni talab qiladi.

Erondagi asosiy navlar

Yazd anor kolleksiya da 760 ga yaqin genotip, namunalar va xilma-xil navlar keltirilgan. Ushbu namunalar ko‘plab viloyatlardan olib kelinganligi sababli, bu

namunalar orasida sinonimlar yoki tashqi ko‘rinishdagi o‘xshashliklar kuzatildi. “Malas-e-Saveh“, “Rabob-e-Neyriz“, “Malas-e-Yazdi“, “Sishe Kape-Ferdos” va “Naderi-e-Budrood” navlari o‘rta va kata-kattalikdagi qalin qizil po‘stloqli va qizil donlarga ega Eronning asosiy tijorat navlari hisoblanadi. Bundan tashqari, “Ardesani Mahvalat“, “Bajestani Gonabad“, “Ghojag Goni“, “Xazr Bardaskn“, “Malas Yazd“, “Galou Barik“, “Bajestan“, “Zag“, “Shavar Daneh Germes“, “Sefid“, “Togh Gardan” va “Esfaxani Daneh Germez” kabi navlari mavjud.

“Alak” avgust oyi oxirlarida sentyabr oyi boshida pishib yetiladigan va eksport uchun ishlatiladigan erta Eron navi hisoblanadi. “Maykosh” dekabr oyining oxirigacha yig‘ib olinishi mumkin bo‘lgan kechroq eksportga mo‘ljallangan nav hisoblanadi. Mala va Rabab Eronda yetishtiriladigan eng muhim tijorat navlaridir.

Xitoydagi asosiy navlar

Ko‘pgina xitoy navlari kelib chiqishi noma‘lum yoki noma‘lum turdagi ko‘chatlarning chatishtirilgani hisoblanadi. Ba‘zi xitoy navlari avgust oyining boshlarida juda erta pishib yetiladi ba‘zilari esa kechki navlar bo‘lib, noyabr oyida terib olinadi. Doimiy yashil turlari ham aniqlangan. Duanzihong: bu spur-tipli va ixcham butali navdir; avgust oyi oxirida pishib yetiladi: meva hajmi o‘rtacha bo‘lib 340 grammga teng, po‘stlog‘i qizil rangli bo‘ladi; Donlari och qizil. Ikkita tur (“Linxuan 8” va “Lintong 14”) Xitoyning Lintong hududidan olingan: “Linxuan 8” sentyabrda pishadi va yumshoq urug‘larga ega; “Lintong 14” oktyabrgacha pishib yetiladi. Ko‘p uchraydigan anor navlaridan biri Qingpiruanzi Sichuan provinsiyasidan bo‘lib, avgust oyi oxirlarida pishadigan katta mevali, yumshoq urug‘li va pushti donlarga ega bo‘lgan nav hisoblanadi. Xitoyda navlar asosan uning hajmi, sharbat miqdori, urug‘i yumshoqligi va pishish vaqtiga qarab tanlanadi.

Markaziy Osiyodagi asosiy navlar

Quyidagi ro‘yxat eng muhim va keng tarqalgan navlarni o‘z ichiga oladi.

1. Achiq-Donak. O‘zbek navi. Meva katta va sharsimon shaklda bo‘lib, pushti-oltin teriga ega. Urug‘lari katta va uzun, shirin va lazzatli. Uning hosildorligi yuqori bo‘lib oktabr oyining o‘rtasidan oxiriga qadar pishib yetiladi.

2. Bala-Miursel. Mahalliy Azerbaidjan navi. O‘simlikning balandligi 3 metrga yetadi. Mevasi katta (400-500g), po‘stlog‘i to‘q qizg‘ish va qalin. Unda shakar 16% gacha va kislotalarni 1.5% gacha o‘z ichiga olgan qizil, shirin-kislotali sharbatli va katta urug‘li nav hisoblanadi. Mevalar oktyabr oyi boshida pishib 3-4 oy saqlanadi. Hosildorlik har bir daraxt uchun 30-50 kg ni tashkil yetadi.

3. Gulosha-Azerbaidjan. Daraxtlar 3m gacha o‘sadi, mevalar og‘irligi 300-400 g gacha. Ularning terisi pushti qizil, nozik va yoqrin. Urug‘lari yirik, sharbati esa och pushti va shirin-kislotali bo‘lib, shakar 20%, kislotani 1,8% o‘z ichiga oladi. Mevalar oktyabr oyining o‘rtalariga qadar pishib, 2-3 oy davomida saqlanadi.

4. Pushti Guilosha. Boshqa bir mahalliy Ozarbayjon navi. Mevasi yumaloq, hajmi o‘rtacha (200-250 g) ba‘zan kattaroq bo‘ladi. Urug‘lari o‘rta kattalikda, sharbat miqdori ko‘p (taxminan 54%) va ajoyib ta‘mga ega. Shakar miqdori 15,6%, kislota miqdori 1,3% ni tashkil qiladi.

5. Kazake-Anar. Katta (300-400 g) sariq-yashil mevali, o‘rtacha qalinlikdagi terili va katta urug‘lardan iborat o‘zbek navidir. Sharbati to‘q qizil, shirin-nordon va mazasi yaxshi, shakar 20% va kislota 1.85% ni o‘z ichiga oladi. Sharbat miqdori taxminan 45% ni tashkil qiladigan bu yuqori hosil beruvchi nav oktyabr oyining birinchi yarmida pishadi. Juda keng tarqalgan. “Kazake”da sovuqqa va muzlashga chidamli bo‘lib, ularning aksariyati qimmatli madaniy va biologik xususiyatlarga ega. “12/57” ko‘chati ayniqsa sovuqqa chidamli hisoblanadi.

6. Kaim-Nar. O‘rtacha o‘lchamli meva (200-250 g), yashil rang va yorqin qizil rangli va dog‘li Ozarbayjon navi hisoblanadi. To‘q qizil sharbati mazali va shirin-nordon hisoblanadi. Mevalar oktyabr oyining ohirigacha pishib yetiladi.

7. Kay-Achik-Anar. Daraxtlar shakli juda katta bo‘lib o‘sadigan o‘zbek-tojik navi hisoblanadi. Meva katta (300-400g) va sharsimon, oktyabr oyining o‘rtalarida pishib yetiladi. Bu nav yaxshi transportasiya qilinadi va yaxshi saqlanadi. Har bir daraxt 50 kg gacha hosil beradi hamda har bir meva shakar 16%, kislota 1,4% ga ega.

8. Qizil-Anar. O‘rtacha yumaloq shaklli o‘zbek navi. O‘rtacha qalinlikdagi yaltiroq yashil terili mevadir. Urug‘lari o‘rtacha xajmda. Sharbat miqdori taxminan

54%, mazasi shirin-nordon, shakar 15% va kislota 2.2% ga ega. Mevalar oktyabr oyi o'rtalarida pishib yetiladi va 4-5 oy davomida saqlanadi.

9. Kirmizi-Kabux. Azerbaidjan navi balandligi 4 m, mevalar kattaligi 350-400 g, yorqin qizil rangli va sharsimondir. Terisi o'rtacha qalinlikda bo'lib, urug'lari katta, shakar 14,5%, kislota 2,1% ga ega bo'lgan 45% qizil shirin-nordon sharbatga ega.

10. Nazik-Kabux. Balandligi 4 m, kattaligi 400g to'q qizil meva beradigan Ozarbayjon navi. Mevasi katta urug'li hisoblanib, shakar 12,3% va kislotali 2,6% va 49% shirin-nordon sharbat beradi. Meva oktyabr oyining o'rtalariga qadar pishadi, 3-4 oy saqlanadi hamda hosildorlik yuqori bo'ladi.

11. Shax-Nar. Kichik daraxt shaklida o'suvchi Ozarbayjon navidir. O'rtacha kattalikdagi (300 g) qizil mevalar yumaloq yoki nok-shaklida bo'lib, o'rtacha qalinlikdagi teri bilan qoplangan. Urug'lari kichik, sharbati 50% atrofida, shirin-nordon, sharbati 13,4% shakar va 2,1% kislotalarga ega. Meva oktyabr oyining ikkinchi yarmida pishib, 6 oy saqlanadi. Hosildorlik yaxshi. Mintaqada ko'plab boshqa navlar mavjud. Masalan: "Surx-Anor", "Kavadoni", "Iridane", "Ak-Dona", "Podarok", "Shaynaxskii", "Agat", "Hisor alyuminiy", "Gissarskiy krupnoplodnyi", "Mesxeti", "Azerbaidjan", "Shirin-nar" va boshqalar.

Sovuqqa chidamli navlar

Turli xil navlarning sovuqqa chidamliligi:

Anorlarning ko'pi faqat -11°C gacha chidamli bo'ladi. Ko'pgina Amerika, O'rta Yer dengizi va Hind navlari -13°C dan -9°C gacha bo'lgan haroratda zararlanadi, -18°C dan -19°C gacha bo'lgan haroratda ildizigacha zararlanadi. Turkmanistondagi tadqiqotlarga ko'ra sovuqqa ko'proq chidamli bo'lgan Markaziy Osiyo navlari -15°C dan -13°C gacha bo'lgan haroratda yuqori qismlari va bir yillik novdalar zararlandi, -17°C dan -16°C gacha bo'lgan haroratda tana qismi sezilarli zarar ko'rgan va -18°C dan -21°C gacha bo'lgan haroratda daraxtning butun tanasi zarar ko'rgan. Texasdagi anor sinovlarining dastlabki natijalari "Kazaki" va "Sal" (Salavaskiy) AQShning 6 ta hududida (-20°C dan -18°C gacha) tirik qolishlari mumkinligini ko'rsatib turibdi, bu esa ularni eng sovuqqa chidamli anorlarga

aylantiradi. “Texas Red” va “Plantation Red” ham eng ko‘p sovuqqa chidamli nav bo‘lishi mumkin. Qattiq urug‘li navlar yumshoq urug‘li navlarga qaraganda sovuqqa chidamliroq bo‘ladi. Agar mevalar sharbat qilinadigan bo‘lsa, meva urug‘ining qattiqligini hech qanday ahamiyati yo‘q, ammo mevalar shundayligicha istemol qilinsa, bu juda katta ahamiyatga egadir.

Sovuqqa chidamli navlar: (Papershelldan tashqari barchasi qattiq urug‘ga ega).

A- Guruh-Eng sovuqqa chidamli navlar:

“Kazake”, “Shevlan” va “Kaj-achik-anor”

B- Guruh-O‘rtacha sovuqqa chidamli navlar:

“Salavaskiy”, “Surx-anor”, “Al-shirin-nar”, “Sakerdze”, “Bala Myursal”, “Nikiskiy ranni”, “Entek. Xabi Saveh” va “Kirmizi-kabux”

C- guruhi-Biroz sovuqqa chidamli navlar:

“Apshevonkiy krasniy”, “Kara bala Myursal”, “Papershell” (yumshoq urug‘li), “Skerdze”, “Kara Kalinskiy” va Eronning ko‘p navlari.

Yuqoridagi navlarning aksariyat qismi Markaziy Osiyodan bo‘lib va ular Kaliforniya shtatidagi Devis shahrida AQSh QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI/ARSDagi Germplasmalar depozitariyasida ko‘plab boshqa navar bilan birga saqlanadi.

Sovuqqa sezgir navlar: “Vondeful” va Amerika , Hindiston (Osiyo) va O‘rtaYer dengizi navlari va barcha yumshoq urug‘li navlar kiradi. Bundan tashqari, yangi o‘shish boshlanganidan keyin yuzaga keladigan kechki bahorgi sovuqlar natijasida barcha anor navlari zararlanishi mumkin; 1 yoshli novdaga qaraganda eski novdada kamroq zarar bo‘ladi. Kuzda barglar to‘kilishidan oldin to‘satdan bo‘ladigan erta muzlashlar va sovuqlar ham ba’zi zararlarga olib kelishi mumkin.

(1.1-Jadval)

Kazake

Kazake AQShning eng sovuq qishli hududlarida ekish uchun eng chidamli nav sanaladi. Bu nav asli O‘zbekistondan keltirilgan. Kazake yopiq gulkosaga ega. Bu

xususiyat yorilishdan saqlaydi. Bu nav AQShda 6 ta mintaqa (shamolli joylardan tashqari) -18°C dan -20°C gacha bo‘lgan haroratda o‘shishi mumkin.

1.1-Jadval

Sovuqqa bardoshlilik	Ajoyib
Zararkunanda va kasalliklarga chidamlilik	Ajoyib
Qurg‘oqchilikga bardoshlilik	Juda yaxshi
Issiqqa bardoshlilik	Ajoyib
Namgarchilikga bardoshlilik	Juda yaxshi
Quyoshga bardoshlilik	Ajoyib
Soyaga bardoshlilik	Kam
Tuzga bardoshlilik	Biroz
Tikanlar	Yo‘q
Tuproq turi	Yaxshi suvsizlantirilgan
O‘z o‘zini changlatuvchi	Xa

Mevaning xususiyatlari:

Katta sariq, pushti va yashil po‘stloqli meva. Po‘stloq o‘rtacha qalinlikda.

Katta to‘q qizil donli, shirin ta‘mli va o‘rtacha qattiq urug‘li meva hisoblanadi.

(1.7.16-rasm)

Hosili yuqori bo‘lgan meva yuqori sharbat miqdoriga ega 45%.

Meva yorilishiga chidamli. Meva regulyasiya qilinmagan harorat sharoitida uzoq saqlanishi mumkin.



1.7.16-rasm.Kazake navi mevasi



Kaj-achik-anor

Kaj-achik-anor (Cray-a-keek-anor) anori o‘zbek-tojik navidir. 1970-yillarda Gruziya Universiteti tomonidan “Ponder Farm”dagi yaratilgan muvaffaqiyatli “rus” navlaridan biri hisoblanadi. Eng sovuqqa chidamli navlardan biri, namli iqlimlarda mo‘l hosili bilan mashhur. (1.7.17-rasm)

1.7.17-rasm. Kaj-achik-anor

Meva yaxshi kislota muvozanatiga ega bo‘lgan 16% shakarga ega bo‘lib, bu uni eng yaxshi ta‘mli anorlardan biriga aylantiradi. Sentyabr oyining o‘rtalaridan oktyabr oyi o‘rtalariga qadar pishib yetiladi. O‘z-o‘zini changlatadi. AQShda 7 xududda (shamolli joylardan tashqari) -15°C dan -10°C gacha o‘sishi mumkin.

Salavaskiy-rus anor navlari

Salavaski AQShda sovuq qish hududlarida ekish uchun eng chidamli navlar sifatida Kazake bilan birga tilga olinadi. Daraxtlar AQShda 6-9 zonalarda -15°C darajagacha haroratda o‘sishi mumkin. Daraxt xususiyatlari: (1.2-Jadval)

1.2-Jadval

Sovuqqa bardoshlilik	Ajoyib
Zararkunanda va kasalliklarga chidamlilik	Ajoyib
Qurg‘oqchilikga bardoshlilik	Juda yaxshi
Issiqqa bardoshlilik	Juda yaxshi
Namgarchilikga bardoshlilik	Juda yaxshi
Quyoshga bardoshlilik	Ajoyib
Nam tuproqqa bardoshlilik	Kam
Soyaga bardoshlilik	Biroz

Tuzga bardoshlilik	Biroz
Tikanlar	Yo‘q
Tuproq turi	Yaxshi drenajlangan
O‘z o‘zini changlatuvchi	Xa

Qizil donli va shirin-nordon sharbatli juda katta och qizil meva. Juda sovuqqa chidamli va juda hosildor. Sentyabr-oktyabr oylarida Terib olinadi. “Salavaskiy” o‘zining yarim yumshoq urug‘lari bilan mashhur bo‘lgan bir nechta anorlardan biridir. (1.7.18-rasm)



1.7.-18-Salavaskiy navi

1.7.19-rasm.Surh-Anor

1.7.20.-rasm.Al-sirin-nar

Surx-anor

Surh-Anor navi tiniq donli, shirin sharbatli sarg‘ish-pushti rangli meva hisoblanadi. Biron, Gurjiston, AQSh Qishloq Xo‘jaligi Vazirligi stantsiyalariga Afg‘onistondan import qilingan sovuqqa juda chidamli navdir. Bu nav juda hosildor. (1.7.19-rasm)

Changlanish: O‘z-o‘zini changlatuvchi.

Pishib yetiladi: Avgust-oktyabr oyida faqat 2-3 yil o‘tgach

Yorug‘lik talablari: to‘liq quyosh

Tuproq turi: yaxshi pH 5,5-7,0

Chidamlilik: Sovuqqa chidamli, AQShning 6-9 zonalarida

Al-sirin-nar

“Al-sirin-nar” Rossiyadan keltirilgan. Katta yorqin qizil rangli meva juda hosildor nav hisoblanadi. U shirin-nordon mazasi ajoyib sharbat sifatiga ega. Juda kuchli va tez o‘sadigan daraxtlar sharbat ishlab chiqarish sanoati uchun yaxshi tijorat salohiyatiga ega. Iyul oyi oxirida pishib yetiladi.(1.7.20-rasm)



1.7.21-rasm Sakerdze navi

Changlanish: O‘z-o‘zini changlatuvchi nav;

Pishib yetilish davri: 2-3 yil ichida, iyul-sentyabr oylarida;

Terib olish davri: oktyabr oyi ;

Yorug‘lik talablari: to‘liq quyosh ;

Tuproq turi: yaxshi pH 5,5-7,0;

Chidamlilik darajasi: 7-10 zonalar;



1.7.22-rasm Nikiski navi

Sakerdze

Sakerdze navi biroz nordon ta‘mli, to‘q qizil teri va to‘q qizil donlarga ega bo‘lgan katta mevadir. U sovuqqa o‘rtacha chidamli nav (1.7.21-rasm)

Nikiski-ranni

Nikiskiy och pushti rangli va katta mevali juda sovuqqa chidamli nav hisoblanadi. U katta yorqin qizil meva beradi. Urug‘lari yumshoq va chaynasa bo‘ladigan. Katta donlari to‘q qizil rangda bo‘lib mayda urug‘lidir.

Mazasi shirin-nordon bo‘ladi. Sentyabr oyi boshida pishib yetiladi. Nikiskiy Ranni rus anorlari Krimson Skay va R19 sifatida ham tanilgan. Bu mazali anor asli Turkmanistondan keltirilgan. O‘z-o‘zini changlatadi. AQShdagi 6-9 zonalaridagi sovuqqa chidamli hisoblanadi. (1.7.22-rasm)



1.7.23-rasm Entek Habi Saveh navi

Entek Xabi Saveh

Sovuqqa chidamli Eron navi qizil-sariq rangdagi po‘stli o‘rtacha o‘lchamdagi mevaga ega, donlari qizil, urug‘lari qattiq, sharbatı biroz nordon nav hisoblanadi. Sentyabr oyi ohiri va erta oktyabr oylarida yig‘ib olinadi. AQShning 6-zonasiga mos keladi. (1.7.23-rasm)

Shirin navlari

Anor tarkibida sharbat miqdori (20%-50% gacha) navlarni yetishtirish sharoitlari va iqlimga ko‘ra farq qiladi. Sharbat tarkibida 76-78% suv, 1.1-1.5% oqsil, 8- 21% shakar, 1-3% yog‘ va 0.3-5% kislotalar mavjud. Sharbat uchun navni tanlashdan oldin, bir nechta sifat aspektlarini hisobga olish kerak. Ba’zi turlar istalgan rang va antioksidant tarkibga ega bo‘lishi mumkin, ammo ular yaxshi rentabelli hosildorlikka ega bo‘lmasligi mumkin.

Anor navlari mevasi va antioksidant tarkibi bilan baholandi. Rang, antioksidant tarkibi, shakar va kislota tarkibi kabi boshqa sifat aspektlarini aniqlash uchun maxsus laboratoriyada ishlatilish mumkin. Eronning turli xil hududlaridan olingan o‘n ikki anor turi fizik va kimyoviy xususiyatlariga ko‘ra tahlil qilingan va shunga binoan, “Syah-e-Saveh” navi eng kam sharbatga (20,18%) ega bo‘lib, “Xazar-e-Bardaskan” eng ko‘p sharbatga (59.83%) ega deb topildi. “Xazar” (59,83%), “Abdandan”, “Shishhe-Kap” va “Malas-e-Yazd” navlari tarkibida 52,35%, 50,13% va 44,88% sharbatlari mavjud. Boshqa tomondan, “Xazar-Bardaskan” va “Malas-e-Yazd” ning kislotaligi past (1% dan kam), “Abdandon” va “Shishhe-Kap” ning kislotaligi (1% dan ortiq) yuqori.

Kiprda Akko navi eng yuqori miqdordagi sharbatga ega, undan keyin “Vondeful” va Hershkovich (40,22%, 35,60%, 29,42%) navlari turadi, lekin daraxtga ko‘ra, “Vondeful” daraxtidan umumiy xolatda ko‘proq sharbat miqdori bor (5.05 litr/daraxt) Akko va Hershkovich 4,58 litr va 4,53 litr sharbat olinishi mumkinligi aniqlandi. Shunga o‘xshash kuzatuvlar Gresiya va Ispaniyadagi “Vondeful” navlari 34-35 % sharbatlarga ega ekanligini ko‘rsatib berdi. Boshqa tomondan Gresiyada Akko navining sharbat miqdori 37,9% ni tashkil yetadi.

Chili Eksperimental tadqiqotlarida aytilishicha, har bir killogram anor donlaridan olinayotgan sharbatning miqdori pishish bosqichlari orasida oshib boradi, bu hosilning shakar va donlarda suvning almashinishi tufayli uzluksiz o‘sib borishini ko‘rsatadi. Meva va po‘stloqning rangi, teksturaning sub’ektiv baholanishi asosida mevalar uchta yetilish bosqichida terib olinadi (M1: pishmagan, M2: o‘rta pishgan va M3: to‘liq pishgan). “Vondeful” navi donlarining har bir killogramidan sharbat miqdori mos ravishda 50%, 58% va 56% ni tashkil yetadi.

O‘rtacha sovuqqa chidamli anor bo‘lgan “Al-sirin-nar” navi sharbat ishlab chiqarish sanoati uchun yaxshi tijorat salohiyatga ega. Shu sababli, turli navlardagi sharbat miqdori yetuklik bosqichiga, iqlim, tuproqqa va yetishtirish sharoitlariga bog‘liq. Sharbat ishlab chiqarish uchun tanlanadigan nav, uning sharbatning kimyoviy xususiyatlariga ham bog‘liq. Bugungi kunda dunyo miqyosidagi sharbatlar ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan asosiy turdagi nav “Vondeful” navi hisoblanadi.

1.8. Anorning ozuqaviy va suv ehtiyojlari

Makroozuqaviy moddalar tanqisligi belgilari

- Kalsiy (Ca): Yangi barglar (o‘simlikning yuqori qismi) burishadi yoki qiyshiq shakllangan holatda bo‘ladi. Bu gulosti chirishiga olib keladi.
- Azot (N): eski barglarning umumiy sarg‘ayishi (o‘simlikning tagida) kuzatiladi. O‘simlikning qolgan qismi ko‘pincha yashil rangda.

- Magniy (Mg): Eski bargning markazida yashil o‘q shaklini qoldirib, chetga sarg‘ayadi

- Fosfor (P): barg kugan ko‘rinadi, undan keyin eski barglar quyuq yashil yoki qizilbinafsha rangga aylanadi.

- Kaliy (K): eski barglar so‘ligan bo‘lishi mumkin, kuygan ko‘rinadi. Rangsizlanib boradi asosan barg chegaralaridan ichkariga qarab, kuyish boshlanadi.

Mikroelementlar tanqisligi

- Bor (B): Shox uchidagi kurtaklari nobud bolib, supurgisimon ko‘rinishga o‘tib qoladi.

- Temir (Fe): yosh barglar tomirlari orasida sariq ranglar paydo bo‘ladi.

- Marganets (Mn): yosh barglarning tomirlari och sariq rangga kiradi. Garchi temir yetishmasligi kabi alomatlar bo‘lsada, asosiy farqi marganes yetishmaganda barglarda bujmayish holati kuzatiladi. Odatda o‘simlik qismlari (barglar, kurtaklar, mevalar) kattalashib ketadi. Yamoqqa o‘xshash quruq dog‘lar paydo bo‘ladi.

- Rux (Zn): Shoxni uchidagi va yangi barglarning tomirlari o‘rtasida sarg‘ayish paydo bo‘ladi.

Makro va mikroelementlar yetishmasligi simptomlarini ko‘rsatadigan tasvirlar

Magniy (Mg) yetishmovchiligi: Eski barglar markazida yashil o‘q shaklini qoldirib, cheti sarg‘ayadi. Ba‘zan bargning uchi ham yashil bo‘lib qoladi. Mg harakatchan element hisoblanadi ya‘ni kamchiliklar eski barglarda birinchi bo‘lib paydo bo‘ladi. (1.8.1-rasm)



1.8.1-rasm. Azot (N) yetishmovchiligi:

Anor ko‘chatlarida eski barglarning umumiy sarg‘ayishi (o‘simlikning tagida). O‘simlikning qolgan qismi ko‘pincha och yashil rangda bo‘ladi. Azot (N) yetishmovchiligi: rasmga ahamiyat bering.

N juda harakatchan element, shuning uchun nur ostida yengil N yetishmovchiligi ostida birinchi alomatlar eski barglarda ko‘rinadi.



1.8.2-rasm

Rux (Zn) tanqisligi: Shox uchidagi barglari to‘pbarg shaklida bo‘lishi mumkin va yangi barglarning tomirlari o‘rtasida sarg‘ayish paydo bo‘ladi. (1.8.2-rasm)

Temir (Fe) yetishmovchiligining belgilari: ko‘zga ko‘rinadigan yashil tomirlar bilan ochiq rangli barg.



1.8.3-rasm

Fe (Temir)-bu harakasiz element, shuning uchun avval yosh barglarda alomatlar paydo bo‘ladi. Jiddiy Fe yetishmasligi zo‘riqishida yosh barglar kichik va deyarli oq rangga ega. Tuproqlar kuchli nam bo‘lganda, Fe kimyoviy holatini o‘zgartiradi va o‘simlikka so‘rilmaydi. (1.8.3-rasm)

Fosfor (P) yetishmovchiligi: P yetishmasligi tufayli o‘simlik barglari o‘ziga xos qizil rangga ega bo‘ladi. Barg uchi kuygandek ko‘rinadi, keyinroq yashil barglar quyuq yashil yoki qizil-binafsha rangga kiradi. (1.8.4-rasm)



1.8.4-rasm

Marganets (Mn) tanqisligi: Mn yetishmasligi holati bo‘yicha rasmdagi klassik alomatlariga ahamiyat bering. Och yashil tomirlar bilan och rangli barg. Sarg‘ish yosh barglar tomirlari orasidan



ko‘rinadi. Shakli temir bilan bir xil emas. Marganes o‘simlik qismlari (barglar, kurtaklar, mevalar) kichrayadi. Mn harakasiz element, shuning uchun avval yosh barglarda alomatlar paydo bo‘ladi. (1.8.5-rasm)

1.8.5-rasm

Bargning normal fiziologik holatidagi elementlarning optimal kontsentratsiyasi

Adabiyotlardan olingan ma‘lumotlar hamda o‘tkazilgan tajriba va kuzatish natijalariga ko‘ra meva daraxtlari uchun optimal diapazonlarda barg oziqlanish kontsentratsiyasi quyidagicha:

N: 1,5-2,0 (2,5)%

P 0,1-0,2%

K: 0.6-0.8 (1.47)%

Ca: 0.7-1.5%

Mg: 0.3-0.4%

Mn: 20-70 (196) (ppm) Zn: 40-70 (ppm)

Fe: 60-120 (199) (ppm)

B: 10-20 (96) (ppm)

Cu: 10-20 (ppm)

O‘simlikda elementlar miqdori yoki kontsentratsiyasini aniqlash uchun barg to‘plamlari tayyorlanadi. Buning uchun 3-4 oylik hosil bermaydigan novdalarga ega bo‘lgan daraxtlardan 100 ta barg (20-25ta daraxtdan, har bir daraxt chorrahasidan kamida bitta bargdan) olinishi kerak. Olingan barg to‘plamlari tegishli usullar asosida tahlil qilinib, tarkibida elementlar miqdori aniqlaniladi.

O‘simlik barglari takibidagi elementlar miqdoriga ko‘ra tegishli takibli ozuqalar bilan oziqlantirish chora-tadbirlari qo‘llaniladi.

2-MODUL. ANOR YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI

2.1. Anorzorlarni tashkil etish

Yangi tashkil etilayotgan anorzor Samarali dehqonchilik amaliyoti ta'moyillariga asoslangan bo'lishi maqsadga muvofiq. Birinchidan, bog'ning agronomik nuqtai nazardan to'g'ri shakllantirilishi va yuqori sifatli hosil olish ta'moyillariga asoslangan holda tashkil etilishi shart. Ikkinchidan, bog' tashkil etilishda ekologik unsurlar e'tiborga olinishi shart: bog'ning atrof muhiti, yer resurslaridan unumli foydalanish. Uchinchidan, bog' tashkil etilishda ijtimoiy-iqtisodiy masalalar e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq.

Yangi tashkil qilinayotgan anorzorlar yuqori daromad olish va mavjud texnik resurslardan unumli foydalanish imkonini bera oluvchi tizimda yaratilishi shart.

Mana shu bosqichda, bog' uchun tanlangan tizim tuproq va ob-havo sharoitlarini inobatga olgan holda samarali rejalashtirilishi tavsiya qilinadi.

Yangi tashkil etilayotgan anorzorlar Samarali dehqonchilik amaliyoti ta'moyillari asosida tashkilyetilishi tavsiya qilinadi.

Tom ma'noda, samarali dehqonchilik amaliyoti atrof muhit va iqtisodiy-ijtimoiy bilim va malakalarga tayangan holda inson salomatligi uchun havfsiz bo'lgan qishloq ho'jaligi mahsulotlarini etirishtirish ularni yig'ishtirib olish jarayonlarini nazorat qilishga yordam beradi.

Ob-havo sharoitlari

Anor daraxtlari rivojlanishi uchun optimal sharoitlar yetarlicha quyosh nuri, iliq qish va quruq (issiq) yoz mavsumidir. Ayniqsa, meva rivojlanishining so'nggi bosqichlarida yomg'ir bo'lmasligi katta ahamiyatga ega. Bunday sharoitlarda meva eng yaxshi hajm, rang va yetarlicha shira oladi. Bu esa o'z navbatida mevaning yorilishi bilan bog'liq muammolarni kamaytiradi. Anor daraxti tinim davrida 11⁰C haroratda sovuqdan zararlanishi mumkin. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, anor daraxtlari -9⁰C dan -12⁰C gacha haroratga chidashi mumkin. -20⁰C haroratda esa anor daraxtlarining butun tanasi yer yuzasiga muzlab quriydi.

Vegetativ mavsum uzoq davom etuvchi, lekin harorat -15°C dan tushib ketuvchi hududlarda samarali hosil olish maqsadida anor ko'chatlarini qishda sovuqdan himoyalash tavsiya qilinadi.

Kech gullashi sababli odatda erta bahordagi qirovlar anor ko'chatlari uchun uncha katta muammo tug'dirmaydi, lekin kech kuzgi qirov yoki kutilmagan sovuq hosil uchun juda havfli bo'lishi mumkin.

Anor daraxtlari qishki tinim davrida sovuqqa birmuncha chidamli, lekin kuzda tinim davriga to'liq kirgungacha bo'lgan va bahorda kurtak yorish davrlarida sovuqdan aziyat chekishga ancha moyil bo'ladi.

Anor daraxtlari issiqqa juda chidamli ya'ni 120 kun davomida harorat $+30^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo'ladigan hududlarda juda yaxshi rivojlanadi.

Tuproq sharoitlari

Anor daraxtlari turli tuproq sharoitlariga tez moslasha oladi, lekin unumdor bo'z tuproqlarda juda yaxshi rivojlanadi. Shunday bo'lsada, ular turli tuproq sharoitlarida shu jumladan, o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda ham rivojlanadi. Anor daraxtlari sho'rlik darajasi yuqori bo'lgan tuproqlarda ham o'sib-rivojlanishi mumkin. Anorning rivojlanishi uchun tuproqning suv o'tkazuvchanligi (suv turib qolmasligi) juda muhim.

Anor daraxtlari kislotaligi o'rta me'yordan ishqorliligi bir oz yuqori bo'lgan tuproqlarda ham rivojlanishi mumkin, ular yaxshi rivojlanishi uchun eng yaxshi tuproq sharoitlarining pH ko'rsatkichi 5.5-7.5 oralig'idagi tuproq sharoitlarida ham yaxshi rivojlanadi.

Tuproqning ishqoriyligi yuqori va suv o'tkazuvchanligi yomonlashgan sharoitlarda meva sifati buzilishi mumkin. Yuqorida tilga olinganidek, ular unumdorligi yuqori bo'z tuproqlarda va qumoq tuproqlarda yaxshi rivojlanadi.

Sug'orish suviga bo'lgan talablar

Anor daraxtlari uchun sug'orish suvi bo'lishi juda muhim va ular yetarli tarzda sug'orilishi maqsadga muvofiq. Agar mavsum davomida sug'orish imkoniyati mavjud bo'lsa, suvsizlikdan stressga tushmasligi uchun daraxtlar qancha talab qilsa shuncha sug'orilishi maqsadga muvofiq. Umuman olganda, mavsum va hudud

talablaridan kelib chiqqan holda yoz mavsumlarida anor daraxti yetarlicha sug'orilishga muhtoj. Suv turib qolmasligi va tuproqning suv o'tkazuvchanligini yaxshilash uchun zarur chora-tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirilishi tavsiya qilinadi. Anor daraxtlari sho'rliqi yuqori bo'lgan suv bilan sug'orilsa ham rivojlanish hususiyatini namoyon qila oladi. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, Isroil va Turkman anor navlari shunday sharoitlarda ham yaxshi rivojlanib hosil berishi aniqlangan va daraxtga hech qanday salbiy zarar yetganligi kuzatilmagan. Ushbu sinovlarda qatnashgan bog'larning sug'orish suvi sho'rlik o'lchami 2.5-4.0 dS+m orasida bo'lgan. Sho'rliqi yuqori bo'lgan suv bilan bog'larni sug'orish muntazam bir tartibda amalga oshirilishi shart, shunda tuproqdagi tuzni yuvib turish va uni ko'payishining oldini olish imkoni bo'ladi.

Bog' uchun yer tanlash

Anorzor uchun yer tanlanayotganda e'tibor berilishi kerak bo'lgan eng muhim omil bu ob-havo sharoitidir. Bog' uchun yer tanlayotganda tuproq turidan tashqari yana sug'orish suvining mavjudligi, tuproqning suv o'tkazuvchanligi, quyosh nurining qanchalik ko'p tushishi va havo aylanishi kabi omillarga ham e'tibor berish kerak. Meva yaxshi rang olishi va hosildorlik yuqori bo'lishi uchun bir kunda kamida 6 soat davomida anor daraxtlari quyosh nuriga to'yinishi shart. Chegaralangan imkoniyatlarga ega hududlarda anor daraxtlarini ekmaslik kerak.

2.2. Yangi anorzorlar rejasini tuzish va ularni barpo qilishda e'tibor berilishi tavsiya qilinadigan omillar **Yer tayyorlash-yerni tozalash (*Zamenitga bering*)**

Dastlab qiyaligi katta bo'lmagan yerlarni maxsus texnika yordamida shox-shabbalardan (buldozer tirmasi, diskalash yoki kuchli o't o'ruvchi moslama yordamida) tozalanadi. Ko'pgina bog'bonlar tuproqning suv o'tkazuvchanligini yaxshilash, kemiruvchilar inlarini buzish, tosh yoki eski daraxt ildizlarini yer yuzasiga chiqarish uchun maxsus uskuna bilan yerni 50 sm dan 1 m gacha bo'lgan chuqurlikda haydaladi. So'ngra mola bosiladi (tekislanadi). Bunday amaliyotni yangi ochilayotgan yerlarga qo'llashda ehtiyot bo'lish kerak, chunki qishki ko'p yomg'irlar oqibatida yer erroziyasi muammo keltirishi mumkin. Tuproq ozuqa

bazasini bilish uchun 50sm (1 metrgacha) chuqurlikdagi tuproq qatlamini laboratoriya tahlilidan ham o'tkazish va tuproqning pH ko'rsatkichini aniqlash tavsiya qilinadi. To'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun yerning turli qismlarida shunday tekshiruvlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, ayni bir yerning turli qismlari turli xil tuproq turlaridan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Yer tayyorlash-yerni tozalash

Suv yig'ilib qolishi: Suvni yaxshi o'tkazmasligi sababli yerning ba'zi qismlarida kuchli yomg'ir tufayli ko'lmaklar hosil bo'lishi mumkin. Alohida chora-tadbirlar ko'rib drinaj muammosi hal qilinmaguncha yerning ushbu qismlariga anor ko'chatlari ekilmasligi kerak.

Anor navlari turlarini tanlash

Anor navlari nafaqat hosildorligi, balki quyidagi sifatlardan kelib chiqqan holda tanlanishi shart:

- Ob-havo va ma'lum bir hudud mikroklimitiga moslasha olishi talablaridan kelib chiqqan holda;
- Ma'lum bir hududdagi zararkunanda hasharot va kasalliklarga chidamliligi;
- Ozuqa va suvga bo'lgan talablar;
- Daraxtning o'sish sur'ati bu ekish sxemasini belgilaydi;
- Haridorlar va bozor talabidagi mahsulot sifati;

Kaliforniyaning Devis universiteti tavsiyalariga ko'ra anor daraxtlarini ekayotganda ularning changlatuvchilarini ham qo'shib ekish tavsiya yetiladi. Agar siz tanlagan navning changlatuvchi naviga ham bozorda talab bo'lsa, unda changlatuvchining siz tanlagan navga nisbati 1:1 foizda bo'lishi tavsiya qilinadi. Agar navning changlatuvchi naviga bozorda talab yaxshi bo'lmasa, unda changlatuvchining siz tanlagan navga nisbati 1:9 foizda bo'lishi tavsiya qilinadi.

Shunday bo'lsada, ba'zi navlar ko'proq hosil tugushi va meva hajmi katta bo'lishi uchun changlatuvchi navni zichroq ekilishini talab qiladi.

Anor daraxtlari odatda o'zidan boshqa navlar va hasharotlar yordamida, changlanadi. Ularni shamol yordamida changlanishi juda sust deb topilgan.

Anor navlari turlarini tanlash

Katta hajmdagi bog'larda faqat bir navli anor ko'chatlarini ekish tavsiya etilmaydi. Mavsum davomidagi pishib borish tartibi bo'yicha bir nechta navdan foydalanish maqsadga muvofiq, bu usul hosil yig'ishtirish jarayoni va bog'ni boshqarish jarayonlarini maksimallashtiradi ya'ni ishchi kuchi va texnikalardan unumli foydalanish imkonini beradi.

Ekilishi rejalashtirilayotgan ko'chatlar sifati

Sog'lom, yuqori sifatli va ro'yxatdan o'tgan maxsus ko'chatxonalardan olingan ko'chatlarni ekish tavsiya yetiladi.

Yuqori sifatli ko'chatlarning ayrim sifatlari:

1. Asl navli;
2. Zararkunanda hasharot va kasalliklardan xoli;
3. Jadal o'suvchan;
4. To'g'ri o'suvchi tana;
5. Tanasi tekkis va po'stlog'i toza;
6. Ildiz tizimi yaxshi rivojlangan, oq va popuk ildizlarning ko'zga tashlanib turishi ildiz tizimining sog'lomligini bildiradi, lekin ildizlarning faqat ildiz bo'g'zi atrofida spiral shaklida shakllanganligiga e'tibor beriladi;
7. Agar ko'chatlar tuvakda keltirilgan bo'lsa, tuvaklar yorilmagan va tuvak yuzasida begona o'tlar rivojlanmagan bo'lishi shart;
8. Shoxlari bir maromda va masofada shakllangan bo'lishi;
9. Yangi ekilayotgan ko'chatlarda meva kurtaklari hali rivojlanmagan bo'lishi maqsadga muvofiq;
10. Sifatli va tushunarli tarza markirovka qilingan bo'lishi.

2.3. Anor ko'chatlarini ekish sxemasi

Daraxt ekish uchun yerni tayyorlab olgandan so'ng, keyingi navbat ular uchun ekish sxemasini tanlash.

Anor ko‘chatlari uchun bir nechta ekish tizimlari mavjud bo‘lsada, quyida eng ko‘p tarqalgan ikki turi keltirilgan:

- To‘rtburchak shaklda ekish tizimi
- To‘g‘ri to‘rtburchak shaklida ekish tizimi

Kvadrat sxemasi

Mevali daraxtlar uchun eng oson va keng tarqalgan tizimlardan biri. Ushbu tizimda qatorlar orasi va ichidagi masofa bir xilda bo‘ladi. Ko‘chatlar har bir burchakda teng burchak ostida ekiladi. Shu sababdan har to‘rtinchi ko‘chat kvadratni hosil qiladi. Qatorlar orasi va ichidagi masofa bir xilda bo‘lganligi sababli bog‘ga ishlov berish maqsadida texnikalar har tarafga bir xilda harakatlanishi mumkin (masalan, 5m x 5m).


Ushbu tizimda oraliq ekin ekish uchun yetarlicha masofa ajratilgan bo‘ladi. Bog‘ni kengaytirish faqat qo‘shimcha qatorlar qo‘shish orqali amalga oshirilishi mumkin. (2.3.1-rasm).

Kvadrat shaklidagi sxema

Avfzalliklari :

Sug‘orish ariqlari yoki yo‘laklari bir tekisda joylashtirilish mumkin.

Yerga ishlov berish, daraxtlarga dori sepish va hosil yig‘ishtirish uchun juda qulay.



2.3.1-rasm

Bog‘ni har tomonlama kuzatish qulay bo‘lganligi uchun uni boshqarish juda qulay.

Kamchiliklari :

Yer hisobiga ko‘chat sig‘dirish imkoniyati past.


Har bir kvadratning o‘rtasida juda ko‘p joydan unumsiz foydalanilgan.

Masalan, to‘rt daraxt o‘rtasidagi joy behuda sarflangan.

To'g'ri to'rtburchak shaklidagi sxema

Ushbu tizim ham kvadrat tizimga o'xshab ketadi. Uning asosiy farqi qatorlar orasi va ichidagi masofaning har xilligidir (2.3.2-rasmga qarang).

Demak, ushbu tizimda ayni bir ajratilgan Yerga ko'proq ko'chat sig'dirish imkoniyati mavjud. Bog'ga ishlov berish maqsadida texnikalar har tarafga bir xilda harakatlanishi mumkin.



2.3.2-rasm.

Daraxtlar rivojlanish uchun yetarlicha masofaga ega bo'ladi va quyosh nuridan unumli foydalaniladi (masalan, 6m X 3m).

To'g'ri to'rtburchak shaklidagi sxema

Avfzalliklari

1. Yerga ishlov berish, daraxtlarga dori sepish va hosil yig'ishtirish uchun juda qulay.
2. Sug'orish ariqlari qator bo'ylab joylashtirilishi mumkin.
3. Oraliq masofa kengligi sababali yorug'likdan unumli foydalaniladi.
4. Bog'ni yanada unumliroq boshqarish imkoniyati mavjud.
5. Oraliq ekin ekish imkoniyati mavjud (2.3.3-rasm).

Kamchiliklari

1. Agar oraliq ekin ekilmasa, qatorlar orasidagi masofa behuda sarflanadi.
2. Yer hisobiga ko'chat sig'dirish imkoniyati past.

Kiprda to'g'ri to'rtburchak tizimida shakllantirilgan anorzor (3m x 6m).

Daraxtlar "T" shaklida shakllantirilgan



2.3.3-rasm. Oraliq ekin ekish



2.3.4-rasm. Daraxtlar orasidagi masofa

Daraxt ekilgan qatorlarni shimol-janub yoʻnalishida ekish, quyosh nuridan unumli foydalanishga yordam beradi.

Bogʻ rejasini tuzayotgan bogʻbonlar tomonidan eʼtborga olinadigan asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- daraxtlar orasidagi masofa.
- daraxt shakli, unga beriladigan shakl (bir yoki koʻp asosli).
- daraxtni parvarishlash.

Daraxtlar orasidagi masofa

Anor daraxtlarini zich ekish koʻproq iliq oʻlkalarga toʻgʻri keladi. Daraxtlarni zich ekish odatiy (5m x 5m) usulga nisbatan koʻproq hosil olish imoknini beradi. Baʼzi bogʻbonlar 2.5m x 4.5m oʻlchamdagi zich ekish usullaridan foydalanishadi. Lekin bunday usul kasallik va zararkunanda hasharotlar rivojlanishi uchun qulay sharoit tugʻdiradi. (2.3.4-rasm)

Anor koʻchatlarini juda zich ekish tavsiya qilinmaydi, yuzaga kelgan orticha soya mevaning yaxshi rang ololmasligi, ularda dogʻlar paydo boʻlishi, daraxtlarga

shakl berish, mevani terib olish va qishloq xo'jaligi mashinalaridan foydalanishda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ba'zi bog'bonlar hosildorlikni oshirish maqsadida daraxtlarni qator ichida 2m, qator orasida 6m kenglikda ekishadi va daraxtlar kattalashgan sari quyosh nuridan unumli foydalanish maqsadida qator ichidan bittadan daraxtni olib tashlashadi.

Kiprda anor daraxtlari 3m x 6m masofada (V yoki T shaklidagi) ekiladi. Bunday tizimda ekilgan daraxtlarning hosildorligi va meva sifati juda yuqori bo'ladi. Hosildorlik tup soniga 80-90 kg va mevaning o'rtacha og'irligi 500gr gacha bo'ladi.

Isroilda anor daraxtlari 6m x 4m yoki 6m x 5m masofada va yarim pakana navlar esa 5m x 3m masofada ekiladi.

AQShda anor daraxtlari ikki tizimda ekiladi:

1. Zich ekish sxemasi: 1.5m x 3.6m
2. Keng ekish sxemasi: 4 (5.2)m x 5.8m

Shunday bo'lsada, Kaliforniyaning Devis Universiteti anor ko'chatlarini qator ichida 3 yoki 5m va qator orasida 5 yoki 7m sxemada ekishni tavsiya qiladi.

Daraxtlarni ekish tartibi va vaqti

Bog' yuzasi daraxt ekishga tayyor bo'lgandan so'ng, daraxt ekiladigan masofalar belgilanadi va kamida 45sm x 45sm hajmda daraxt ekish chuqurchalar qaziladi.

Maxsus plastik tuvakda o'stirilgan ko'chatlar yilning istalgan mavsumida ekilishi mumkin, ochiq ildizli ko'chatlar esa bahorda ekilishi tavsiya qilinadi.

Daraxtlarni fevral-mart oylarida ekish, ularga kuzgacha sovuq havo tushgunga qadar yozda yetarlicha rivojlanib olish imkonini beradi. Ko'chatlar tuvakcha chuqurligida yoki ko'chatxonada qanday joylashgan bo'lsa o'sha chuqurchaga joylab ekilishi shart.

Ko'chatlarni ekishdan oldin unumdor tuproq yuzasidagi tuproqni 100-150 gr fosfor va kaliyli o'g'it bilan aralashtirib ko'chat ekiladigan chuqurchaning tubiga joylash tavsiya qilinadi. Bu chuqurchaga azotli o'g'it solish tavsiya qilinmaydi, u ekilayotgan ko'chat ildizlarini kuydirish mumkin.

O'g'it bilan yaxshilab aralashtirilgan tuproq chuqurchaga joylangandan so'ng, ko'chat chuqurcha markaziga joylab ekiladi. Chuqurcha tuproq bilan to'ldirilgandan so'ng oyoq bilan yaxshilab preslab bosish, so'ngra sug'orib qoziqqa bog'lash kerak.

Shamol ko'p esuvchi hududlarda yangi ekilgan ko'chatlarni qoziqqa bog'lash talab qilinadi. Yakka qoziq shamol esuvchi tarafga qarab joylanishi kerak. Ko'chat qoziqqa sakkiz shaklida bog'lanishi kerak, bu ko'chat tanasi qoziqda siqilib qolishi va ishqalanib zararlanishini oldini oladi. Ko'chatni qoziqqa bog'laydigan material keng, tekis va cho'ziluvchan bo'lishi maqsadga muvofiq. Izolyasiyalangan sim, rezina yoki boshqa shu kabi yumshoq trubkalardan foydalanish mumkin. Ko'chat qoziqqa bir nechta joyidan bog'lanishi shart. Bu maqsad uchun ochiq simdan foydalanmang, ko'chat tanasiga ishqalanib uni zararlaydi va ko'chat uchun zarur bo'lgan ozuqa-suv manbalari harakatini chegaralaydi.

Ko'chatlarni ekish jarayoni tugagandan so'ng, ularni parvarishlash jarayoni boshlanadi.

Bunday parvarish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- muntazam sug'orish.
- oziqlantirish (yuqori foizli azot, fosfor va bir oz kaliy).
- begona o'tlarni nazoratga olish.
- kasallik va zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashish.

Yosh ko'chatlarni parvarishlash

Anor ko'chatlari yagona yoki bir nechta asosda shakllantirilishi mumkin.

Sifatli hosil olish uchun daraxt har yili butab turilishi shart.

Anor daraxtlarini sug'orish va oziqlantirish

Anor daraxtlari yaxshi rivojlanishi uchun muntazam sug'orilish talab etiladi. Anor daraxtlari uchun suv mavjudligi juda muhim, shu sababdan ular yetarlicha sug'orilishi tavsiya qilinadi. Agar mavsum davomida sug'orish imkoniyati mavjud bo'lsa, suvsizlikdan stressga tushmasligi uchun daraxtlar qancha talab qilsa shuncha sug'orilishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, mavsum va hudud talablaridan kelib chiqqan holda yoz mavsumlarida anor daraxti yetarlicha sugʻorilishga ehtiyoj sezadi. Suv turib qolmasligi va tuproqning suv oʻtkazuvchanligini yaxshilash uchun zarur choratadbirlar oʻz vaqtida amalga oshirilishi tavsiya qilinadi.

Toʻgʻri rejalashtirilgan oziqlantirish rejasi anor daraxtlarining tuproqda mavjud yoki yetarlicha boʻlmagan N, P, K makro va mikro ozuqalarga boʻlgan talabini qondirishga qaratilgan boʻladi.


2.4. Meva shakllanishi-gul va mevalarni siyraklashtirish

Kurtak yorgandan soʻng bir oy oʻtib yangi shakllangan novdalarda gullar (yangi mavsumda shakllangan novdalar asosida) hosil boʻladi, aksariyat hollarda kurtaklar qisqa novdalarda shakllanadi. Gullar yakka, juft yoki toʻp (5 tagacha) koʻrinishda boʻladi. Yakka gullar novda tanasiga yaqin joyda, gul toʻplar esa novdalar uchida hosil boʻladi. Gullash va meva hosil boʻlish jarayoni bir oy davom etadi.

Anor gullari ikki turda boʻladi:

- germofrodit-meva hosil qiluvchi yaxshi rivojlangan urugʻdon va gul naychasiga ega gul.
- erkak gul-koʻplab shakllangan gul changlari boʻladi, lekin urugʻdoni yaxshi rivojlanmaydi (2.4.1-rasmga qarang: gul anatomiyasi).

Anorning gullovchi navlari erkak va germofrodit gullar hosil qiladi. Meva hosil qiluvchi gullar germofrodit gullar deb yuritiladi. Odatda uning ichi toʻliq, asos qismi dumaloq va umumiy shakli koʻzaga oʻxshab ketadi. Meva hosil qilmaydigan erkak gul kichikroq va torroq, qoʻngʻiroq shaklida boʻladi. Quyidagi rasmlarda chapki tarafda erkak va oʻng tarafda germofrodit gullar misol tariqasida berilgan. (2.4.2-rasm)



2.4.1-rasm. Chizma: Anor gulining anatomik tuzilishi

Meva shakllanishi. Gul va mevalarni siyraklashtirish



2.4.2-rasm. Erkak gul chapda va o'ng tarafda germofrodit gul.

Daraxtning meva berish imkoniyati undagi germofrodit gullar soni bilan belgilanadi. Shu sababdan, ko'proq erkagiga nisbatan germofrodit gullar hosil qiluvchi navlar hosildorligi yuqori navlar deb yuritilishi mumkin.

Isroil anor navlarining germofrodit gullar hosil qilish imkoniyati 43% dan 66% gacha.

Changlanish vaqti juda muhim ahamiyatga ega, guldagi changlar 2-3 kun ichida aktiv bo'ladi, so'ngra sustlashadi. Changlanish soni mevada qancha urug'

shakllanishini belgilaydi va natijada meva hajmiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Dastlab germofrodit gullar ochiladi va oradan 7-8 kun o'tib, erkak gullar ochiladi.

Yana shuni e'tiborga olish kerakki, kech ochilgan gullar yaxshi rivojlanmaydigan mevalar hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida qayd etilganidek, anor odatda o'zidan, boshqa navlar va hasharotlar yordamida, asosan asalarilar yordamida changlanadi.

Hindiston, Turkmaniston, Isroil va Tunis anor navlari ustida olib borilgan izlanishlar (gullarni izolyasiya qilish yoki gul changlarni kesib tashlash) shuni ko'rsatadiki anor gullari o'z-o'zidan changlanib changlatuvchisiz ham meva tugaverishi mumkin.

Shuningdek, o'z-o'zini changlatuvchi navlarning hosildorligi har-xil. O'z-o'zini changlatuvchi navlar gullari nazoratga olinganda 45% gacha meva tukkan, boshqa navlar yordamida changlanuvchi navlar nazortaga olinganda hosildorlik 68% ga ortgan.

Shu sababdan, hosildorlikni oshirish uchun bir nechta navni birga ekish tavsiya qilinadi.

Anor daraxtlari juda ko'p gul hosil qiladi, lekin bu gullarning hammasi ham meva hosil qiluvchi gul bo'lmaydi. Mevaning ko'p bo'lishi uning hajmi va hosildorligiga ta'sir o'tkazadi. Meva hajmini oshirish uchun gullar va mevalarni siyraklashtirish tavsiya qilinadi. Agar mevani siyraklashtirishga qaror qabul qilgan bo'lsangiz, mevaning o'zini siyraklashtirgandan ko'ra, meva beruvchi novdani siyraklashtirish maqsadga muvofiq.

Hosildorlikni chegaralash uchun hujayralar endi kengayishidan oldin novdalarning pastki qismidagi nimjon kurtaklarni olib tashlang. Agar ehtiyoj sezsangiz daraxt kuchini mevaga berishidan oldin gul to'plarni siyraklashtiring.

Ba'zi anor navlari ko'p meva tugadi, lekin ularning hajmi tijorat maqsadida foydalaniladigan navlarga nisbatan kichik. Nav meva hajmiga boshqa amaliyotlarga nisbatan ko'proq ta'sir o'tkazadi.

Kiprda meva tugish jarayoni yakunlangandan so'ng (gullash davrida) barcha erkak gullar qo'l bilan olib tashlanadi va daraxtda faqat onalik gullar qoladi. Agar

shunda ham normadan ko'p meva qolgan bo'lsa, yana bir bor qo'l bilan ular siyraklashtiriladi.

Qo'l bilan gullarni siyraklashtirish ko'p mehnat talab qilinishi sababli, gullar va mevalarni kimyoviy preparatlar yordamida siyraklashtirish o'rganilgan. Ortiqcha gulni siyraklashtirish maqsadida gullash davrida GK (20ppm) o'stiruvchi garmondan foydalanish mumkin.

Gul to'kilishini oldini olish va gul kurtaklarni ko'paytirish uchun NAA (10ppm) garmonidan (gul to'kilishi kuzatilsa 2-3 marta bir hafta oralig'ida) foydalanish mumkin.

Samarali dehqonchilik amaliyoti talablariga ko'ra o'stiruvchi garmonlardan foydalanish tavsiya qilinmaydi.

2.5. Tuproqqa ishlov berish

Tuproqning fizik va kimyoviy tarkibi, biologik faolligi hosildorlikning asosi bo'lib, tuproqning unumdorligini belgilab beradi. Tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar tuproqdagi ozuqalarning yo'qolishi, uning agrokimyoviy erroziyasi, yuvilib ketishi, yer yuzasi yoki ostidagi suvlarga zarar yetkazmaslik kabi muammolarni minimallashtirishni inoboatga olgan holda amalga oshirilishi darkor. Tuproqqa samarali ishlov berish amaliyoti uning biologik faolligi va atrofdagi tabiiy resurslar, o'simlik va hayvonlar xilma-xilligini asrashga qaratilgan bo'ladi.

Tanlangan tuproqqa ishlov berish tizimi quyidagi talablarga javob berishi shart:

- anor yetishtirishda muhim ahamiyatga ega yomg'ir suvlaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega tuproq qatlamiga ega bo'lish;
- tuproq konservatsiyasi, uning erroziyaning oldini olish imkoniyatiga ega bo'lishi.

Anor daraxtlari ildizlari sayoz joylashganligi sababli tuproqqa ishlov berish amaliyoti daraxt ildiziga zarar yetkazmaslik uchun tuproq qatlamining 15-25sm chuqurligidan oshmasligi tavsiya qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tuproqqa ishlov berishda quyidagi maqsadlarni ko‘zlashi shart:

- almashlab ekish va mexanik ishlov berish amaliyotlari orqali tuproqning organik tarkibini yaxshilash yoki mukammallashtirishga qaratilishi.

- suv yoki shamol ta’sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tuproq erroziyasining oldini olish.

- og‘ir texnikalardan foydalanish ta’sirida tuproq preslanishini oldini olish.

- tuproqning yuza qatlamiga ishlov berish, eng samarali amaliyot.

- agronomik va atrof muhit talablaridan kelib chiqqan holda kimyoviy, organik va anorganik o‘g‘itlarni belgilangan miqdor va vaqtda samarali qo‘llash.(2.5.1-rasm)



2.5.1-rasm.Yerni presslanib qolish holati

Tuproqqa juda chuqur ishlov beruvchi og‘ir texnikalardan foydalanish tavsiya qilinmaydi. Tuproqning yuza qatlamiga ishlov berish tavsiya qilinadi (2.5.2-rasm)

Bog‘ yuzasini oraliq ekin bilan nazoratga olish

Imkoni bor anorzorlarda bog‘ yuzasini oraliq ekinlar yordamida nazoratga olish samarali dehqonchilik amaliyoti talablaridan biridir. Anorzorlardagi oraliq ekinlar quyidagi vazifalarni o‘taydi:

- Dukkakli ekinlardan foydalanish tuproqni azotga boyitadi.

- Tuproq tarkibini yaxshilash orqali zararkunanda hashorat va kasalliklarning oldini olish, tuproqda mikroorganizmlar faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish va tuproq yuza qatlamida zararkunanda hashorotlarga qarshi kurashish;



2.5.2-rasm. Tuproqning yuza qatlamiga ishlov berish tavsiya qilinadi

- Tuproq erroziyasining oldini olish va uning unumdor qatlamini asrash;
- Tuproqning suv o'tkazuvchanligi va zarur foydali elementlarni o'zida ushlab turish imkoniyatini yaxshilash;
- Begona zararkunanda o'tlarni daraxtlar bilan raqobatlashishiga yo'l qo'ymaslik.

Anorzorlarda oraliq ekinlar va mulchadan tabiiy ozuqa vazifasida foydalaniladi. Bunday holatda oraliq ekinlar o'rib (maydalanib) tuproq yuzasiga mulcha sifatida to'shaladi. Quruq mavsumlarda mulcha suv yo'qotilishini oldini olishga yordam beradi va tuproqni organik moddalar bilan boyitadi (mexanik ishlovga nisbatan samaraliroq). Quruq mavsumlarda yong'inlarga sabab bo'lishi, mulchaning kamchiliklaridan birdir.

Oraliq ekin tanlanayotganda quyidagi talablarga e'tibor berish kerak:

- Oraliq ekin sifatida tanlanayotgan o'simlikning ozuqa va suvga bo'lgan talabi va biologik vegetativ hayot davri.
- Tanlangan ekinning tuproq tarkibiga ta'siri (sayoz yoki chuqur ildiz ortishi).
- Tanlangan ekinning tuproqqa foydasi.
- Tanlangan ekinning zararkunanda hasharot va kasalliklarga chidamliligi.
- Tanlangan ekinning quruq mavsumlarda yonuvchanligi.

- Tanlangan ekinning mexanik ishlovga bo‘lgan talabi (o‘rish, mulchalash va hokazo).

Oraliq ekin sifatida mahalliy sharoitda yaxshi o‘sovchi o‘simlik turlarini tanlanishi maqsadga muvofiq, chunki ular mahalliy ob-havo va tuproq sharoitlariga moslashuvchan bo‘ladi (2.5.3-rasm).



2.5.3-rasm. Qatorlar orasidagi oraliq ekin

Madaniy oraliq ekin

Past bo‘yli sabzavotlar, dukkaklilar va begona o‘tlardan oraliq ekin sifatida foydalanish bog‘ uchun foydali. Oraliq ekin bir vaqtning o‘zida ayni bir maydonda ikki yoki undan ortiq ekin turidan foydalanish demakdir.

Madaniy oraliq ekin tanlanayotganda quyidagilarga e‘tibor berish tavsiya qilinadi:

- Oraliq ekin asosiy ekin (daraxt) bilan raqobatlashmasligi va doim ikkinchi o‘rinda turishi shart.
- Baland bo‘yli ekinlar oraliq ekin sifatida tanlanmasligi shart.
- Oraliq ekin ekilayotganda daraxt tanasidan kamida 120 sm masofa bo‘sh qolishi (toza turishi) shart.
- Daraxt uchun zarur tuproqdagi ozuqa va namlikni tortib oluvchi oraliq ekin turlaridan foydalanmaslik kerak.

- Ikki yoki undan ortiq ekin turi bir maydonga ekilganda zararkunanda hasharotlar va kasalliklar muammosi ko‘payadi.

- Oraliq ekin sifatida mevali daraxtlardan foydalanmaslik kerak yoki asosiy ekin hosilga kirganda olib tashlanishi shart. Aks holda asosiy ekin samaradorligi tushib ketadi.

Anorzorlar uchun tavsiya qilinishi mumkin bo‘lgan madaniy oraliq ekin turlari bu: qulpnay, pomidor, piyoz, gulkaram, loviya, bulg‘or qalampiri, rediska, qalampir va boshqalar.

2.6. Zararkunanda hasharotlar va kasalliklarni nazorat qilish

Anor daraxti va mevasida turli zararkunanda hasharot va kasalliklar (zamburug‘lar, bakterial kasalliklar) uchraydi.

Samarali dehqonchilik amaliyoti talablariga ko‘ra, zararkunanda hasharotlar va kasalliklarga qarshi kimyoviy vositalardan foydalanish faqatgina chora ko‘rish doirasida yoki zaruriyatga qarab qo‘llanilishi tavsiya qilinadi.

Keng qamrovli zararkunandalarga qarshi kurash chorasi zararkunanda hashorotlar va kasalliklarga qarshi kurashishning eng samarali unsuridir. Bu tizimni muvofiqlashtirilgan kurash chorasi deyish mumkin. IPM mukammal tizim bo‘lib, nafaqat zararkunandalarga qarshi kurashish balki atrof muhitni asrashga ham qaratilgan mukammal tizimdir.

Begona o‘tlarga qarshi kurashish

Begona o‘tlarni nazoratga olish yangi ekilgan anor ko‘chatlari rivojini jadallashtiradi va hosildorlikni oshirishga yordam beradi. Begona o‘tlarni nazoratga olish umumiy bog‘ boshqaruvining bir qismi hisoblanadi. Begona o‘tlar zararkunanda hashorotlar, kanalar, nematodlar va kasalliklar ko‘payishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Begona o‘tlar daraxt bilan ozuqa, suv va quyosh nuri uchun raqobatlashib uning rivoji va hosilini chegaralaydi. Bu raqobat daraxt rivojlanishining birinchi 5 yilida yoki ildizlari hali nimjonligida begona o‘tlarning ustunligi juda yuqori

bo‘ladi. Daraxt tanasi atrofidagi begona o‘tlar nafaqat uning rivojlanishi bilan raqobatlashadi, balki daraxt tanasini kemirib oziqlanuvchi kemiruvchilar uchun qulay sharoit yaratadi.

Qurigan begona o‘tlar yong‘in havfini tug‘diradi. Yuqori hosil va daraxt salomatligini saqlash uchun daraxt ostining kamida 1m masofasi begona o‘tlardan xoli bo‘lishi shart. Daraxt 4 yoshga to‘lib yaxshi o‘rnashib olgandan so‘ng uning osti soya bilan qoplangach begona o‘tlar raqobati bir muncha sustlashadi.

Begona o‘tlarni nazorat qilish daraxt ekilishidan oldin va keyin amalga oshiriladi. Har ikki holatda kimyoviy yoki biologik yoki har ikki usuldan foydalanib begona o‘tlarni nazorat qilish mumkin.

Biologik usul bilan begona o‘tlarni nazorat qilish

Sug‘oriladigan bog‘larda samarali natija beruvchi usul bu daraxt ekishdan oldin bog‘ni bir necha bor sug‘orib yangi rivojlanayotgan begona o‘tlarni urug‘lashidan oldin bir necha bor kultivatsiya qilib nobud qilish mumkin.

Qisqa muddat oralig‘ida rivojlanayotgan begona o‘tlarni kultivatsiya qilib nazoratga olib turish mumkin. Dastlab kamida ikki marta sug‘orish va kultivatsiya qilish so‘ngra yengil kultivatsiya qilish orqali begona o‘tlar rivojlanishi nazoratga olinadi.

Afsuski, ushbu usul ko‘p yillik begona o‘tlarni nazorat qilishda samara bermaydi. O‘rnashib ulgurgan ko‘p yillik begona o‘tlarni kultivatsiya qilish odatda ularni yanada ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Anorzorlardagi qatorlar ichidagi begona o‘tlarni mexanik nazoratga olish uchun maxsus o‘t kesuvchi pichoqlar va rotorli kultivatorlar mavjud. Qo‘lda boshqariladigan motorli o‘roqlardan ham foydalanish mumkni, lekin ular daraxt tanasiga zarar yetkazishi mumkin.(2.6.1-rasm) Qatorlar orasini esa maxsus o‘t o‘ruvchi moslamalar bilan osonlikcha o‘rib turish mumkin. Mexanik nazorat o‘tlar to‘liq o‘sib ulgurmasidan oldin qayta-qayta amalga oshirilib turilishi shart.

Bunday qurilmalar pichoqlari tuproq qatlamiga chuqur kirmasligi shart, aks holda daraxt ildizlariga ziyon yetishi mumkin. Begona o‘tlar katta bo‘lgan sari ular mexanik qurilmalarga tiqilib ular ishlashiga muammo tug‘diradi va urug‘laydi.

Mexanik qurilmalardan foydalanayotganda daraxtning asosiy oziqlantiruvchi ildizlariga shikast yetkazmaslikka harakat qiling.



2.6.1-rasm. Qo'l bilan boshqariladigan motorli o't o'ruvchi moslama.

Foydalanuvchi havfsizlik choralarini ko'rishni tavsiya qilinadi (qo'lqop, maxsus kiyim, ko'z oynak va hokazolar)

Qator ichidagi begona o'tlar yuqorida tilga olinganidek oraliq ekin yoki mulcha yordamida ham nazoratga olinishi mumkin. Organik mulcha turlari-boshqali ekinlar poyasi, o'rilgan o't, maydalangan o'tin, bodom qobig'i va boshqalardan mulcha sifatida foydalanish mumkin. Sintetik mulcha turlari-polietilin, polipropelin yoki poliestr bilan daraxt osti qoplanishi mumkin. Daraxt kesishdan hosil bo'lgan shox-shabballarni «shreder» dan o'tkazib maydalab ishlatish ham mumkin. Mulcha, doim hali o't o'sib chiqmasidan oldin to'shalishi shart.

Mulcha quyosh nurini to'sib yer yuzasiga yetib borishiga qarshilik qiladi va begona o't urug'lari soyada unib chiqmaydi. Mulcha namlikni bir maromda ushlab turishga yordam beradi va oqibatda yosh ko'chatlar yaxshi rivojlanadi. Shunday bo'lsada, mulcha kemiruvchilar (dala sichqoni, ilon va boshqalar) ko'payishi uchun qulay sharoit yaratishi ham mumkin. Begona o'tlar urug'lari mulcha bilan bog'ga kirib kelishi ham mumkin.

Mulcha ko'p yillik begona o'tlarga qarshi yaxshi himoya vazifasini o'tay olmaydi, quyosh nuri butunlay to'silishi uchun qalinroq to'shalishi shart. Bu maqsad uchun maxsus to'qilgan matolar mavjud, lekin bunday matolardan foydalanish bir muncha qimmatga tushadi.

Begona o'tlarga qarshi kimyoviy preparat yordamida kurashish

Gerbitsidlar. Agar belgilangan tartibda ishlatilsa, gerbitsidlar anorzorlarda aksariyat begona o'tlarni nazorat qilishga yordam beradi. Juda ko'p bog'larda gerbitsidlarni aralashtirib muntazam ravishda qo'llash iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaganligi qayd qilingan. Gerbitsiddan foydalanishdan oldin u qaysi turdagi begona o'tlarga qarshi va qanday qo'llanilishi hususidagi yo'riqnoma bilan yaxshilab tanishing.

Gerbitsiddan samarali foydalanish-begona o'tlarni rivojlanishini oldini olishda yordam beradi. Agar begona o't nazoratdan chiqib ketsa, gerbitsid yordam bermasligi mumkin. Bunda boshqa chora izlash kerak. Muammoni gerbitsid yo'riqnomasida belgilangan normadan oshirib qo'llanishi tavsiya qilinmaydi. gerbitsid texnik jihatdan soz qurilmada qo'llanishi tavsiya qilinadi, bu gerbitsiddan foydalanish harajatlarini minimumda ushlab turishga yordam beradi.

Organik anor yetishtirish

Organik qishloq xo'jaligi genetik o'zgartirishni oldini olishga, sintetik pestitsidlar, gerbitsidlar yoki ozuqalardan foydalanmagan holda tabiiy resurslarni va biologik xilma-xillikni asrashga yordam beradi. Organik meva yetishtirish tijorat maqsadida meva yetishtiruvchilar orasida jadal rivojlanib bormoqda. Zararkunanda hasharotlar va kasalliklar kam uchrashi sababli anor organik usulda yetishtirilishi mumkin.

Organik anor yetishtirishga xulosa qilishga shoshilmaslikni tavsiya qilamiz, chunki organik anor yetishtirish daraxtni ekish va hech qanday ishlov bermasdan mevasini terib sotish emas. Bunday usulda hosildorlik va meva sifati past bo'ladi. Shuni bilish kerakki, organik meva yetishtirish juda mashaqqatli mehnat va oddiy usulga nisbatan ko'proq qo'l mehnati talab qiladi.

2.7. Anor daraxtlariga shakl berish va ularni kesish

Anor daraxtlariga shakl berish. Tabiiy holda anor daraxtlari buta shaklda o'sadi. Ularga ikki usulda shakl berish mumkin: yakka yoki bir nechta asosli. Anor daraxtlari odatda bir nechta asosda o'stiriladi. Faqatgina qish iliq keluvchi hududlardagina ularni bitta asosda o'stirish mumkin.

Ikkinchi usulda, anor daraxtlari yerdan o'sib chiqqan 3-5 tagacha asosda shakllantiriladi. Tijorat maqsadida anor yetishtiruvchi davlatlarda anor daraxti yagona yoki bir nechta asosda shakllantirilishi xususida hamon munozaralar davom etmoqda. Kaliforniyaning San Jokin vodiysi, Isroil va Kiprdagi yangi tashkil qilingan bog'larda anor daraxtlari yagona asosda o'stiriladi. Dunyoning boshqa anor yetishtiruvchi davlatlarida anor daraxtlari bir nechta asosda o'stiriladi. Ba'zi mutaxassislar asos 3 tagacha bo'lishi kerak desa, boshqalari asos 6 tagacha bo'lishi mumkinligini ta'kidlashadi (2.7.1-rasm).


Barcha mutaxassislar asos shoxlar soni chegaralanishi tarafdori, chunki anor daraxtlarida asos shoxlar ko'p bo'lsa ular buta shaklida rivojlanadi va hosildorligi past bo'ladi (2.7.2-rasm).

Qattiq sovuq urib butunlay qurib qolish havfi bo'lmagan hududlarda istalgan odam anor daraxtlarini yakka asosda o'stirishi mumkin. Hatto, tijorat maqsadida tashkil qilingan bog'larda ham yakka asosda o'stiriladi. Qish sovuq keladigan hududlarda anor o'stirishning yagona yo'li bu ularni bir nechta asosda o'stirishdir. Har ikki usulga javob tariqasida ba'zi bog'bonlar anor daraxtlarini 3 ta asosda o'stirishni avfzal ko'rishadi.

Anor daraxtlari simbag'azga ham tortilishi mumkin ya'ni qator ichida ular zichroq ekiladi va simga tortib shakl beriladi. Bu tizimda 3 ta asosdan foydalaniladi. Bir asos chapga, ikkinchisi o'ngga va uchinchisi o'rtada shakllantiriladi. Bu tizim hali o'zini oqlashi kerak, chunki asos shoxlar ko'p bo'lmagani uchun hosildorlik yuqori bo'lmaydi.



2.7.1-rasm.Yagona asosli shakl tizimi



2.7.2-rasm.Bir nechta asosli shakl tizimi

Yagona asos tizimining afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklari

- Bog‘ tashkil bo‘lgandan so‘ng mehnat kuchi kam talab qilinadi, ikkinchi tizimda esa asoslardan o‘sib chiquvchi so‘ruvchi novdalarni doim tozalab turish talab yetiladi.
- Bog‘ yuzasiga ishlov berish juda qulay.

Kamchiliklari

- Qish sovuq keluvchi hududlarda bu tizimdan foydalanish tavsiya qilinmaydi, chunki agar daraxtni sovuq ursa uni butunlay almashtirishga to‘g‘ri keladi.
- Daraxtni shakllantirish va simbag‘az tizimini o‘rnatish uchun ko‘p mehnat talab qilinadi.

Bir nechta asosli tizimning afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklari

- Agar daraxtni sovuq uradigan bo‘lsa, qurib qolgan shoxini kesib saqlanib qolgan shoxlardan yangi asosni shakllantirish imkoni bor. Bu hosildorlikka katta zarar yetkazmaydi.
- *Euzophera sp. E.g.* kabi kemiruvchi zararkunanda hashoratlarga qarshi kurashish imkonini beradi. Ular sababli nobud bo‘lgan shoxni osonlikcha qayta tiklash imokni bo‘ladi.

- Qo‘shimcha murakkab simbag‘az tizimni talab qilmaydi.

Kamchiliklari

- Parvarishlash jarayoni juda murakkab butalash, dori sepish, ortiqcha novdalardan tozalab turish, meva terish va hokazo.

- Barcha asos yangi novda chiqarishga harakat qiladi, buta shaklidagi bunday yangi o‘shish o‘ziga shira bitlarini jalb qiladi.

Bugungi kunda kemiruvchi zararkunanda hashoratlarga qarshi samarali kimyoviy preparatlar yaratilgan. Afsuski bunday preparatlardan samarali foydalanish yagona asosli tizimda yaxshiroq natija beradi.

Yagona asosli tizim




Anorzorlarni yagona asosli intensiv tizimda tashkil qilish mumkin. Bunda oddiy mevali daraxtlarga o‘xshagan shakl hosil bo‘ladi, lekin buning uchun daraxt shoxlariga jo‘da ko‘p ishlov berish kerak. Yagona asosdagi daraxtni shakllantirish uchun ildizdan chiqqan bitta novda tanlab olinadi va uni boshqa daraxtlarga o‘xshab tarbiyalanadi. Asosning pastki qismini doim yangi o‘simtalardan tozalab turiladi (2.7.3-rasm)

2.7.3-rasm.Yagona asosli tizim


Bunday tizimni shakllantirishning eng keng tarqalgan usuli oddiy daraxtlarga o‘xshab tanlab olingan yakka asosni 60 smda kesiladi va 3-4 ta yon shoxlar bir xil masofada joylashtirib shakllantiriladi. Daraxtning balandligi 4 metrdan oshirilmay ushlab turiladi.

Simbag‘azda shakllantiriladigan yagona aososli tizim

Anorzorlarda simbag‘azdan foydalanish juda keng tarqalmagan bo‘lsada, oxirgi vaqtlarda “T” shaklidagi 2 simli va “V” shaklidagi 4 simli simbag‘az tizimi ommalashib bormoqda. Bunday tizimlar anor daraxti tanasi va yon asos shoxlariga ishlov berishda (butalash, dori sepish, meva siyraklashtirish va terib olish) juda ko‘p qulayliklar yaratadi. Bunday simbag‘az tizimlari olma va nok daraxtlarida samarali qo‘llanib kelinadi. “T” shaklidagi shakl 2mm qalinlikdagi ugolnikdan, “V” shaklidagi forma esa diametri 50mm li trubadan tayyorlanadi. Bu formalarning chizmalari quyida keltirilgan (2.7.4-rasm).



“T” shaklidagi 2 simli simbag‘az tizimi





“T” shaklidagi 2 simli simbag‘az tizimning bog‘dagi ko‘rinishi

“T” shaklidagi tizimning bog‘dagi Kiprda 6m x 3m masofada ekilgan va “T” simbag‘azga ko‘rinishi (daraxtlarni tutib turuvchi yon tortilgan anor daraxtlari simlar yerga qator boshi va oxirida mahkamlanib taranglashtirilgan bo‘ladi) (2.7.5-rasm)



2.7.4-rasm. “T” shaklidagi 2 simli simbag‘az tizimi



2.7.5-rasm. “V” shaklidagi 4 simli simbag‘az konstruksiyasi

“V” shaklidagi 4 simli simbag‘az

“V” tizimining sohadagi istiqbolli ko‘rinishi. “V” shaklidagi tizimlarning bog‘idagi koordinatsiyasi (daraxtlarni tutib turuvchi yon simlar yerga qator boshi va ohirida mahkamlanib taranglangan bo‘lishadi) 27.6-rasm))



**2.7.6-rasm.A) “V” shaklidagi
4 simli simbag‘az**



B) Bir nechta asosli tizim

**Kiprda 6m x 3m masofada
ekilgan va “V” simbag‘azga
tortilgan anor daraxtlari.**



**2.7.7-rasm. Anor daraxtining dastlabki
shakl berilmagan holati**

Anor daraxtlari birinchi yili umuman kesilmaydi, faqatgina tuvakda o‘stirilgan daraxt bundan mustasno. Birinchi yili kesilmasligiga sabab, yangi ekilgan ko‘chatlar kuzgacha rivojlanib mustahkam ildiz tizimiga ega bo‘ladi (2.7.7-rasm).

Ikkinchi yili, daraxtlar yaxshi o‘rnashib olgandan so‘ng ularni kesib shakl berish boshlanadi. Ikkinchi yilning boshida ya‘ni tinim davrida ular 10 smgacha qisqartirib kesiladi. Bundan maqsad daraxtni shoxlatishdir.

Ikkinchi yilning yozida 4-6 ta sog‘lom yangi o‘sib chiqqan shoxlar shakllanadi va ular daraxtning asosini tashkil qiladi. Agar bundan ko‘p shoxlar shakllansa ular muntazam ravishda kesib turiladi. Bu tanlangan asos shoxlar bilan raqobatda raqobatlashmasligi uchun qilinadi. Ushbu asos shoxlarning yerdan bir metrgacha bo‘lgan qismidan chiqqan barcha so‘ruvchi novdalar kesib tozalab turiladi.

Shu 4-6 ta asos shoxlarni asragan holda barcha boshqa ortiqcha o'simta (so'ruvchi) shoxlar mavsum davomida muntazam tozalab turiladi. Daraxt rivojlanishining dastlabki yillari so'ruvchi novdalar tozalab turilmasa, ko'p energiya talab qilishi tufayli asos shoxlar bilan raqobatlashadi va asos shoxlarni quritishi mumkin. Tanlangan 4-6ta asos shoxlar yaxshilab o'rnashib shakllanishiga bir necha yil talab qilinadi.

Butalash

Anor daraxtlarini butalash (kesish) vaqtida ularning meva berish fiziologiyasini doim e'tiborga olinishi shart. Anor daraxtlari yoshi katta (2-3 yosh yoki undan katta) va bir yoshli (shu mavsumdagi) novdalarda meva beradi. Eng ko'p va sifatli meva yoshi katta novdalarda hosil bo'ladi. Qisqa meva beruvchi spur kurtaklar asosan ikki yoki uch yoshli novdalarda shakllanadi va bunday spur kurtaklar novdaning tashqi yuzasida shakllanadi.

Anor daraxtlarini har yili butab turish kerak, ortiqcha va so'ruvchi novdalar kesib tozalanishi shart. Sifatli meva olish uchun anor daraxtlari qanday tizimda shakllantirilmasin (yagona yoki bir nechta asosda) butalab turilishi shart.

Anor daraxtlari hosildan so'ng qishda, tinim davrida butalanadi (kesiladi). Shimoliy yarimsharda bu davr tahminan dekabr-yanvar oylariga to'g'ri keladi. Daraxt kesishni boshlash vaqti nav, parvarishlash va bog'ning umumiy boshqaruv faoliyatlari vaqti bilan bog'liq.

Daraxtlarni kesish asosan qish oylariga ya'ni kurtak yorish davridan oldinga to'g'ri keladi, yoz oylari o'rtasida so'ruvchi novdalar kesib tozalanadi. Eng katta kesish ishlari daraxtga shakl berish va shu shaklni ushlab turish uchun amalga oshiriladi. Ortiqcha havo aylanishi va quyosh nuri kirishining oldini olish yoki shamolda mevalar bir-biriga ishqalanib zararlanishing oldini olish maqsadida anor daraxtlariga ochiq ko'za ko'rinishida, daraxtni va mevalarni tutib turish uchun yetarlicha yon shoxlarni qoldirib shakl beriladi. Daraxt balandligida imkon boricha narvondan foydalanishni minimallashtiradigan masofada (tahminan 3m) ushlab turish tavsiya qilinadi.

Qisqa meva beruvchi spur kurtaklar asosan ikki yoki uch yoshli novdalarda shakllanadi va bunday spur kurtaklar novdaning tashqi yuzasida shakllanadi. Spur kurtaklar vaqt o'tishi bilan bir necha yil meva beruvchi balog'atga yetgan novdalarni hosil qiladi, lekin daraxt katta bo'lgan sari ushbu balog'atga yetgan novdalarning hosildorligi tushib boradi. Shu sababdan har yili yengil butab borish spur kurtaklarning ko'payishiga olib keladi, daraxtlarni qattiq kesish esa hosildorlikni tushiradi.

Bir-biriga ishqalangan yoki ortiqcha shoxlarni kesayotganda meva beruvchi shoxlarni ko'p olib tashlamaslikka e'tibor tavsiya qilinadi. Shunday bo'lsada qattiq chigallangan meva beruvchi shoxlarni siyraklashtirish meva hajmini kattalashtirishga va ularning ishqalanib shikastlanishi oldini olishga yordam beradi. Asos shoxlarni ham ba'zida butalab eng kuchli va yaxshi shakllanganlarini qoldirish maslahat beriladi. Hosildorlikni yuqori va har mavsumda bir xil ushlab turish uchun 3-5 yoshli shoxlarni yangilariga almashtirish hamda vaqtida meva bermaydigan so'ruvchi novdalarni tozalab turish maqsadga muvofiq.

Yuqorida tilga olinganidek anor daraxtlari yoshi katta (2-3 yosh yoki undan katta) va bir yoshli (shu mavsumdagi) novdalarda meva beradi, lekin eng yaxshi meva yoshi katta shoxlarda hosil bo'ladi. Mevani yoshi katta shoxlarda shakllantirish uchun shoxlarni erta gullashdan oldin kesish kerak ya'ni ushbu mavsumda shakllangan novdaning yarmini kesib qisqartirish va gullashiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Yodingizda tuting, daraxtlarning yoshi katta bo'lib borgan sari gullariga qanchalik ko'p quyosh nuri tushsa va ular orasida havo aylansa meva sifati va hosildorlik shuncha yaxshi bo'ladi. Demak yoshi katta 5-6 ta shoxni butayotganda ular orasini oching va bir-biriga ishqalangan shoxlarni (novdalarni) kesib tozalang (2.7.8-rasm) Mevaning asosiy qismi daraxtning tashqi yuzasida, yoshi katta shoxlarda shakllangan yosh spur kurtaklarda hosil bo'ladi. Shu sababdan juda ko'p shox kesib tashlamaslikka harakat qiling, oqibatda hosildorlik tushib ketadi.

Quyosh nuri meva hosil bo'lishida va sifatida juda muhim o'rin tutadi. Yozgi butalash, so'ruvchi va ortiqcha novdalarni kesib tozalab turish quyosh nuridan unumli foydalanishga yordam beradi.


Juda ko'p bog'bonlar meva terish jarayonini optimallashtirish uchun daraxtlarini 3-4 metrda kesib, balandligini nazorat qilib turishadi. Anor yetishtirishdagi katta muammolardan biri bu yosh novdalarni birinchi yilidayoq meva og'irligi evaziga egilib o'z shaklini yo'qotishi va vaqt o'tishi bilan egilgan shoxlardagi mevalarning yerga tegib qolishi. Buning oldini olish uchun shoxlar simbag'azga tortiladi yoki kesib qisqartiriladi. Shu sababdan ayniqsa hosildorligi yuqori yosh novdalarni simbag'azga tortish muhim ahamiyatga ega (2.7.9-rasm)



2.7.8-rasm. Butalash



2.7.9-rasm. A) Butashdan oldin



B) Butashdan keyin

Yoshi katta daraxtlarni kesib yoshartirish

Daraxtlarni kesib ularning bo'yini pasaytirish hosildorlikka deyarli katta salbiy ta'sir yetkazmaydi, aksincha meva terish, zararakunanda hasharot va kasalliklarga qarshi dori sepish jarayonlarini osonlashtiradi.


Daraxtlar yoshi katta bo'lib hosildorlik tushib borsa (20-25 yosh) asosiy tanani yergacha kesib qisqartirish maqsadga muvofiq. Buning uchun yangi chiqqan novdalardan asosiy novda tanlanadi va daraxtni butalash asosida qayta shakl beriladi. Shu yo'l bilan daraxtni yoshartirish mumkin. Hosildorlikni batamom yo'qotmaslik uchun asos shoxni har yili asta sekinlik bilan qisman kesib borilishi ham mumkin va bu vaqt davomida yangi novdani shakllantirib, mevaga kirib olgandan so'ng eskisini batamom kesib tashlash mumkin.

Afsuski bunday amaliyot yagona asosli tizimda samarali natija bermaydi. Bunday tizimda daraxtni butunlay kesib tashlash va o'rniga yangisini ekib shakllantirish maqsadga muvofiq.

Kesish qurollari va usullari

Daraxt kesilayotganda uning qanchalik to'g'ri bajarilganligi daraxt sog'ligi uchun juda muhim. Butalanayotgan shoxlar daraxt tanasiga juda yaqin yoki uzoqda (butoq qoldirib) kesilmasligi shart. Qalin shoxlar ham ehtiyotkorlik bilan muammo tug'dirmaydigan holda kesilishi shart. Buning oldini olish uchun katta shoxlar 3 ta joyidan rasmda ko'rsatilgan tartibda kesilishi tavsiya qilinadi.

Diametri kichik bo'lgan shoxlarni kesish ham quyida 2.7.10-rasmda ko'rsatilgan.



2.7.10-rasm.Kesish qurollari va usullari



2.7.11-rasm. Ishlatishdan oldin daraxt kesish qurollari toza suvda yuvilishi shart

O‘z ishini yaxshi bajarishi uchun kesish qurollarini ishlatilgandan so‘ng charxlating, tozalang, quriting va yog‘lang. Daraxt kesish qurollari virus kasalliklarni tarqatmaslik uchun xlorli suvda sterillanishi (1qismi xlor otbelivatel va 4 qismi suv, 1% li natriy hypochlorite) tavsiya qilinadi.

Ishlatishdan oldin daraxt kesish qurollari toza suvda yuvilishi shart (2.7.11-rasm).

Keskin iqlim sharoiti zarari oldini olishga yordam beruvchi chora tadbirlar (qishda sovuq urishi, yozda quyoshdan kuyish).

2.8. Keskin harorat sharoitlariga moslashish

Anor daraxtini o‘stirish uchun qulay iqlim sharoiti bu O‘rta Yer dengizi iqlimi kabi sharoitlardir. Bunday qulay iqlim sharoitiga quyosh nuri ko‘p tushadigan, 11⁰ darajadan past bo‘lmagan harorat, iliq qish va meva rivojlanishining so‘ngi bosqichida yomg‘irsiz quruq issiq yoz ob-havo sharoitlari kiradi. Shunday qulay sharoitlarda, meva juda yaxshi hajm, rang va shira oladi. Bu esa o‘z navbatida meva yorilishi bilan bog‘liq muammolarni kamaytiradi. Bugungi kunda anor butun dunyo

bo'yicha turli xildagi mikroiklim zonalarning harorati o'rta me'yordagi, subtropik va tropik hududlarida yetishtiriladi.

Anor daraxti past haroratli qish bo'ladigan hududlarda barg to'kadi va tropik, subtropik sharoitlarda doimiy yashil bo'ladi yoki qisman barg to'kadi. Meva rivojlanishi va pishish davrida daraxt issiq va quruq iqlim sharoitini talab qiladi. Daraxt tinim davrida ma'lum bir darajada sovuqqa chidamli, ammo -11°C dan past bo'lgan haroratda zararlanadi.

Anor daraxtini -9°C dan -12°C gacha bo'lgan sovuq haroratga chidamliligi qayd etilgan. Shunday bo'lsada, ularga yaxshi rivojlanishi uchun uzoq issiq iqlim sharoit kerak bo'ladi. Agar harorat -20°C dan pastga tushsa, anor daraxtlarining butun tanasi yer yuzasiga muzlab quriydi.

Vegetativ o'sish davri yetarlicha uzun, ammo harorat -15°C dan pastga tushishi mumkin bo'lgan sharoitlarda yaxshi hosil olish uchun anor daraxti sovuqdan himoyalash maqsadga muvofiq. Bahorgi sovuqlar gullash uchun muammo tug'dirmaydi chunki anor kech gullaydigan o'simlikdir, ammo hosil yig'ishdan oldingi kuzgi sovuqlar daraxt uchun havfli bo'lishi mumkin. Meva yaxshi pishishi uchun issiq yoz va uzun, quruq va iliq kuz talab qilinadi.

Hayotiy vaziyatlar shuni ta'kidlaydiki, qattiq urug'li navlar yumshoq urug'lilariga nisbatan sovuqqa chidamliroq bo'ladi. Anor navlarining ko'pchiligi daraxtlar uchun talab qilinuvchi sovuq harorat soatlarini talab qilmaydi ba'zi sovuqqa chidamli navlar bundan istisno. Natijada, daraxt yog'ochi doimiy zararlanishga moyil bo'ladi. Garchi daraxtlar uchun sovuq harorat soatlari talab qilinsada, barcha anor navlari tinim davridan naf olishadi.

Daraxtning qish oylarida sovuqqa chidamliligi yuqori bo'ladi. Kuzda to'liq uyquga kirishidan oldin va bahorda kurtak yorish davrida daraxtning sovuqdan aziyat chekish ehtimoli ortadi. Shu davrlar mobaynida daraxt po'stlog'i sovuqdan zararlanishga juda moyil bo'ladi va birinchi bo'lib daraxtning janubiy tomonidan yerga yaqin qismida sovuqdan zararlanish sodir bo'ladi. Agar sovuqdan zararlanish ehtimoli bo'lsa, kun va tun orasidagi keskin harorat o'zgarishlarini kamaytirish

uchun daraxt po'stlog'ini vodoemulsiya bo'yog'i bilan bo'yash muammoga yechim bo'lishi mumkin.

Anor daraxtlari issiqqa juda chidamlidir va bir yilda kamida 120 kun davomida 30⁰C harorat bo'lgan sharoitda juda yaxshi rivojlanadi. Daraxtlar qurg'oqchilikka ham chidamlidir. Shunday bo'lsada, daraxtni rivojlantirish davrida yetarlicha sug'orish talab qilinadi va bu tijorat maqsadida meva yetishtirayotgan bog'larda juda katta ahamiyatga ega. Qurg'oqchilik uzoq davom yetgan davrda yetarlicha sug'orilmasa hosil yo'qotiladi (to'kiladi).

Anor daraxtlarini sovuqdan himoyalovchi usullar

Anor daraxtlarini sovuqdan himoyalovchi asosiy usullar quyidagilar:

- Sug'orish tizimidan foydalanib sovuq havoni nazorat qilish.
- Bog' isitgichlaridan foydalanib sovuq havoni nazorat qilish.
- Shamol hosil qiluvchi qurilmalar.
- Isitgich va shamol hosil qiluvchi qurilmalar qo'shilmasi orqali nazorat qilish.

Sug'orish tizimidan foydalanib sovuqni nazorat qilish

Sovuqning tabiati shundaki, uning eng katta zarari sovuq havo yerdagi massaga (yoki bog' orasi oraliq ekin bilan qoplangan bo'lsa, shu o'simlik ustiga) tekkanda sodir bo'ladi. Agar harorat muzlash darajasidan pastga tushsa, o'simlik tanasidagi suyuqlik muzlaydi va bu ichki shikastlanishga olib keladi. Sovuqdan zararlanganda, barg chetlari kuyadi (quriydi), mevada chandiqlar yuzaga keladi, novda uchlari kuyib asta sekinlik bilan novdaning to'liq kuyishiga sabab bo'ladi. Yangi ekilgan daraxtlarda, sovuq harorat daraxt tanasi atrofidagi halqadagi to'qimlarni shu darajada yomon kuydiradiki, bu o'z navbatida daraxt po'stlog'ini tanadan shilib nobud qiladi.

Nazorat qilish mumkin bo'lgan sug'orish tizimidan foydalanish oraqali, suv harorati tabiatan nol daraja selsiydan yuqoridir, daraxtlar atrofidagi haroratni muzlash darajadan yuqorida saqlanishi mumkin bo'ladi. Asosiy muammo shundaki, sug'orish jarayoni quvurlardagi suv muzlaguncha amalga oshirilishi kerak. Buni oldini olish uchun sug'orish tizimi harorti +3 daraja bo'lganda (quvurlar

muzlashidan oldin) ishga tushiriladi va harorat +5 darajaga ko'talilguncha ishlab turadi so'ngra o'chiriladi.

Bog' isitgichlaridan foydalanib sovuqni nazorat qilish

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bog' oralab ko'p miqdorda kichik olovlarni yondirish bog'ning turli qismlarida yondirilgan bir necha katta olovlardan ko'ra yaxshiroq himoya vositasi bo'la oladi. Qanchalik himoya bera olishidan kelib chiqib, quyida isitgichlarning avfzalliklari va kamchiliklari keltirilgan:

Ularning avfzalliklari:

- Havfsiz haroratni ta'minlash uchun faqatgina kerakli miqdorda isitgichlar yoqilishi kifoya.

- Dalada kutilmagan holatlar uchun qo'shimcha isitgichlar va yoqilg'i saqlanilishi mumkin.

- Isitgichlar issiqlikni bog' bo'ylab bir tekisdan taqsimlashga yordam beradi.

Ularning kamchiliklari:

- Ko'p tutun chiqaradi, lekin ba'zi turlari to'g'ri ishlatilganda kam tutun chiqaradi.

- Ularni o'rnatish va boshqarish katta sarmoya talab qiladi.

- Daraxt ostidagi quruq barglar tufayli yong'in chiqish xatari mavjudligi.

- Ishlatish va ta'mirlash uchun ko'p mehnat talab qilinadi.

- Ko'p ishchi kuchi talab qiladi.

Shamol hosil qiluvchi qurilmalar

Ba'zi joylarda shamol hosil qiluvchi qurilmalar yaxshi himoya vazifasini o'taydi. Ularning ta'siri shundaki, katta ventilyator bog' oralab va usti bo'ylab havoni aralashtiradi natijada Yer yuzasiga yaqin masofadagi o'rtacha harorat ko'tariladi.

Ularning avfzalliklari:

- Bog' isitgichlariga qaraganda iqtisodiy tomonlama avfzalroq.

- Boshqarish uchun kam mehnat talab qilinadi.

- Ma'lum bir tanlangan hududni sovuqdan himoyalash uchun yetarlicha himoya vositasi vazifasini o'tay oladi.

- Bog‘ oralab havo aylanmaydigan joylarda havo harakatini yaxshilaydi.
- Isitgichlar samarasini oshiradi.

Ularning noafzalliklari quyidagicha:

- Juda qattiq sovuq sharoitlarida himoya etarli darajada bo‘lmasligi mumkin.
- Daraxtzorlar oralab himoya notekis bo‘lishi mumkin.
- Yosh ko‘chatlarda samarasi kam.
- Ularni o‘rnatish va boshqarish katta sarmoya talab qiladi.

Isitgich va shamol hosil qiluvchi qurilmalar qo‘shilmasi orqali sovuq havoni nazorat qilish

Samarali o‘rnatilgan shamol hosil qiluvchi qurilmalar bilan ishlatilganda odatda gektarga 8 dan 25 tagacha isitgichlar bog‘ bo‘ylab bir tekis taqsimlanadi. Bu qo‘shilma bog‘ning sovuqroq joylarni ham yetarlicha himoyalash imkonini beradi. Shamol hosil qiluvchi qurilmalar bog‘larni kechalari o‘zi himoyalash imkoniga ega, lekin juda sovuq qattiq bo‘lgan vaqtda qo‘shimcha yordam sifatida isitgichlar qo‘shish issiqlik berib himoyani yanada oshirish imonini beradi. Odatda shamol hosil qiluvchi qurilmalar xatarni bartaraf qila olmaydigan holarda (harorat o‘ta sovuq bo‘lgan vaqtda) isitgichlardan foydalaniladi.

Yosh daraxtlarni himoyalash

Yangi ekilgan daraxtlarni himoya qilishda birinchi e‘tiborga olish kerak bo‘lgan omil bu imkon darajasida katta daraxtlarni ekishdir. Ekish va ularni kesish bahorda bajarilishi lozim. Shunda daraxtlar qishning past haroratiga duch kelmasdan oldin yoz va kuz oylarida yetarlicha o‘sish imkoniga ega bo‘ladi. Sovuq joylarda, yosh daraxtlar bir necha xil himoya vositasini talab qilishi mumkin. Ular qog‘oz bilan yoki jo‘xori poyalari bilan o‘ralishi mumkin.

Sovuqdan zararlangan daraxtlarni parvarishlash

Sovuq zarari miqdorini aniqlash odatda mushkul va sovuq o‘tgandan so‘ng bir necha oy davomida aniq aytib bo‘lmasligi mumkin. Odatda daraxtni rivojlanish holatini kuzatgan ma’qul.

Sovuqdan zararlangan daraxtlarni quyoshdan kuyishini oldini olish

Quyosh nuri ko'p tushadigan shoxlar quyosh kuyishidan qattiq zararlanishi mumkin. Sovuqdan zararlangan daraxtlar o'z shoxlarini himoyalashi uchun etarilicha barg chiqarmasidan oldin issiq havo oqimi keladigan bo'lsa, quyosh nuridan kuyishni oldini olish tavsiya beriladi. Bunday holda, yetarlicha himoyalangan shox va novdalarni oq bo'yoq yoki ohak qorishmasi bilan bo'yashdir. Quyida ohak qorishmasi formulasi keltirilgan: 378 litr suvga 18.5 kg suyultirilgan ohak va 1.5 kg ruh sulfati qo'shib arashtiriladi.

Sovuq urgan daraxtlarni sug'orish

Sovuq urgan daraxtlarni ildiz qismidagi tuproq namlik kamaymaguncha sug'ormaslik maqsadga muvofiq. Sovuq urish ta'sirida bargsizlashgan daraxtlar kam suv istemol qiladi va zararlanmagan daraxtlar joylashgan tuproqqa nisbatan bunday daraxtlar atrofidagi tuproqlar uzoqroq muddat nam bo'lib turadi. Tuproqni sinchkovlik bilan tez-tez tekshirib turish, keragidan ortiqcha sug'orishni oldini olishda juda ahamiyatlidir.

Sovuq urgan daraxtlarni oziqlantirish

Sovuqdan zararlangan daraxtlarni oziqlantirish ehtiyotkorlik bilan e'tiborga olinishi kerak. Sovuq urgan daraxtlarni jonlantirish uchun maxsus ozuqalardan foydalanish yaxshi natija berishi hali to'liq asoslanmagan. Agar daraxtlarning katta shoxlari sovuqdan zararlangan bo'lsa yoki hattoki daraxt tanasini qismlari nobud bo'lgan bo'lsa, azotli o'g'itlardan foydalanishni kamaytirish lozim, toki daraxt yaxshi rivojlanib o'z muvozanatini qaytadan tiklab olmaguncha. Bunday holatlarda rux, marganes, mis va temir moddalarining yetishmaslik alomatlari yuzaga keladi. Ushbu mikroelementlar yetishmovchiligining alomatlari kuzatilsa daraxtlar bargdan oziqlantirilib (suspensiya) yetishmayotgan mikro elementlar o'rnini to'ldirilishi tavsiya qilinadi. Birinchi yili ikki yoki undan ortiq oziqdan oziqlantirish talab qilinishi mumkin.

Sovuqdan zarar ko'rgan daraxtlarni butalash

Daraxtni qancha qismi nobud bo'lganini bilmaguncha uni butamaslik kerak. Daraxtning tirik qolgan qismidan barglar o'sib chiqishi sust bo'ladi va daraxt butalanmasa yaxshi tiklanadi.

Qachonki yangi shohlar kamida ikki yoki uch fut (60-90sm) uzunlikda rivojlangandan so'ng, o'lik (qurib qolgan) shohlarni olib tashlash mumkin. Bu odatda yoz o'rtasiga to'g'ri kelishi mumkin, daraxtni sovuq urgandan 6-8 oy o'tib. Ayni bir vaqtda yo'qotilgan shoxlar o'rnini to'ldirish uchun yangi o'sgan so'ruvchi novdalar siyraklanishi lozim. Qalinligi katta (7.5sm diametrdagi) shoxlar kesilganda qurish yoki infeksiyalar tushishini oldini olish uchun emulsiya yoki boshqa himoyalovchi bo'yoqlab kesilgan joylar qoplanishi tavsiya qilinadi.

Sovuq urgan yosh daraxtlarni parvarishlash.

Juda yomon sovuq urgan daraxtlar ildizidan odatda kuchli so'ruvchi novdalar shakllanadi, yangi ko'chat ekish o'rniga shu yangi o'sgan novdalardan daraxt qaytatdan shakllantirilishi mumkin. Agar so'ruvchi novda nimjon bo'lsa, daraxt ildizi bilan qo'porilib, o'rniga yangisi ekilishi tavsiya qilinadi.

Juda qattiq sovuq urgan katta daraxtlarni parvarishlash

Asos shoxlaridan to tanasigacha yoki to yergacha butun tanasini qattiq sovuq urgan yoshi katta daraxtlarni parvarishlashda ko'plab muammolarga duch kelinadi. Bunday holatdagi har bir daraxtga alohida e'tibor berish kerak.

Shunday vaziyatlar bo'ladiki, butun bir daraxt noodatiy qattiq sovuqdan nobud bo'ladi. Agar bunday holat kuzatilsa, nobud bo'lgan daraxt tanasini olib tashlash va keyingi yil ildizidan chiqqan bir nechta yangi novdalardan 5-6 tasini tanlab uning o'rnini to'ldirish maqsadga muvofiq.

Mo'tadil hududda anor daraxti birinchi bir necha yillik hayoti davrida qish oylari sovuqdan nobud bo'lishi mumkin. Anor daraxti agar nobud bo'lsa, yer ostidagi (xylopodium) qismidan yana qayta ko'karish hususiyatiga ega. Anor daraxtining yer osti qismi (xylopodium) bu ildizning boshlanish qismi va daraxt tanasining asosi oralig'idagi joy ya'ni ildiz bo'g'zidir.

Anorning barcha navlari uchun xos bir hususiyat bor, yosh ko‘chat yoshi katta daraxtlarga nisbatan sovuqqa ko‘proq nimjon bo‘ladi. Agar birinchi yoki ikkinchi yili daraxtlarni sovuq ursa, vaqt o‘tishi bilan ularning sovuqqa chidamliligi ortib boradi, 5-6 ta asosli tizimning avfzalligi shundaki, agar yoshi katta daraxtni qattiq sovuq (erta yoki kech ayoz) ursa, odatda faqat bir yok ikkita asosiy shox qattiq shikastlansada, qolgan asosiy shoxlardan shu yili meva olish imkoniyati bo‘ladi. Bunda nobud bo‘lgan daraxt tanasini olib tashlash maqsadga muvofiq. Uning o‘rnidan chiqqan bir yoki ikki novda bilan ularning o‘rnini to‘ldiradi va qisqa vaqt ichida daraxt yana asl holatiga qaytadi.

Bir asosli tizimda esa, agar daraxt nobud bo‘lsa, o‘sha yilning o‘zida uning o‘rnini to‘ldirish uchun boshqa asos shox bo‘lmaydi. Shu sababdan tijorat maqsadida anor yetishtiruvchilar orasida anor daraxti bir asosda yoki ko‘p asosda buta shaklida o‘stirilish kerakmi yoki yo‘qmi degan munozara hukm suradi.

Bir asosli tizim daraxtni butunlay nobud qiluvchi qattiq sovuq bo‘lmaydigan hududlarda tijorat maqsadida yoki yakka tartibda bog‘ yaratuvchilar uchun qulay tizim bo‘ladi. Salqinroq qishli xududlarda bir nechta asosli tizim anor daraxtlarini o‘stirish va meva olish uchun yagona imkoniyatdir.

2.9. Meva sifatining buzilishi. Meva yorilishi

Belgilari: Meva yorilishi bu anor mevasi uchun jiddiy muammoli holatdir. Bu fiziologik buzilish yosh mevalarda bor yetishmasligi sababli uchraydi va to‘liq rivojlangan mevalarda esa asosan namlik disbalansi hisobiga yuzaga keladi. (Quyidagi 2.9.1-rasmlarga qarang.)



2.9.1-rasm.Meva yorilishi

Nazorat qilish

• “Wonderful” yorilishga chidamli nav isoblanadi, “Mollar” esa yorilishga moyil nav.

- O‘z vaqtida hosilni yig‘ib olish;
- Bir necha marta hosilni yig‘ib olish;
- Muntazam sug‘orish;
- Mevada quyosh kuyishini oldini olish (quyoshdan himoyalash);
- O‘simliklarni oziqlantirishda muvozanatni saqlash (keragidan ortiq azotli o‘g‘itlar bilan oziqlantirish);
- Daraxtni qattiq butamaslik (kesmaslik maqsadga muvofiq);
- Hosildan oldin GA₃ preparati bilan ishlov berish va boshqalar.

Quyoshdan kuyish -Quyosh nuridan zararlanish

Belgilari

Juda ko‘p quyoshda turish quyoshdan kuyishga, zangli dog‘lar va meva qobig‘ining qattiqlashishiga sabab bo‘ladi. Quyoshga qaragan meva qobig‘i kuni bilan me‘yordan ortiq yorug‘lik olgani sababli kuyadi. (2.9.2-rasm) Kuygan qismi to‘liq qorayadi va sekin shu joyidan yoriladi.



2.9.2-rasm.Quyoshdan kuyish

Nazorat qilish

Quyoshdan kuyishni oldini olish uchun, quyosh nuri ko‘p tushuvchi mevalar qog‘oz bilan o‘raladi. (2.9.3- rasmga qarang.)



2.9.3-rasm.Qog‘ozdan foydalanib quyoshdan saqlanish

Kemiruvchilar zarari

Belgilari

Kemiruvchilar daraxt po‘stlog‘i va ildizini kemiradi va po‘stlog‘ini archadi, odatda bu daraxt tanasini aylanasiga halqalanishiga (emirilishi) olib keladi. Bu o‘z navbatida daraxt sog‘ligiga sa‘lbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari daraxtlarimiz kemirilish yoki fitoftora ildiz bo‘g‘zi chirishi kabi kasallik sababli nobud bo‘ladi. Kemiruvchilar meva po‘stlog‘ini shilish va uning ichki qismini yeyish orqali unga zarar yetkazadi.

Nazorat qilish

Dala (bog‘) kemiruvchilarini bir nechta tabiiy dushmanlari bor qirg‘iy, burgut, qarqunoq, ilonlar, bo‘rsiqlar va skunslar kabi. Bu yirtqichlarni imkon boricha asrash va dala atrofida ko‘paytirishga harakat qilish maqsadga muvofiq. (2.9.4-rasm). Agar boshqa nazorat usullari talab qilinsa, mis fosfidi bilan zaharli ho‘rakni qo‘l yoki maxsus uskuna yordamida bog‘ ichida qo‘llash.



2.9.4-rasm.Daraxt tanasi va mevadagi kemiruvchilar zarari

Belgilari

Qushlar asosan mevalarga zarar yetkazadi. Tumshug‘i meva qobig‘iga oson kiradi va shirin mag‘zini iz qoldirmasdan paqqos tushiradi (2.9.10-rasm)

Nazorat

Qushlarni nazorat qilish qiyin. Ularni otish noqonuniy, qopqon qo‘ya olmaysiz, bog‘da anor daraxtlari ustidan to‘r o‘tkazish yordam bermaydi.

Turli xil manbalarga ko‘ra bog‘ ichiga yaltiroq buyumlar osilishi qushlarni qochiradi. (2.9.11-rasm.)



2.9.10-rasm.Chumchuq (qushlar) zarari



2.9.11-rasm.Mevada chumchuq zarari

Anorni oziqlantirish va o‘g‘itlash uchun umumiy tavsiyalar:

Yuqorida ko‘rsatilgan mamlakatlarda qo‘llaniladigan o‘g‘itlash amaliyotlariga va adabiyotda ma‘lumotlarga ko‘ra anorni o‘g‘itlash uchun quyidagi tavsiyalarni hisobga olish kerak:

- Anor daraxtlari ozuqaviy dastur bo‘yicha sitrus daraxtlari kabi ishlov berish mumkin.

- O'g'itlash tuproqqa va eng muhimi, yaproqlar tahliliga asoslangan bo'lishi kerak.
- Yaproq namunalarini olish va tahlil qilish o'g'itlash foydali vositadir.
- Mevali samarali boshqarishning eng yaxshi ko'rsatkichi optimal diapazonlarda bargli ozuqaviy kontsentratsiyaga ega
 - Azot-bu anorlarning o'sishi va samaradorligi uchun zarur bo'lgan eng muhim element.
 - Vegetativ o'sishi, gullashi va meva olish uchun etarli miqdorda N talab qilinadi.
 - Daraxtlarga yosh paytda ortiqcha azotli o'g'itlash mevali bosqichiga kirishni kechiktirishi va o'simliklar qishki sovuqlarga ko'proq ta'sirchan qilishi mumkin.
 - N daraxtlaridagi-N ning ortiqcha yoki kech ilovalari haddan tashqari vegetativ o'sishga, meva va sifatni pasaytirishga, meva yetishguncha va rangni kechiktirishga olib kelishi mumkin.
 - Avgustdan keyin o'g'itlamaslik kerak chunki bu yil oxiriga kelib, yangi o'sishni keltirib chiqarishi mumkin.
 - Kaliy va fosfor o'g'itlash hosildorlikka yordam beradi
 - N va K mevali daraxtlar jumladan anor daraxtlari uchun eng muhim oziq moddalardir.
 - K- hosil va meva hajmi hamda sifatini aniqlashda ham muhim rol o'ynaydi.
 - 1: 1 N dan K_2O nisbatiga o'tish. Biroq, pH yuqori va og'ir daraxtlar uchun 1: 1.25 nisbati tavsiya yetiladi.
 - Fosfor va kaliyni faqat tuproq holatlarida yoki barglar tahlilida yetishmovchilikni ko'rsatgan holda qo'llash kerak.

Yillar mobaynida tashkil qilingan bog'larda qo'llaniladigan P dan tuproqqa singmagan, lekin tuproqda yuqori darajada to'plangan va asta-sekin mavjud bo'lgan. P tuproqning pH qiymati 6 yoki undan yuqori bo'lgan joyga osonlikcha o'zlashtira olmaydi va meva mahsuli juda oz miqdorda olinadi. Shuning uchun muntazam P bilan o'g'itlash zarur emas. Fosfor va tuproq holatlarida yoki barglar tahlilida P yetishmasligi ko'rsatilganda qo'llanilishi kerak. Daraxtning ozuqaviy

ehtiyojlarining 2/3 dan 3/4 qismigacha kechqurun kuzdan kechgacha bahorda, gullash davrida va mevalash davrida juda ko'p joylarda foydalanish mumkin.

Zn ahamiyati va mikroelementlar bilan yaproqdan oziqlantirish samaradorligi

N tashqari, Zn anor daraxtlari uchun eng ko'p cheklangan mikro oziqaviy moddalar. Anorda topilgan kamchiliklardan biri Zn dir bunda barglar noodatiy sarg'ayib ko'rinadi. Bu mavsumda yoki bahorda va yozning boshlarida barglari Zn qo'llanilishi yordamida tuzatiladi.

Meva to'plamidan keyin bahorda Zn qo'llanilishi tavsiya yetiladi. Zn, Mn, B va Cu barglar orqali sepilishi tuproqdan foydalanishga nisbatan ko'proq foydali, tejamkor va oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishning tezroq usuli hisoblanadi.

Fe yetishmovchiligini tuzatish

Tarkibida Fe moddasi bo'lgan o'g'itlar aralashmasi yuqori samara bermaydi. Bunda tavsiya yetiladi: Fe-EDDHA (etilendiamin-di-2-gidroksifenil asetata jeleza) pH oralig'ida 4 dan 9,0 gacha samarali foydali ishlov berish samarasizligi, barg va meva kuyishi xavfi tufayli mevali daraxtlar uchun barg orqali qo'llanilishi tavsiya etilmaydi. Tarkibida Fe bo'lgan organik birikmalarning tuproqdan qo'llanilishi mevali daraxtlarga Fe ni yetkazib berishning eng ishonchli strategiyasidir.

Fertigatsiyalash (sug'orish tizimi orqali oziqlantirish) yoki Fertirrigatsiya yoki Nutrigasialash yoki Fertifikatsiyalashni afzalliklari:

Ko'p mamlakatlarda keng tarqalgan amaliyot sug'orish tizimi orqali oziqlarni yetkazib berishdir.


Zamonaviy sug'orish tizimlari (mini-sprinkler va tomchilatgichlar) orqali ozuqa moddalarini qo'llash fertigatsiya yoki fertirrigatsiya yoki nutrigaesiya deb ataladi.

Suyuq suvba eruvchan o'g'itlar qo'shilishi suv va o'simliklarning ozuqaviy moddalarini qo'llash bilan integrasiyalashuv va moslashtirishga yordam beradi.

Fertifikatsiyani qo'llash ildiz atrofiga o'simliklarning talablarini qondirish uchun turli xil o'sish bosqichlarida etarli miqdorda oziq moddalari va suv bilan ta'minlanishi mumkin.

Ko'p o'simlik ozuqa moddasi sug'orish tizimlari orqali eruvchan turdagi o'g'itlar, masalan, ammiakli selitra, kaliy nitrat va monoammoniy fosfat (MA P) va boshqalar.

Fertigatsiya ishlatiladigan purkagichning ko'p turlari mavjud. Eng keng tarqalgan va qulay turi bu Venturi turi hisoblanadi (2.9.12-rasm)



2.9.12-rasm. Venturi o'g'itlash purkagich uskunasi.

O'g'itlash purkagich uskunasi: Venturi o'g'itlash injektori (purkagich)ining ishlash ta'moyillari tuproqni sug'orish tizimining xavfsiz va samarasiz ishlashini ta'minlash uchun quyidagi talablar e'tiborga olinishi kerak:

- Tizim yopilganda o'g'itlarni quduqqa yoki suv manbalariga suv orqali orqaga harakatlanishini oldini olish apparati bilan ta'minlash kerak;

- Tizim ishlayotganda, sug'orish tarmoqlariga suyultirilgan Eritmaning oqishi yoki so'rilishiga yo'l qo'ymaslik uchun tizimga qarshi sifon uskunalari ham ta'minlanishi kerak;

- Bu so'rib olish klapanlari qo'l bilan yopish orqali almashtirish mumkin;

- Sug'orish tizimi yuqori darajadagi bir xillikni saqlab turishi kerak, shuning uchun daraxtzorning barcha qismlarida bir xil miqdordagi suv va o'g'it yetkazib berilishi kerak.

- Bu bir xillik to'g'ri dizayni, to'g'ri o'rnatilishi va eng muhimi, to'g'ri va muntazam profilaktika va muntazam parvarishlash orqali amalga oshiriladi.

- Misol uchun, tizimning bir xilligi noto'g'ri bosim regulyatori yoki tomchilatgichlar tomonidan kamayishi mumkin;

- Bir xillikni daraxtlar ichidagi turli tomchilatgichlardan yoki maydayomg'irlatgichlardan oqishni o'lchash yo'li bilan muntazam ravishda tekshirish kerak;

- Kislota suvga qo'shiladi va teskarisi emas. Suvni kislotalarga to'kish xavflidir, chunki u ko'p irib ketadi;

- Fertigatsiya tizimini ishlatishdan oldin, sug'orish tarmog'i to'liq bosimli bo'lishi kerak;

Yirtqich kuyalar tekis kuyalarni zarar yetkazishidan biroz himoyalaydi, ammo ko'pchilik bog'bonlar erta bahorda oltingugurt tarkibli preparatlarni qo'llaydilar. Shunday bo'lsada yuqorida keltirilgan usul tekis kuya zarariga qarshi kurashda juda yaxshi nazorat ta'minlaydi. Zararni kuzatish may oyining o'rtasi va oxirlarida boshlanadi. May oyining o'rtasidan toki oxirigacha yuqori quvvatli qo'l obektivi (15-20x) bilan yoki mikroskop bilan meva poyasining uchida qo'tirlashish va tekis kuyalarning mavjudligini tekshiring Agar tekis kuyalar paydo bo'lsa, darhol oltingugurt bilan ishlov bering. Mevalarni kuyalardan himoya qilish uchun oltingugurtni may oxiri yoki iyun boshlarida bir oy oraliq tanaffus bilan bir martadan uch martagacha qo'llang. Oltingugurt iliq ob-xavo sharoitida yaxshi samara beradi. Eritiladigan oltingugurt yirtqichlar uchun kamroq samara beradi.

Tripslar

Zararkurandaning ilmiy nomi: Scirtothripsdorsalis and Rhipiphorotherscruentatus



2.12.5-rasm. Mevalarda kuya zarari

Belgilar

Barg uchlari jigar rangga o'zgaradi va tripslar barglarning pastki qismining yuzasini ishqalab oziqlanishi natijasida barg uchlari bujmayadi va xujayralardan chiqayotgan sharbatni so'radi natijada gullar quriydi va to'kiladi. Zararlangan barglar tepaga, pastga yoki ichkariga qarab buraladi. Novdaning nimjon uchi qurib qoladi. Kurtaklarda va mevalardagi qirtishlangan izlar ochiq yashil-jigarrang dog'lar ko'rinshida bo'ladi va qo'tir paydo bo'lishiga olib keladi va o'z navbatida mevaning bozor qiymatini tushiradi. (2.12.6-rasm)

Nazorat qilish

Zararlangan o'simlik qismlarini olib tashlang va yo'q qiling.

Ko'k yopishqoq qopqonlardan foydalaning (10 o'simlik ka bitta qopqon)

Aseta'miprid 20 sp (sarfi: 0.005% dan 0.01% gacha, yoki 100 litr uchun 25 g dan 50 g gacha) yoki **Spinosad 45 SC** (sarfi: litriga 0.25ml yoki 100 litriga 25 ml) yoki bo'lmasa **NSKE 5%**. **Verticillium lecani** (2x10⁸ cfuG'g) (sarfi:100 litriga 200 g) kabi preparatlarni 10 kunlik oraliq tanaffus bilan gullash davri boshlanishidan oldin seping.

Profilaktika vositasi sifatida yoki belgilar kuzatilganda quyidagi preparatlarni qo'llashingiz mumkin:

Xlorofos 0.02% yoki **Imidakloprid 0.04%** yoki **Delta'metrin 0.15** , **Dixlofos 0.05%** Gullash davridan oldin **Dimetoat 0.06%** seping.

Qattiq zarar ko'rilganda, **Oksidemeton metil 0.05%** seping va meva hosili tuggandan keyin yana sepushni takrorlang.



2.12.6-rasm. A) Mevada trips alomati



B) Barglarda trips alomati

2.13. Dog‘li qanot Drozofilla pashshasi

Zararkunandaning ilmiy nomi: Drosophila suzukii,

Masumura Yevropa va O‘rta Yer dengizi xududlarida meva yetishirishda katta xavf soluvchi zararkuranda hashorat sifatida ko‘rsatilgan.



Balog‘atga yetgan urg‘ochi Drozofilla pashshasi Drosophila suzukii (Masumura) rasmi Martin Xauzer tomonidan sur‘atga olingan, Oziq-ovqat va qishloq ho‘jaligi bo‘limi, Kaliforniya (2.13.1-rasm)

2.13.1-rasm.Drozafilla pashshasi.

Belgilari:

Tuxumlarini qo‘yish uchun meva pishish vaqtini avfzal ko‘radi. Zarar, asosan, lichinkalar meva mag‘zidan oziqlanishi natijasida yuzaga keladi va mag‘zini yumshashiga hamda jigar rangga o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Kattaroq lichinkalar nafas olishlari uchun teshiklar yasaydi. Zararlangan meva hashorat oziqlanayotgan joyidan juda tez buzuladi va mog‘or yoki ikkilamchi infeksiyalar xisobiga chiriydi.

Monitoring qilish va tuzoqqa tushirish:

Qopqonlarga achchitqi-shakar-suv aralashmasi xo‘ragi qo‘yiladi va bu o‘z navbatida xo‘rak vositasini shaffof rangda bo‘lganligi sababli pashshalarni oson aniqlash imkoniyatini beradi. Qopqon ichiga yopishqoq qog‘oz sifatida idish yuvadigan suyuqlikdan bir tomchi qo‘shish qopqon samarasini oshiradi, chunki, bu qopqonga allaqachon kirib bo‘lgan pashshalarni ushlab qolish imkonini beradi. Agar qopqonlar salqin va soya yerlarga joylashtirilsa, yaxshi natija beradi.

An‘anaviy nazorat qilish usuli:

Pashshalarni yanada ko‘proq tarqalishini oldini olish uchun toza dala sanitariyasi juda ahamiyatlidir. Hashorat ko‘payishini kamaytirish uchun pishgan mevalarni tez-tez terib olish kerak. Barcha zararlangan mevalar daladan olib tashlanilishi va ko‘mish yoki yopiq konteynerlarga joylashtirish orqali yo‘q qilinishi lozim.

Drozofilla pashshasi kuchsiz pashshalar hisoblanib, zararlangan mevalar yoki shamol orqali tez tarqaladi. Shu sababdan, pashshalardan qutulish uchun barcha yaqinda joylashgan mevalarga e'tibor qaratilishi kerak.

Kimyoviy preparatlar bilan nazorat qilish:

Boshqa *Drozofilla* pashshalariga qarshi samarali insektisid spreylar dog'li qanot *Drozofilla* balog'atga yetgan pashshalari uchun ham samarali ishlaydi. Shunday bo'lsada, dog'li qanot *Drozofilla* pashshasining meva pishishining afzalligi kimyoviy preparatlarni terimdan oldingi qisqaroq tanaffuslar bilan qo'llash zaruriyatini tug'diradi.

Fitotoksiklik kimyoviy preparatlardan zararlanish

Fitotoksiklik yoki sprej zararlari juda kam uchraydigan holat. Anor uchun qo'llaniladigan kimyoviy preparatlar preparatning yorliq ko'rsatmalariga rioya qilgan holatda to'g'ri qo'llanilsa, xavf tug'dirmaydi. Fitotoksiklikdan salbiy ta'sirlar ham kelib chiqishi mumkin, chunki ko'p holatlarda qo'llanma noto'g'ri amalga oshiriladi. Shu sababdan fitotoksiklik xo'jalik moliyaviy holatiga ulkan ta'sirga ega.

Belgilari:

Fitotoksiklik barglarda va mevalarda noodatiy o'sish shakli, kuygan barglar yoki mevalar, o'sishdan to'xtash, sustlashgan ildiz o'sishi va xattoki o'simlikni to'liq nobud bo'lishi kabi belgilarni namoyon qiladi. Belgilar preparatlardan qo'llanganizdan keyin bir necha kun ichida rivojlanadi ba'zi holatlarda esa fitotoksiklik rivojlanishiga ko'proq vaqt ketadi. Fitotoksiklikka to'g'ri tashxis qo'yish juda muhimdir va bir xil xatolar takrorlanmasligiga ishonch hosil qiling.

Tuproqqa chidamli gerbitsidarlarda fitotoksiklik bog'dan-bog'ga qarab o'zgarishi va qumli tuproqda tomchilab va bostirma so'g'orish sirtidan egatlab sug'orishga nisbatan ko'proq zarar keltirgani kuzatilgan.

Fitotoksikaning eng ko'p kuzatiladigan alomati bir xil taqsimotdir yoki qo'llash uslubiga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan namunadir .



2.13.2-rasm. Mevada fitotoksiklik

Fitotoksiklikning belgilari:

1.To'g'ridan to'g'ri zaharlanish.

Ma'lum bir pestisidlar yoki fungisidalar ma'lum bir ekin turiga yoki naviga zaharli hisoblanadi. **2. Keragidan ortiq miqdorni qo'llash.** Pestisidlar yoki fungisidlar aniq bir miqdorda qo'llanishga shakllantirilgan.

Keragidan ortiq miqdorni qo'llash sprej instrumentining noto'g'ri kalibrlashdan, bir xil o'lchamning mavjudmasligi yoki miqdorni noto'g'ri xisoblashdan kelib chiqadi.

3 Aralashmalar. Ko'pgina pestisidlar yoki fungisidlar tayyor mahsulot sifatida sotiladi. Masalan, granulyar tarkibli formula, eritiladigan kukun, emulsiyali aralashmalar va boshqalar. Bu aralashmalar maxsus pestisidning yoki fungisidning samarasini yuqori darajaga ko'tarish uchun maxsus tayyorlaniladi. Bir qancha zararkurandalarni yoki kasalliklar bilan bog'liq muammolarni tezkor nazorat qilishda pestisid yoki fungisid aralashmalaridan foydalanish juda qulay va tejamkor usuldir. Kasalliklarga qarshi kurashishda va hashoratlarni nazorat qilishda fungisidlar va insektisidlar asosan birgalikda qo'llaniladi. Aralashmalarni noto'g'ri qo'llashdan ko'plab muammolar kelib chiqishi mumkin.

4. Keragidan ortiq eritish. Agar pestisid dalada ma'lum bir miqdorda qo'llanilsa, bu aniq suv hajmiga qo'shib qo'llanilishi lozim. Ba'zi pestisidlar yuqori darajada eritilib qo'llanilganda ham ekinga xavf to'g'dirmaydi. Suvning pH ko'rsatkichi pestisid faoliyatiga ham va fitotoksiklikka ham ta'sir ko'rsatishii mumkin.

5. Iqlim va fitotoksiklik. Pestisidlarni juda qulay ob-xavo sharoitlarida qo'llash lozim. Ammo bu ko'p holatlarda sodir bo'lishi qiyin. Aralashmalarni qo'llaganingizda, bir necha ko'rsatmalarga rioya qilishingiz kerak va doim yorliqni o'qing va ishlab chiqaruvchi ko'rsatmalariga amal qiling. Boshqa preparatlar bilan

birga qo'llanishi keltirilgan bo'limi yorliqda mavjud. Agar ikkilanishga ega bo'lsangiz, ishlab chiqaruvchiga yoki texnik vakilga murojat qiling.

Kimyoviy preparatlardan to'g'ri foydalanish

- Kimyoviy preparatlarni har doim oxirgi yechim sifatida qo'llang.
- Kimyoviy spreylardan foydalanayotganizda ehtiyot bo'ling.
- Qo'llanma yorlig'ini sinchkovlik bilan o'qing.
- Tavsiya qilingan dozalar miqdorini oshirmang.
- Meva iste'mol uchun xavfsiz bo'lishidan oldin maksimal kutish davri haqida ishonch hosil qiling.

- Kimyoviy preparatlar qo'llanilayotganda doim bog'boningizga ko'rsatmalar bering va shu joyda bo'ling.

- Aniqlik va nosozliklarni tez tez tekshirib turish uchun sprej instrumenti, nasoslar va jumraklarni sozlash kerak.

- Barcha kimyoviy preparatlar bolalardan, barcha suv manbalardan va har qanday noto'g'ri foydalanishi mumkin bo'lgan shaxslardan uzoqda xavfsiz joyda saqlanilishi lozim.

- Doim maska, qo'lqop taqing, oyoq kiyim kiyib, to'liq va mos kiyining.
- Preparatlar bilan ishlab bo'lganingizdan keyin dush qabul qiling.
- Shamolli kunlarda spreylardan foydalanmang.
- Ertalab ozonda yoki kech peshinda sepishga harakat qiling.
- Kunning issiq paytida sepmang.
- Yomg'ir yog'ish extimoli kuchli bo'lsa, sepmang. Ko'p pestisidlar o'simlik ka yaxshi singib ketishiga kamida 6 soatni talab qiladi.

- Bo'shagan kimyoviy preparat konteynerlarini xavfsiz va javobgarlikni xis qilgan holatda yo'q qiling.

- Bo'shagan kimyoviy preparat konteynerlarini yana boshqa maqsadlar uchun qo'llamang(2.13.3-rasm)

- Barcha sprej asboblarini qo'llanishdan so'ng yuvib qo'ying.
- Aralastirish vositalarini qo'shish samaradorlikni oshiradi.

- O‘simlikning barcha qismlari yaxshi qoplanishi uchun preparatlarni to‘g‘ri va sinchkovlik bilan seping.
- Agar siz noto‘g‘ri sepsangiz, kasalliklar kimyoviy preparatlarga chidamlilik xususiyatini rivojlantiradi va natijada samaradorlik yo‘qotiladi.
- Sepish qoidalariga rioya qiling.
- Zararkurandalardan butunlay xalos bo‘lish uchun ba‘zan qaytadan seping kerak bo‘ladi.
- Biror muammo chiqqanda darhol biror chora qo‘llang chunki keyinchalik kattaroq muammolarni nazorat qilish qiyinroq bo‘ladi.



2.13.3-rasm. Bo‘shagan pestisid konteynerlarini

Anor zararkunandalari va ularga qarshi kurashishda jamlangan choralar (IPM) ning yondashuvlari

Samarali dehqonchilik amaliyoti ta‘moyillariga ko‘ra, zararkurandalarga va o‘simlik kasalliklariga qarshi kurashishda quyidagilarga e‘tibor birilishi shart:

- SYertifikatlangan yuqori sifatli sog‘lom ko‘chatlarni ekish.
- Kasallikka chidamli navlardan foydalanish.
- Zararkurandalar va kasalliklarni oldini olishda biologik usul qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida samarali qishloq ho‘jaligi amaliyotlarini qo‘llash (tuproqdan samarali foydalanish, butalash, o‘g‘itlash, sug‘orish, begona o‘tlar nazorati, hosilni yig‘ish va boshqalar).
- Barcha ekinlarning zararkurandalari, kasalliklari va foydali organizmlari orasidagi muvozanatini muntazam va miqdoriy baholashni olib boring.

- Qayerda va qachon imkoniyat mavjud bo'lganda, organik nazorat amaliyotlarini qo'llang.

- Zararkuranda va kasalliklarni bashorat qilish usullarini imkoni boricha qo'llash.

- Kimyoviy preparatlardan foydalanishni minimallashtirish maqsadida, zararkunandalarga qarshi keng qamrovli kurashni rag'batlantirish uchun barcha mumkin bo'lgan usullarni va ularning fermer xo'jaliklari samaradorligiga qisqa va uzoq muddatli samarasini va atrof muhitga ta'sirini hisobga olgan holda choralar haqida qaror qabul qilish

- Hashorat zararkurandalarini ko'payishini biologik usullar yordamida iqtisodiy zarar keltirmaydigan darajada kamaytirish kerak.

- Kimyoviy moddalar bilan zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashishda faqatgina hashoratlarning turi va miqdori normadan oshib ketganda va turli xil zararkunandalar populyasiyalarini tartibga soluvchi omillar ta'sirini ko'rib chiqqandan so'ng qo'llaniladi, boshqa samarali boshqaruv tizimi mavjud emas.

Ko'pgina hollarda kimyoviy nazorat zarur bo'ladi.

Shu bilan birga, mavjud ekotizimning aksariyat qismlariga zarar yetkazmaslik uchun iloji boricha harakat qilib, zararkunandalarga qarshi kurashish uchun kimyoviy moddalarni qo'llashning eng yaxshi vaqtini tanlab ulardan oqilona foydalanish mumkin.

Oraliq tanaffuslar xavfsizligini kuzatish kerak va birinchi navbatda, nojuya ta'sirlarini to'liq bilib olish zarur.

Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish dasturlari

Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish dasturlarini ishlab chiqishda quyidagi omillarga asoslaniladi: atrof muhitni o'rganish, bog' ekotizimida zararkuranda hashoratlarning ko'payish dinamikasi va kimyoviy preparatlarni zararkunandalarga qarshi kurashishga qaratilgan choralar bilan birga qo'llash. IPM dasturi-zararkunandalarga qarshi kurashishda keng qamrovli yondashuv bo'lib, atrof-muhit xavfsizligini ta'minlagan holda zararkunandalarni sezilarli darajada kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar ko'lamini qo'llaydi. Bu

dastur zararkurandalarga qarshi kurashishda oddiygina qilib muvozanatlashtirilgan yondashuv deb ta'riflansa bo'ladi. IPM dasturi ma'lum bir xuddagi aniq bir ekinga maxsus ishlab chiqilishi kerak (bizning holatimizda, anorlar uchun) va hamda bog'bonlar tomonidan uzoq muddatga qabul qilinishi kerak. IPM yondashuvini amalga tadbiiq qilish uchun, entomologlar va o'simlik patologanotomlarini jalb qilish juda muhim.

2.14. Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish konsepsiyasi

Zararkurandalarga qarshi kurashishda ko'p sonli usullarni (kimyoviy, biologik, an'anaviy va mexanik) mujassamlashtirish.

- Ko'p sonli zararkurandalarga va umurtqali hayvonlarga (hashoratlar, begona o'tlar, kasallik qo'zg'atuvchilar va nematodalar) qarshi kurashish choralarini birlashtirish.

- Zararkurandalarga qarshi kurashishdagi usullarni mintaqaviy miqyosda birlashtiradi (ko'plab zararkurandalarni nazorat qilish jarayonlarini keng miqyosli yoki hududlar bo'ylab yaxshiroq uddalashga erishiladi).

- Zararkurandalarni qanoatlansa bo'ladigan darajada kamaytirish.

(Zararkurandalarni yo'q qilishni oshirib yubormang)

- Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash (Iqtisodiy zarar darajasi va chegaralari konsepsiyasi)

- Atrof muhit va ijtimoiy g'amxo'rliklarni ham e'tiborga olish.

Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish dasturining maqsadlari:

- Uzoq muddat mobaynida yuqori daromadga erishish

- Qishloq ho'jaligi yoki tabiiy resurslardan uzoq muddat mobaynida barqaror foydalanish

- Pestisidlardan oqilona foydalanish.

- Atrof muhit ifloslanishini va harajatlarni kamaytirish tuproq, yer osti suvi, yuza suvlar, changlatuvchilar, yovvoyi olam va xavf ostidagi navlar.

- Tabiiy biologik nazorat qilish usullarini qo‘llash-saqlash va ko‘paytirish; yaxshi sifatli pestitsidlardan foydalanish hamda to‘g‘ri qo‘llash vaqtlariga amal qilish.

- Pestisid ta’siriga chidamlilik muammolarni kamaytirish.

- Zararkurandalarni qaytadan faollashishini va ikkilamchi zararkurandalarni paydo bo‘lishiga (ko‘pincha pestitsidlar tabiiy dushmanlarni yo‘q qilishga olib keladi) yo‘l qo‘ymaslik.

- Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash meva mahsulotlarida pestitsidlarning qoldiqlarini kamaytirish.

- Ishchilarning xavfsizligini ta’minlash ishchilar uchun xavfsiz bo‘lgan zararkurandalarga qarshi kurashish choralarini qo‘llash.

Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish dasturining muhim tarkiblari:

Qishloq ho‘jaligi vazirligi, Fermerlar va Uyushmalar

Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish dasturini amalga oshirishda Qishloq ho‘jaligi vazirligining o‘rni muhimdir hamda quyidagi masalalarga e’tibor qaratadi:

A. Tadqiqotlar olib borish: Yaxshi tadqiqotlar har doim Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish dasturining muhim tarkibi hisoblanadi. Tadqiqotlar Qishloq ho‘jaligi vazirligi tomonidan olib boriladi va yaxshi yo‘naltirilgan, qo‘l keladigan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, mustaxkam bilim asosini yaratishni maqsad qiladi.

B. Boshqarish va treninglar olib borish: ilmiy xodimlarni (entomologlar, o‘simlik patomorfologlar va boshqalar) o‘qitish va texnik xodimlarni asosan, zararkuranda va kasalliklarni aniqlashga va monitoring qilishga o‘qitish.

C. C. Koordinasiya:

D. Ilmiy xodimlar, konsultantlar va bog‘bonlar orasida hamkorlik maydonini yaratish.

E. Monitoring: juda muhim element xisoblanadi

F. Bog'larga foydali organizmlarni (hashoratlar) ishlab chiqarish

G. Fermerlar uyushmalari qo'llab quvvatlovchi rol o'ynaydi va Qishloq ho'jaligi vazirligining sayi-harakatlarini to'ldiradi (asosan, boshqarish va monitoring masalalarida).

Amal qilish davri

Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish dasturi bir necha yillar mobaynida doimiy amalga tadbiq qilinishi va uzluksiz rivojlantirilishi lozim. Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish sekin boshlanib, turg'un rivojlanadi. Shuning bilan birga, bu dastur tez samara berishini kutmasligingiz kerak, qancha tez boshlasangiz, shuncha tez samarasini ko'rsatadi.

Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish dasturini fermerlar tomonidan qabul qilinishi

Fermerlarni Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish dasturini amalga oshadigan g'oya siftida qarashga va pestisid qo'llanilishini sezilarli kamaytirish imkoni mavjudligiga ishontirish juda muhimdir. Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish dasturini qabul qilishda qishloq ho'jaligi vazirligini, fermerlar uyushmasi va qolaversa anor yetishtiruvchilarning ham roli katta ahamiyatga ega.

Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish dasturi tavakkal qilishni ham talab qiladi. Zararkunandalarga qarshi kurashishda an'anaviy pestisid usuli, asosan, sug'urta sifatida qo'llaniladi. Faqat qiyin qarorlar qabul qilish zaruriyati bo'lganda, Zararkunandalarga keng qamrovli qarshi kurashish dasturi samarali usuli ish beradi. Agar konsultant va bog'bon tavakkal qilishga hech qachon tayyor bo'lmasa, keyin oson yo'l (masalan, spreylar) muddatidan oldin tanlaniladi va kelgusida hech qanday rivojlanish yuz bermaydi.

Zararkunandalarga qarshi kurashishda qarorlar qabul qilish vositalari

Zararkunandalarga qarshi kurashishda qarorlar qabul qilish vositalari bular: Iqtisodiy zarar ko'rish darajasi (EIL) tushunchasi va Iqtisodiy omillarga asoslangan qarorlar qabul qilish tadbirlari chegarasi(AT)

Zararkurandalarga qarshi kurashuvchilar Zararkurandalarga qarshi kurashishning iqtisodiy ahamiyatini bilmay turib, bu choralarni bajaraolmaydilar. Atrof muhit va ijtimoiy qadriyatlar zararkurandalarga qarshi kurash qarorlarini qabul qilishda katta ro‘l o‘ynashi mumkin.

Entomologlar zararkurandalarni nazorat qilishdagi amaliyot harajatlarini e‘tiborga olgan holda usul tanlashni targ‘ib yetgan guruhlardan biri edi. Birinchi say-harakatlar qishloq ho‘jaligida mahsulot yetishtirish va harajat foyda tahlillariga qaratildi. Iqtisodiy zarar ko‘rish darajasi (**EIL**) (Styern et al., 1959) tushunchasi shuni ta’kidlaydi: “Iqtisodiy zarar keltiruvchi zararkurandalar miqdorining eng past zichligi yoki zararkurandalar zararining miqdori ular ustidan nazorat qilishdagi harajatlarni asoslab beradigan omildir”.

Iqtisodiy zarar ko‘rish darajasi (EIL) tushunchasi Zararkurandalarga keng qamrovli qarshi kurashish (IPM) tushunchasi bilan birga ishlab chiqilgan va quyidagi g‘oyalarni targ‘ib qiladi: pestisidlardan oqilona foydalanish, pestisidga chidamlilik ta’sirni rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, qishloq ho‘jaligi mahsulotlarida pestisid qoldiqlari bilan bog‘liq muammolarni kamaytirish va pestisidlarning maqsadda tutilmagan organizmlarga salbiy ta’sirlarini kamaytirishdir. Garchi Iqtisodiy zarar ko‘rish darajasi (EIL) tushunchasi iqtisodiy qarashlar asosiga qurilgan bo‘lsada, lekin atrof muhit, ijtimoiy va resurslar bilan bog‘liq muammolarni hamda barqarorlikni saqlash kabi g‘amxurliklarni ham qamrab oladi.

Keng tarqalgan anor kasalliklarini aniqlash va ularga qarshi kurashish

Kasallikni aniqlashda amaliy mashqlar

Anor daraxti turli xil kasalliklarga (zamburug‘ va bakterial) moyil bo‘ladi. Zamburug‘lar va bakteriyalar bir qancha jiddiy anor kasalliklariga sabab bo‘ladi. Kasalliklar geografik hududlarga qarab turli xil bo‘ladi. Ba’zi kasalliklar bir joyda katta muammo hisoblansa, shu kasallik esa boshqa hududlarda zararsizdir yoki uchramaydi. Shunday bo‘lsada, anor yetishtiriladigan hududlarning aksariyatida kasalliklar uchraydi. Anor daraxtiga (barglariga, poyasi, gullari, daraxt tanasi va ildizlari) hujum qiluvchi asosiy kasalliklar-Anor vilti, Fitoftora kasalligi va boshqalar. Boshqa ba’zi kasalliklar esa bir vaqtning o‘zida daraxt va uning mevasiga

zarar yetkazadi, masalan, Alternariya (*Alternaria*) meva ichining chirishi, Alternariya (*Alternaria*) qora dog‘lar, Serkospora (*Cercospora*) meva va barglarning dog‘lanishi, Antroknnoz, Bakterial kuyish va boshqalar shular jumlasidandir. Boshqa kasalliklar dalada boshlanadi va mevalarni saqlash davrida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi masalan, Aspergil (*Aspergillus*) meva chirishi, Kul rang mog‘or ko‘rinishdagi chirish (*Botrytis cinerea*), Ko‘k-yashil mog‘or (*Penicillium*spp), Coniellagranati meva buzilishi va boshqalar.

Kasalliklarga qarshi kurashishi-umumiy chora-tadbirlar

Agar mevali daraxtlar kasalliklari butun bog‘ni qamrab olgan bo‘lsa, ularni yo‘q qilish juda mushkul. Shu sababdan kasallikka qarshi kurashish imkoniyatlari asosan oldini oluvchi tadbirlardir va ehtimoldagi infeksiyalarni nazorat qilish bilan cheklanadi. Aksariyat terim davridan keyingi kasalliklar dalada boshlanadi va shu sababli nazorat ham dalada boshlanilishi shart. Quyidagi ushbu anor daraxtida uchraydigan kasalliklarni bartaraf qilish bilan bog‘liq turli chora-tadbirlar, tajribalar hususida so‘z yuritiladi.

Hosilni yig‘ishdan oldingi amaliyot-Kimyoviy kurash choralari: Ko‘plab kasallik qo‘zg‘atuvchilar infeksiyalar yaralar (kesilgan joylar) orqali tarqaladi shu sababli hashorat yetkazishi mumkin bo‘lgan zararlar oldini olish orqali kasallik qo‘zg‘atuvchi sporalarning ushbu yaralar orqali kirib tarqalishiga chek qo‘yish mumkin.

O‘simliklar kasalliklariga qarshi kurashishda kimyoviy ishlov berish shu paytgacha eng samarali chora-tadbir sifatida qarab kelinmoqda. Samarali Dehqonchilik Amaliyoti ta‘moyillariga asosan, kimyoviy preparatlardan foydalanish faqatgina kasallik chora ko‘rish chegarasiga yetgandagina va zaruratdan kelib chiqib qo‘llanilishi tavsiya qilinadi. Shunday bo‘lsada, kasallikni bartaraf qilish uchun kimyoviy ishlov berishda to‘g‘ri vaqtni tanlash va atrof muhitdagi yordamchi faunaga iloji boricha zarar yetkazmaslikka harakat qilinishi shart.

Tiofanatmetil va Tebukanzol kabi funingisidlar bakterial kuyishi va anor daraxtlarida meva chirishi kabi kasalliklarni nazorat qilishda juda ahamiyatga ega. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, “Kaptan”, “Kampanion” va “Mis oksidloridi” kabi

fungisidlar qo'llanilish vaqt oralig'idan qattiy nazar, kasalliklarni bartaraf qilishda sezilarli darajada ijobiy natijalar bergan. Lekin izlanishlar shuni ko'rsatadiki "Oksixlorid" qurquq holdagi mevalarga sepilganda, preparat mevalarda chandiqlar(dog'lar) qoldirgan va bu ularning bozorgirligini pasaytiradi. Kimyoviy preparatlarning nomaqbul tomoni shundaki, toza mahsulot yuzasida inson sog'ligiga havfli bo'lishi mumkin bo'lgan keraksiz qoldiqlarni qoldiradi. Ba'zi holatlarda mevalarda fungusidga chidamlilik ham rivojlanishi mumkin, keyinchalik ular sintetik (sun'iy) kimyoviy preparatlarning samaradorligini kamayishiga olib keladi.

Kasallikni nazorat qilishda an'anaviy (tabiiy) usullar: Kasallikni nazorat qilishda an'anaviy tajribalar, asosan, kimyoviy yondashuvlar hisoblanib, u kasallikni nazorat qilishda atrof muhitni asrashga qaratilgan amaliyotdir. Anor daraxtlarini to'g'ri parvarishlash va tuproqning suv o'tkazuvchanligini yaxshilash muhim ahamiyatga ega jarayon bo'lib, u bog'da havo aylanishi va drenaj bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilishga yordam beradi. Noma'qbul vaziyatlar, masalan, tuproqning noto'g'ri tayyorlanishi, noto'g'ri o'g'itlash va sug'orish, anor bog'larida kasallikka moyil daraxtlar sonini ko'payishiga olib kelishi mumkin. Suv yetishmasligidan anor daraxtlarining stressga tushishi oldini olish darkor, shu o'rinda ortiqcha sug'orish ham anor daraxtlarida meva yorilishiga sabab bo'lishi mumkin. Daraxt eski shoxlar va mevalardan tozalanishi shart, meva tYeruvchilar va bog'bonlar kasallik alomatlarini aniqlash vhamda daraxt shoxlari kesilgandan keyin yuzaga keladigan jarohatlarga infeksiya tushishi oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar bo'yicha o'qitilishi tavsiya qilinadi. Himoyalovchi mahsulotlar kesilgan shoxlar yuzasiga qo'llanilishi kasalliklar tarqalishi oldini olishga yordam beradi. Mevalar hashorat va qushlar zararidan himoyalash maqsadida daraxtda turgan holatida qopchalarga kiygilizishi mumkin, lekin bu amaliyot iqtisodiy jihatdan samarasiz tadbirdir. Sog'lom ko'rinishli ammo kasallangan mevalardan terim boshlanishidan oldin daraxtni sekin silkib ularni yerga tushirish orqali qutulish mumkin. Mevalarning zararlanishini oldini olish maqsadida zararkunanda hashoratlarga qarshi o'z vaqtida kurashish muhim ahamiyatga ega.

Yangi navlarni yaratish: Fungitsidlardan foydalanayotganda mahalliy sharoitda rivojlanayotgan daraxtlarning kasallikka chidamlilik hususiyatlarini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Bu o'z navbatida kasallikka yoki zararkuranda hashoratlar ta'siriga chidamli to'g'ri va mos navlarni tanlashga imkon beradi. Anor navlarini turli xil kasalliklarga moyillik darajasini aniqlash maqsadida kam izlanishlar olib borilgan. Hosil yo'qotilishining oldini olish maqsadida kasalliklarga chidamli anor navlarini aniqlashda yana ko'proq izlanishlar olib borilishi talab yetiladi.

Bio nazorat va bio pestisidlar: Bio nazorat tadqiqoti tuproq orqali o'tuvchi infeksiyalarga, barglar va meva kasalliklariga qarshi kurashishda mikroorganizmlarni qo'llashga asoslanadi. Bu samarali qishloq ho'jaligi amaliyoti sifatida tavsiya qilinadi. Anor daraxtlarini og'ir dala sharoitlarida bio o'g'itlardan foydalanib rivojlantirish, meva hosilini oshirish, metabolizm va rizosfyera fermentlar almashinuvini yaxshilash kabi bir necha oziqlantirish amaliyoti tajribalari yuzasidan muvaffaqiyatli izlanishlar olib borildi. Azot bilan to'yintirish va arbuskulyar mikoriza zamburug'i eng samarali o'stiruvchi usul deb topilgan. Shunday bo'lsada biologik nazorat texnologiyalari chegaralangan chunki ular o'zgaruvchan samaradorlikka ega. Eng ko'p tarqalgan zamburug'lar va bakteriyalar keltirib chiqaradigan kasallik belgilari va zararlarini aniqlash va ularni ta'riflash shuning bilan birga ularga qarshi kurashish chora tadbirlari quyida keltirilgan:

Anor vilti (so'lishi)

Kasallik qo'zg'atuvchisi: *Ceratocystisfimbriata* zamburug'i kasallikning asosiy sababchisi hisoblanadi. *Fusariumoxysporum*, *Verticilliumdahliae* va Nematodlar ham anor viltini qo'zg'atuvchi zamburug'lar sarasiga kiradi.

Belgilari

Vilt o'simlik o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi anorning muhim kasalliklaridan biri. Zararlangan shoxlarida barglar sarg'ayadi va qovjiraydi. O'simlikning bir yoki undan ortiq shoxlarida barglar to'kiladi. Natijada butun bir daraxt bir nechta hafta ichida to'liq so'liydi va nobud bo'ladi. Vilt belgilari ba'zida kutilmaganda paydo bo'ladi va birdaniginina butun o'simlikning barglarini

sargʻayishiga sabab boʻladi. Kasallangan oʻsimliklarda barglar quriydi va bir necha oy davomida qurigan mevalar shohlariga yopishib qoladi. Ksilema (daraxt tanasining suyuqlik harakatlanadigan qismi) atrofi toʻq qizil jigar rangdan binafsha toʻq jigar rangga yoki qora dogʻga aylanadi. Kasallangan oʻsimlik qismlarining kesishgan va vertikal boʻlimlarining tomirlarida va yon qobiq toʻqimalarida toʻq kul rang-jigarrang chiziqlar paydo qiladi. Zamburugʻ yonma-yon daraxtlar orasida tarqaladi va baʼzida keskin tarzda bogʻning turli xil joylari oralab tarqaladi. Kasallik asosan yuqori namlikka ega boʻlgan qovushqoq (ogʻir) tuproqda koʻp uchraydi. *Ceratocystis fimbriata* va *F. oxysporum* tuproq orqali oʻtuvchi va tuproqda yashovchi zamburugʻlar hisoblanadi. Bular kasallangan urugʻlar, sugʻorish, yomgʻir suvi, ildiz orqali, hashoratlar, Yerga ishlov beruvchi qurilmalar, butalash va payvandlash qurollari orqali tarqaladi. (2.14.1-rasm)

Bostirib sugʻorish yomgʻir suvlari ham kasallikni kasallangan oʻsimliklardan sogʻlom oʻsimliklarga tarqatadi. Ildizlardagi hashoratlar, nematodlar va kemiruvchilar tomonidan yetkazilgan zararlar orqali «Vilt» kasalligi sporalari sogʻlom oʻsimliklarga hujum qiladi. «Vilt» kasalligi shikastlangan va toʻliq sogʻlom ildizlarga ham hujum qiladi. Kasallik tanaga kirgandan keyin, ksilema boʻylab suv oʻtkazuvchi xujayralarda rivojlanadi va natijada oʻsimlikning keskin soʻlishiga va tomirlarini toʻq rangga oʻzgarishiga olib keladi.

Kasallik belgilariga qarab, infeksiya quyidagicha tavsiflanadi:

- *Ceratocystisfimbriata* dan farqli oʻlaroq, daraxt tanasi jigar rang, kul rang, qora rangga oʻzgaradi.

- *Fusariumoxysporum* dan farqli oʻlaroq, faqat ksilema jigar rang tus oladi.

- Mayda (popuk) ildizlarda tugunchalar paydo boʻladi va ular nematod parazitini bilan zararlanadi.

Kasallikka qarshi kurashish

Kasallikka qarshi bogʻ sanitariyasiga rio qilish, aʼnanaviy usullar, kimyoviy nazorat va kasallikka chidamli navlarni ekish kabi keng koʻlamli chora tadbirlar bilan samarali kurashish mumkin.

Qumoq boʻz tuproqli sharoitlarda daraxtlarni 4.5m x 3.0m masofada ekish va tuproqning suv oʻtkazuvchanligini yaxshilash.

Tuproqni 0.2%li karbendazim yoki 0.15%li propikanozol yoki 0.15%li tridemorf 0.25% li Xlorpirifos bilan yuvish (tuproqni dizinfeksiya qilish).



2.14.1-rasm. A) Anor Vilti bilan kasallangan daraxt

B) Anor Vilti: Daraxt tanasining jigar rang/kul rangGʻqora rangga oʻzgarishi (*Ceratocystisfimbriata*)



V) Anor «Vilti»: Faqat kislema qismi jigar rangga oʻzgaradi (*Fusariumoxysporum*)

G) Anor «Vilti»: Mayda (popuk) ildizlarda tugunchalar paydo boʻladi (nematod parazitini bilan zararlanish)

2.15. Fitofloroz (Fitoflora) kasalligi

Qoʻzgʻatuvchi zamburugʻ: Phytophthora

Belgilari

Kasallikni zamburugʻlar qoʻzgʻatadi ular ayniqsa ogʻir va suv turib qoladigan drenaj muammo boʻlgan tuproq sharoitlarida havfli hisoblanadi. Qurish birinchi boʻlib ildizda, ayniqsa tuproqqa yaqin joyida, qobiqda paydo boʻladi. Keyin daraxt

po'stlog'i yoriladi. Kasallangan o'simliklarning ildiz bo'g'zi qismining po'stlog'i ko'chadi va to'qimalari bo'shashadi. Bunday daraxtlarning ildizlari sog'lom bo'ladi va ulardan kuchli so'ruvchi novdalar o'sib chiqishi mumkin. Qattiq zararlangan o'simliklar qurib qoladi. (2.15.1-rasm)

Kasallikka qarshi kurash choralari

Bunday vaziyatda tomchilab sug'orish tizimi maqsadga muvofiqdir. Sug'orish paytida daraxtning ildiz bo'g'zi namlanmasligi shart. Tuproqni chuqur haydashdan ehtiyot bo'lish kerak. Yer osti suvi Yer yuzasiga yaqin bo'lgan joylarda bog' barpo qilinmasligi kerak.

Tuproqqa ko'p organik oзуqalar (go'ng, gumus, chirindilar va boshqalar) berilishi kerak.



2.15.1-rasm.Fitofthoroz kasalligining alomatlari

Alternariya (*Alternaria*) meva etining chirishi yoki qora chirish

Qo'zg'atuvchilari: *Alternaria Alternate*, *Alternaria arborescens* va *Alternariatenuissima* zamburug'lari. "Mevaning ichki qismining chirish kasalligi" anorga ta'sir qiluvchi kuchli zamburug'lardan biridir. *Alternaria sp.* ga qo'shimcha tarzda, *Aspergillusniger* ham mevaning ichki qismini chiritish hususiyatiga ega kasalligidir(2.15.2-rasm)

Belgilari

Boshlanishida, anor mevasining yuzasida va barglarida kichkina qizg'ish qo'ng'ir dumaloq dog'lar paydo bo'ladi. Ichki chirish kasalligi bog'da ko'p

holatlarda gullash va meva rivojlanishining boshlang'ich davrlarida yomg'irdan keyin paydo bo'ladi va saqlanish davrigacha rivojlanishni davom ettiradi. Shu sababdan uni saqlash davridagi kasallik deb ham yuritiladi. Bu kasallik gul kosasi atrofidan tarqaladi, lekin gul kosaning tashqi po'stlog'i va qattiq qobig'i o'zining sog'lom ko'rinishini saqlab qoladi. Kasallangan mevaning qattiq qalin qobig'i sog'lom ko'rinadi hamda qattig'ligicha qoladi. Ichki o'zagi esa gul kosasidan tortib qisman yoki to'liq chiriydi va mevada kichkina qizg'ish qo'ng'ir dog'lar paydo bo'ladi.

Zararlangan mevalar och rangga kiradi va iste'mol uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Kasallik rivojlangan sari, jigar rang dog'lar kattalashib qo'shilib ketadi va mevalar chirishni boshlaydi. Kasallangan mevalar sog'lom mevalarga nisbatan og'irligi yengil roq bo'ladi va rangi ochiqroq bo'ladi. Kasallik rivojlanishining boshlanishida, zamburug' anor donlarining qo'ng'ir rangda yumshoq chirishiga sabab bo'ladi va zamburug' rivojlanib butun bir mevani chirishiga sabab bo'ladi. Garchi zararlangan mevani ajratib olish qiyin bo'lsada tajribali meva teruvchilar kasallangan mevalarni ajrata olishadi. Agar gullash davrida ko'p yomg'ir yog'sa, kasallik ko'proq mevani zararlashi mumkin shu sababdan gullash davridagi ortiqcha namlik kasallikdan zararlanish ehtimolini oshiradi.

Kasallikka qarshi kurashish

Bog'ni samarali boshqarishdagi amaliyotlar, masalan changni nazorat qilish va sanitariya (eski mevalarni va qurigan shoxlarni olib tashlash) yordamida kasallik tarqalishini kamaytirishi mumkin. Kasallangan, ammo, sog'lom ko'rinishli mevalar terim davrida daraxtni sekin silkitish orqali yerga tushirilishi mumkin. Daraxtlarni suvsizlikdan yoki ortiqcha sug'orishdan himoya qiling, aks holda meva yorilishi yuzaga keladi.

Anorning mevasining ichidan chirish kasalligi terimdan keyin bartaraf qilib bo'lmaydigan kasalliklar sarasiga kiradi. Kasallikni tarqalishini nazorat qilish uchun meva terimidan oldin dala sanitariyasiga rioya qilish va fungisidlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Barcha zararlangan mevalar yig'ib olinilishi va bog'dan tashqariga olib chiqib yo'qotilishi tavsiya qilinadi.

Gul kurtaklari ko'rinib boshlaganida va barglar chiqib boshlaganida zamburug'ga qarshi kimyoviy preparatlarni qo'llang. Mancozeb (0.25%) yoki Dithane M- 45 (0.25%) yoki Captaf (0.25%) preparatlaridan purkalsa kasallikni samarali nazorat qilsa bo'ladi. Mevalar yarim hajm olgunga qadar preparatlarni qo'llash davom etiriladi.

Daraxtlar ichida va bog'da yaxshi havo aylanishini ta'minlash maqsadida daraxtlarga shakl bering.



2.15.2-rasm.A) Barglarda Alteriya (Alternaria) kasalligi



B) Alternariya (Alternaria) qora dog'lari

Mevaning ichki chirishi, tashqi qismida hech qanday kasallik alomatini kuzatilmaydi.

Kasallik qo'zg'atuvchi: *Alternaria Alternata* zamburug'i

Anorda qora dog'larni keltirib chiqaruvchi *Alternaria Alternata* va mevaning ichki qismini chirishiga sabab bo'luvchi *Alternaria Alternata*, *Alternaria arborescens* va *Alternariatenuissimalar* orasida farq mavjud. Bu farq infeksiyaning ta'siri va mevada yuzaga keluvchi belgilariga qarab farqlanadi. Qora dog'lar keltiradigan zamburug' zarari mevaning qobiq qismiga ta'sir qilish bilan cheklanadi va uning eyiladigan ichki qismi sog'lom qoladi. Aksincha meva ichini chirishiga sabab bo'luvchi zamburug' meva ichiga zarar yetkazadi, lekin uning qobiq yuzasi hech qanday kasallik belgilarini ko'rsatmaydi. (2.15.3-rasm)

Belgilari

Alternariya qora dog‘lari anor mevasining yuzasida va barglarida kichik qizg‘ish, qo‘ng‘ir va qora dumaloq dog‘lar paydo bo‘lishi bilan aniqlanadi. Meva yuzasini qoplagan dog‘lar 1% dan 50%, gacha bo‘lishi mumkin va yashil sariq hoshiyali nekrotik yaralardan tashkil topadi. Kasallangan barglar rangi ocharadi va to‘kiladi. Mevaning zararlanishi po‘stloq yuza qismi bilan chegaralanadi va mevaning eyiladigan ichki qismi zararlanmasdan qoladi.

Kasalikka qarshi kurashish choralari

Kasalikka qarshi kurashish choralari “Alternariya” meva ichining chirishi yoki qora chirish kasalligiga bilan bir xil ko‘rinishda kechadi



2.15.3-rasm. A) Barglarda Alternariya qora dog‘lar

B) Mevalardagi Alternariya qora dog‘lar

Serkospora (Cercospora) meva va barglarning dog‘lanishi

Kasallik qo‘zg‘atuvchi: *Cercosporapunicae* zamburug‘i

Belgilari

Barglarida dog‘lar har xil o‘lchamda notekis qizg‘ish qo‘ng‘ir rangda sariq hoshiyali bo‘ladi va bir nechta yoki ko‘p miqdorda bo‘ladi. Bu dog‘lar odatda yopishqoq bo‘lmaydi. Mayda, dumaloq, qora dog‘lar gul kosabargida paydo bo‘ladi. Qobiqdagi meva dog‘lari esa qora, mayda va dumaloq ko‘rinishda uchraydi. Mevadagi dog‘lar bakterial kuyish yaralariga o‘xshab ketadi, lekin to‘qroq qora, alohida-alohida har xil o‘lchamda yoriqlarsiz va yopishmaydigan

bo‘ladi. Dog‘lar o‘sib kattalashganda, notekis dumaloq shaklda bo‘ladi hamda mevalarga ko‘rimsiz tus beradi. (2.15.4-rasm)

Kasallikka qarshi kurashish choralari

Kasallik qo‘zg‘atuvchi zamburug‘ o‘simlik qoldiqlari va kasallangan po‘stloq qismlarida yashaydi. Bu shamol keltiradigan konidiyalar (sporalar) orqali tarqaladi. Kasallik namlik yuqori bo‘lgan yomg‘irli mavsumlarda tez tarqaladi. Kasallangan mevalar Terib olinishi va bog‘dan olib chiqib yo‘q qilinishi tavsiya qilinadi.

Meva shakllangandan keyin 15 kunlik tanaffus bilan bir litr suvga Dithane M-45 yoki Captan 2.5 gr. qo‘shib mavsumda ikki yoki uch marta sepib turish kasallikni yaxshi nazoratga olishga yordam beradi.



2.15.4-rasm. A) Barglardagi Serkospora kasalligi belgilari

B) Mevadagi Serkospora kasalligi belgilari

Antroknoz kasalligi

Kasallik qo‘zg‘atuvchi: *Colletotrichum gloeosporioides* zamburug‘i

Belgilari:

Kasallik barglarda, poyada, mevalarda yoki gullarda har xil o‘lchamdagi botiq dog‘lar bilan namoyon bo‘ladi. Zararlangan barglar sariq rangga kiradi va to‘kiladi. Anor mevasi rivojlanishining barcha bosqichida kasallikka chalinishga moyildir. Mevalarda dog‘lar oldin dumaloq keyinchalik notekis shaklda rivojlanadi, ko‘ng‘ir rangdan to‘q qo‘ng‘ir rangga kiradi va mevani qisman yoki butunlay botiq dog‘lar qoplab oladi. Kasallik belgilari faqat meva pishganda namoyon bo‘ladi. Kasallik sentyabr-oktyabr oylari namlik yuqori va harorat 20-27°C bo‘lganda kuchayadi. (2.15.5-rasm)

Kasallikka qarshi kurashish choralari

Terim davridan keyin kasallikni kimyoviy nazorat qilish katta samara bermaydi, shu sababdan antroknos kasalligini va shunga o'xshash boshqa kasalliklarni hosil terishdan oldin nazoratga olish juda muhimdir. Bu yo'l bilan kasallikni daladan terimdan keyingi davrga (saqlash jarayoni) o'tishini cheklash mumkin.

- Karbendazim-Difenkonazol yoki Tiofonat metil preparatlarini (0.25ml/litr suv) ikki haftada bir sepib turish yaxshi natija beradi.

- Antroknos kasalligiga qarshi samarali ta'sir qiluvchi boshqa preparatlar Difenkonazol 25 EC (1.0 ml/ltr suv) yoki Prokloraz 45 EC (0.75ml/ltr suv).

- Sistematik Xeksakonazol (1ml/ltr suv) Tiofonat metil (1gr/ltr suv) Karbendazim 1gr/ltr suv) kabi fungisidlarni kasallikka qarshi 20 kun interval oralig'ida sepib turish ham juda yaxshi natija beradi..

- Kontakt fungisidlar Xlorotanolonil (2gr/ltr suv) va undan so'ng Mankozeb (2gr/ltr suv) sepib turish ham samarali natija beradi.



2.15.5-rasm. A) Antroknos kasalligidan barglarning zararlanishi



B) Antroknos kasalligidan mevani zararlanishi

Bakteriyali kuyish natijasida chirish

Kasallik qo'zg'atuvchi: *Xanthomonas axonopodis* pv. *punicae* bakteriyasi

Belgilari

Belgilar barglarda va mekada dog'lar, poyalarda, shoxlarda, va daraxt tanasida chirish(rak) ko'rinishida namoyon bo'ladi. Kasallik o'simlikning barcha qismlarini zararlaydi va barglarda, mekada kichik, to'q jigarrang, tekis-notekis suvli yaralar hosil qiladi. Poya qismida kurtaklar atrofida kasallik jigarrang va qora rangli dog'lar ko'rinishida rivojlanadi. Kasallik rivojlanishinig yuqori bosqichlarida novdalarning po'stloqlarini qovjiratib yorilishiga olib keladi va natijada ular sinadi. Barglarda esa kasallik kichik, notekis, 2dan 5mm gacha o'lchamdagi suvli dog'lar va to'g'nog'ich shaklidagi nekrotik dog'lar paydo bo'lishi bilan boshlanadi (2.15.6-rasm)

Kasallik kuchaygan davrida, suvli yaralar Erta barg to'kilishiga sabab bo'ladi. Mevalardagi kuygan yaralar hattoki boshlang'ich bosqichlarda ham kichik yoriqlar shakllanishi bilan ajralib turadi. Bu yaralar birlashib meva yorilishiga va ikkilamchi infeksiyalarni (ko'k mog'or) rivojlanishiga sabab bo'ladi. Zararlangan poya va novdalar qovjirab quriydi va sinib tushadi. Infeksiyaning rivojlangan bosqichlarida, asosiy poyada va shoxlarda chirish (rak) rivojlanishi sodir bo'ladi.

Bakterial kuyish 9-43°C haroratda va kamroq namlikda ham hayot kechirishi mumkin, ammo yuqori namlik sharoitlarida (>80%) va mo'tadil haroratda (25-35°C) infeksiya yanada kuchayadi. Kasallik sog'lom o'simliklarga shamol sachratadigan yomg'ir orqali va yangi kesilgan shoxlar orqali tarqaladi.

Kasallikka qarshi kurashish choralari

Kasallik bilan zararlanmagan ko'chat tanlashga harakat qiling.

Bordo (1.0%). suyuqligidan foydalaning.

Streptosiklin (0.025%) bilan mis oksidloridi (0.25%) aralashmasi yoki Karbendazim (0.15%) preparatlaridan 15 kunlik tanaffus bilan 5-6 marta barglar chiqish davridan boshlab daraxtlarga ishlov bering.

Imkoni bo'lsa, shoxlarning kesilgan uchlariga Bordo (10%) pastasi surtish tavsiya qilinadi.



2.15.6-rasm. A) Barglarda bakterial kuyish belgilari



B) Mevalarda bakterial kuyish belgilari

2.16. Aspergil (Aspergillus) meva chirishi

Kasallik qo'zg'atuvchi: *Aspergillusniger* zamburug'i

Belgilari

Aspergil niger (*Aspergillusniger*) turli mevalarda uchraydigan chirish bo'lib, jarohat (yara) qo'zg'atuvchi kasallik sifatida tanilgan. Mevalarda rang o'zgarishi gulkosa uchida va meva yuzasida boshlanadi. Zararlangan meva odatda bir oz rangsizlangan, och qizil rangli va sariq rangdan qo'ng'ir qizil rangga o'zgaradi. Kasallik meva qobig'ini yorilishi bilan farqlanadi va bu yoriqlar mevalar iliq haroratda saqlanganda ikkilamchi infeksiyani chaqiradi. Chirish qobiqdan o'tib, anor urug'lariga ham ta'sirini o'tkazadi va to'q kulrang-'qo'ng'ir qora rangda bo'ladi lekin suvli bo'lmaydi. Aspergil chirish infeksiyasi bog'da yomg'irlardan so'ng gullash va meva rivojlanishining boshlang'ich davrlarida yuzaga keladi. Zamburug' Alterniya meva chirishi kabi hech qanday tashqi belgilarsiz meva ichida rivojlanishda davom yetadi. Zamburug'larning ko'payishiga hashorat kemirishi, qushlar cho'qishi, quyoshdan kuyish yoki boshqa ta'sirlar sababli mevada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yoriqlar va yaralar sabab bo'ladi. Shu sababdan, meva chirishi (*Yerwinia* sp.) bakteriyasi va (*Saccharomyces* sp.) achchitqi infeksiyalari ta'sirida rivojlanishda davom yetishi mumkin. (2.16.1-rasm)

Kasallikka qarshi kurashish

Meva toji gul to'qimalarini himoyalagani sababli, hosildan oldin kimyoviy preparatlardan foydalanish samarasizdir. Changni nazorat qilish va dala sanitariyasi (eski mevalarni va quruq shoxlarni olib tashlash) kabi samarali bog' boshqaruvi amaliyoti kasallikni hosildan oldin va keyingi davrlarda rivojlanishini kamaytirishga yordam berishi mumkin. Mevadan oziqlanadigan qurtlar va barg kemiruvchi qo'ng'izlar meva bilan oziqlanib unda chandiqlar qoldiradi va kasallik shu chandiqlar orqali rivojlanishi mumkin. Zararlangan ammo sog'lom ko'rinishli mevalarni yig'im-terim davrida daraxtni sekin silkish yordamida yerga tushirish mumkin. Suv tanqisligidan daraxtni stresga solish va keragidan ortiq sug'orishdan ehtiyot bo'ling chunki bu meva yorilishiga olib kelishi mumkin.

